"Nostandart fikrlash" tushunchasi kishilarning odatiy fikrlash tarziga nomuvofiq, g'ayrioddiy fikrlash, noodatiy usul va yo'llar bilan xulosalar chiqarishi, vaziyatdan chiqishning eng maqbul muqobillarini izlab topish, muammo echimiga ijodiy fikrlash orqali yoshdashish ko'nikmasidir. Xar qanday kuchli iqtidor egasi nostandart fikrlash tarzi mahsulidir. Nostandart fikrlash tarzi inson iqtidorini yuzaga chiqarishga, uning ijodiy, intellektual va ilmiy salohiyatini rivojlanishga imkon beradi.

Pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning yangi shakllarini kashf etish, ta'lim samaradorligini oshirishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, metodologiyasi, metodika

<sup>3</sup> Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi /Darslik. M.X.Toxtaxodjayeva va boshq.– T.: "Moliya-iqtisod", 2007. – 379 b

va metodlar nuqtai nazaridan innovatsion shakllarni amaliyotga kiritish ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Ayni paytda pedagogikada ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlar sifatida

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
- akmeologik ta'lim
- kompetensiyaviy ta'lim asosida ta'lim jarayoni

takomillashtirilmogda

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchining faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligini ta'minlash, ular uchun maqbul bo'lgan o'qitish metodlarini saralash;
- o'quvchilarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda fan bo'yicha "men" ini namoyon qilishga bo'lgan intilishini kuchaytirish va munosib rag'batlantirish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning emotsional holati, ulardagi mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini inobatga olish;
- ta'lim oluvchilarning ta'lim yo'nalishi strategiyasiga xos bo'lgan o'quv kunikmalarini maqsadli shakllantirish;
- pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba vazifalarini qayta taqsimlash:
- o'qituvchining avtoritar etakchiligini maslaxatchi yordamchi, tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi roliga almashtirish.

Pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlardan biri **akmeologik** yondashuvdir. Ta'limda akmeologik yondashuvning maqsadi har qanday pedagogik vaziyatlarda pedagogning mustaqil va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, ijodiy va kreativ fikrlash qaobiliyatini rivojlantirishdan iborat. "Akmeologiyaning mazmun-mohiyati insonning har bir kasb-xunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-xuquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-xunar sahasidagi burch va ma'suliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat"<sup>4</sup>.

Akmeologik yondashuvga asoslangan ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

---

<sup>4</sup> Shayxova X.A. Ma'naviyat-komolot kuzgusi.-T.: G'.G'ulom nomidagi MMIU, 2009- B 115.

- pedagogika bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalarni muvafaqiyatli egallashga erishish, ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash:

- bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy va nostandart tafakkur tarzi, ta'limni ichki extiyojga aylanishga erishish kunikmalarini shakllantirish;

- bo'lajak pedagoglarda iqtidor, qobiliyat, maxorat kabi sifatlarni rivojlantirish.

Bo'lajak pedagoglarni rivojlanib, o'zgarib boruvchi jamiyat talablariga javob bera oladigan talablar darajasida tarbiyalashda ta'limga **kompetensiyaviy** yondashuvni tadbiq qilish bir qator ustuvorliklarga ega:

1-dan an'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy bilim beruvchi hisoblansa, kompetensiyaviy ta'limda moderator, fasilitator sifatida faoliyat olib boradi.

2-dan an'anaviy ta'limda o'qituvchining etakchiligiga asoslangan metodlar ustun tursa, kompetensiyaviy ta'limda esa o'quvchi, talabani mustaqil fikrlashga undovchi interaktiv metodlar ustuvorlik kasb etadi.

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuvda faqat ta'limning mazmuni emas, uni tashkil etish jarayonlari, vositalari, texnologiyalarida ham takomillashib bormoqda. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchining kasbga oid bilim, malaka, ko'nikmalari bilan birga uning shaxsiy fazilatlarini ham takomillashtirishga qaratiladi. Bunga asoslanib pedagog kadrlar kompetensiyasi turlari sifatida:

**Standart kompetensiya-** ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati;

**Asosiy kompetensiya-** ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati;

**Yetakchi kompetensiya-** kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga<sup>5</sup> alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston taraqqiyotining bugungi davrida pedagogik fikrlarning rivojiga doir turli xil yo'nalishlarda maqsadli manzilli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berildi. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida urganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

<sup>5</sup> O. Musurmonova. pedagogik texnologiyalar-ta'lim samaradorligi omili. "YOSHLAR NASHRIOT UYI" Toshkent-2020. 183. (52 b)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23- sentyabdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.// URQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi "o'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni// PF-5847-son.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi /Darslik. M.X.Toxtaxodjayeva va boshq.- T.: "Moliya-iqtisod", 2007. – 379 b.
4. Shayxova X.A. Ma'naviyat-komolot kuzgusi.-T.: G'.G'ulom nomidagi MMIU, 2009- B 115.
5. O.Musurmonova. pedagogik texnologiyalar-ta'lim samaradorligi omili. "YOSHLAR NASHRIOT UYI" Toshkent-2020. 183. (52 b).

## MARKETING PSIXOLOGIYASIDA O'ZARO MUNOSABATLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**SAFAROV Dilmurod Xalimovich**

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudir, psixologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqoladi Bozor munosabatlariga nisbatan iqtisodiy bilimdonlikni, mushohada yuritish qobiliyatini, iqtisodiy onglik va iqtisodiy ziyraklikni aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomada "sotuvchi-xaridor" diadasi o'zaro munosabatlari jarayonining geografik-demografik omillarning tadqiqotlar davomida olingan natijalar tahlili, ochib berilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Sotuvchi, xaridor, tadqiqot, diada Savdo-sotiq, bozor, Marketing.*

### **Аннотация**

*В статье анализируются результаты изучения географических и демографических факторов в процессе взаимодействия диад «продавец-покупатель» с использованием социально-психологического опроса, направленного на определение экономических знаний, наблюдений, экономической осведомленности и экономической разведки в отношении рыночных отношений.*

### **Ключевые слова**

*Продавец, покупатель, исследование, диада, трейд, рынок, маркетинг.*

### **Abstract**

*This article analyzes the results of the study of geographical and demographic factors in the process of "seller-buyer" diada interaction using a socio-psychological survey aimed at determining economic knowledge, observation, economic awareness and economic intelligence in relation to market relations.*

### **Keywords**

*Seller, buyer, research, diada Trade, Market, Marketing.*

**Kirish.** Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki "yarimta jumladan" ham fikr ayon bo'ladigan

bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, bozor (savdo-sodiq) muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik bozorning barcha ishtirokchilari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (sotuvchi-xaridor, sotuvchi-sotuvchi, xaridor-xaridor va hokazo).

**Asosiy qism.** Bozor munosabatlariga nisbatan iqtisodiy bilimdonlikni, mushohada yuritish qobiliyatini, iqtisodiy onglilik va iqtisodiy ziyraklikni aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma yordamida "sotuvchi-xaridor" diadasi o'zaro munosabatlari jarayonining geografik-demografik omillar blokini aniqlashga muvaffaq bo'lindi (1-rasmga qarang). Jumladan, IPS<sup>6</sup> orqali tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning hudud joylashuvi, jinsi, yoshi, oila tarkibi, hayotiy sikl bosqichi, faoliyat sohasi, ma'lumoti, e'tiqodi, millati, aholining zichligi va soni, tijoriy faoliyat tuzilmasi, iqlim, hududiy rivojlanish dinamikasi, inflyasiya darajasi va boshqa ma'lumotlari qo'lga kiritildi hamda dissertatsion tadqiqot doirasida tahlili amalga oshirildi.



Tadqiqotda "sotuvchi" mavqeida ishtirok etgan respondentlarning 55 foizi – erkaklarni va 45 foizi – ayollarni tashkil qildi. "Xaridor" mavqeida ishtirok etgan sinaluvchilarning 47 foizi – erkaklardan va 53 foizi – ayollardan iborat.

Sotuvchi-respondentlar oilasining tarkibi (9-savol) bo'yicha IPS natijalarini tahlil qilar ekanmiz, sinaluvchilarning 22,3 foizi – bobo-buvisi, 28,8 foizi – ota-onasi, 64,7 foizi – turmush o'rtog'i, 25,2 foizi – o'g'li, 48,9 foizi – qizi, 21,6 foizi – kelini yoki kuyovi, 18,0 foizi – nabirasi, 39,6 foizi – opa-singillari

<sup>6</sup> Изох: ИПС иккита қисмдан ташкил топган. Бунда (а) сотувчилар учун мўлжалланган ИПС 21 та саволдан; (б) харидорлар учун мўлжалланган ИПС 23 та саволдан иборат.

yoki aka-ukalari, 6,5 foizi – boshqa qarindoshlari bilan birgalikda istiqomat qilishlarini ta’kidlashgan.

Xaridor-respondentlar oilasining tarkibi (10-savol) bo’yicha IPS natijalarini tahlil etadigan bo’lsak, sinaluvchilar oilasining tarkibida 23,5 foizi – bobosi, 26,8 foizi – buvisi, 68,6 foizi – otasi, 62,0 foizi – onasi, 32,7 foizi – akasi, 39,7 foizi – opasi, 47,6 foizi – ukasi, 27,8 foizi – singilisi, 5,3 foizi – boshqa qarindoshlari borligini e’tirof etishgan.


“Siz o’zingizni iqtisodiy jihatdan qaysi toifadagi oilaga mansubman deb hisoblaysiz?” – degan savolga (mos ravishda 10-, 11-savollar) javob berishar ekan, sotuvchilarning 20 foizi va xaridorlarning – 9,6 foizi o’zlarini badavlat oilaga mansub deb bilishadi. 44 foiz “sotuvchi” va 11,4 foiz “xaridor” respondent o’zini “o’rtacha badavlat” oila vakili hisoblashadi. Har ikkala toifa sinaluvchilarning yarmidan ortig’i (mos ravishda – 59,0; 66,3 foiz) o’z oilasini iqtisodiy jihatdan badavlat emas deb sanashadi. Shuningdek, sotuvchilardan – 11,5 foiz, xaridorlardan – 12,7 foiz tadqiqot ishtirokchisi oilasini iqtisodiy nuqtai nazardan qanday toifaga mansub ekanligini aniq ayta olishmaydi.

“Oilangizda oyiga necha marta yirik xaridlar amalga oshiriladi?” – degan savolga (mos ravishda 13-, 12-savollar) javob berishar ekan, quyidagilarni alohida e’tirof etish mumkin. Aniqlanishicha, 34,6 foiz (17,3 foizi – erkak, 17,3 foizi – ayol) sotuvchi-respondentlarning oilasida “oyda bir marta” yirik xarid amalga oshirilar ekan. Ikkinchi toifa sinaluvchilarning 32,7 foizi (18,0 foizi – erkak, 14,7 foizi – ayol)da esa yirik xaridlar “oyda bir marta” qilinishi ma’lum bo’ldi. “Oyda ikki marta” yirik xaridni amalga oshirish borasida – “sotuvchi”lar oilasi 28,8 foiz, “xaridor”lar oilasi 38,7 foizlik natijani ko’rsatdi. 25,2 foiz sotuvchi-respondent oilasida “haftasiga bir marta” oilaviy yirik xarid amalga oshirilsa, xuddi shu ko’rsatkich ikkinchi toifa guruhda – 17,7 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, mos ravishda – 11,5 foiz va 10,9 foiz sinaluvchilar oilasida yirik xaridlar hech qanday rejasiz amalga oshirilar ekan.

Yuqoridagi savolning mantiqiy davomi hisoblangan “Oilangiz yirik xaridlarni qayerdan qilishadi?” – deb nomlangan savol (mos ravishda 14-, 13-savollar) natijalaridan ko’rinadiki, birinchi guruh vakillarining 36,0 foizi, ikkinchi guruh vakillarining 34,9 foizini oilasi yirik xaridlarni “shahar/tuman markazidagi bozordan” amalga oshirishar ekan. Mos ravishda – 24,5 foiz va 17,7 foiz sinaluvchi oilasi ushbu xatti-harakatlarni shahar/tuman markazidagi supermarketdan qilishadi. Shuningdek, uyi oldida / mahallasidagi minimarket yoki do’kondan yirik xaridlarni qilishadigan oilalar esa mos ravishda – 39,6 foiz hamda 47,3 foizni tashkil etadi. Yirik xaridlarni uyi oldida / mahallasidagi minimarket yoki do’kondan amalga oshiradigan oilalar sifatida ko’rsatilgan javoblarni, odatda, ayol sinaluvchilar ta’kidlashgan. Ya’ni, 23,7 foiz

“sotuvchi” va 23,8 foiz “xaridor” ayol-respondent “uyimiz oldida / mahallamizdagi minimarket/do’kondan” degan javobni qayd etishgan.

Respondentlarning IPSdagi “Xaridlar orasidan oziq-ovqat mahsulotlari qayerdan olinadi?” – deb nomlangan savol (mos ravishda 15-, 14-savollar)ga berishgan javoblaridan quyidagilar aniqlandi. Natijalarga ko’ra, har ikkala toifa sinaluvchilar guruhi vakillarining yarmidan ko’pi (mos ravishda – 69,1; 54,9 foiz) tomorqada etishtirilgan yoki bozordan sotib olingan –plastmassa o’ramsiz oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishar ekan. O’z mamlakatimizda etishtirilgan va super/minimarket/do’konlardan plastmassa idishlarda sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlarini esa 6,5 foiz erkak-sotuvchi, 18,0 foiz erkak-xaridor o’z javoblari orqali e’tirof etishgan bo’lishsa, mos ravishda 9,4 foiz va 12,9 foiz ayol sinaluvchilar hayotida yuqoridagi holatni guvohi bo’lish mumkin. Jami sinaluvchilarning 14,4 foiz (mos ravishda 21; 56 nafar) ko’p hollarda – super/minimarket/do’konlardan elim (plastmassa) idishlardagi import mahsulotlar hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishar ekan.



2-rasm. Birinchi marta xaridni amalga oshirish ko’rsatkichi.

“Sotuvchi-xaridor” diadasi munosabatlari mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan navbatdagi “Birinchi marta necha yoshda o’z qaroringizga ko’ra xaridni amalga oshirgansiz?” – degan savol (mos ravishda 16-, 15-savollar)ga berilgan javoblar orqali dastlabki xarid bilan bog’liq quyidagilar aniqlandi. 3.2-rasm natijalariga ko’ra, birinchi toifaga mansub sinaluvchilarimizning 37 foizi, ya’ni 17 nafar erkak va 20 nafar ayol “sotuvchi” 6 yoshgacha bo’lgan davrida dastlabki xaridni amalga oshirishgan. Atiga 6 foiz

ikkinchi toifaga mansub respondent “xaridor” 6 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘z qarori bilan xarid qilgan. “Sotuvchi” respondentlarning 40 foizi – 7 yoshida, 52 foizi esa 8 – 11 yoshlarida birinchi marta o‘z qarorlariga xarid etishgan. Shuningdek, “xaridor” respondentlarimizdan tashkil topgan ikkinchi toifaga mansub guruhda bu ko‘rsatkich – mos ravishda 7 va 12 foizni tashkil qilgan. Lekin 75 foiz, ya’ni 297 nafar “xaridor”, 7 foiz “sotuvchi” birinchi marta necha yoshida o‘z qaroriga muvofiq xaridni amalga oshirishganini eslay olishmagan.

Shuningdek, “O‘zingiz uchun kerakli xaridni kim bilan qanday amalga oshirasiz?” degan navbatdagi savol(mos ravishda 17-, 16-savollar)ga esa tadqiqot qatnashchilaridan: 64 nafari (8,6; 13,2 foizi) – “otam/onamni ixtiyorida”, 211 nafari (36,7; 40,5 foizi) – “otam/onam bilan kelishgan holda va birgalikda”, 212 nafari (46,8; 37,2 foizi) – “o‘zim mustaqil ravishda”, 47 nafari (7,9; 9,1 foizi) – “mustaqil ravishda do‘stim/dugonam bilan” o‘zlari uchun kerakli xaridlarni amalga oshirishlarini ta’kidlashgan.

IPSning “Oxirgi marta oilangiz uchun necha so‘mlik xaridni amalga oshirgansiz?” degan savol(mos ravishda 18-, 17-savollar)ga ishtirokchilar tomonidan quyidagicha javob berildi. Ya’ni, “sotuvchi”lar guruhi vakillaridan 12,9 foizi (4,3 foiz – erkak, 8,6 foiz – ayol) 150 000 so‘mgacha, 35,3 foizi (17,3 foiz – erkak, 18,0 foiz – ayol) 150 000 dan 500 000 so‘mgacha, 45,3 foizi (19,4 foiz – erkak, 25,9 foiz – ayol) 500 000 so‘mdan ortiq xaridni aynan oilasi uchun qilishganini qayd etishgan. Shuningdek, sinaluvchilarimizdan 11 nafar erkak va 7 nafar ayol oilasi uchun hech qanday xaridni amalga oshirishmagani ma’lum bo‘ldi. Ular faqat o‘zlari uchun xarid qilishgan.

Bozor munosabatlari jarayonida “sotuvchi-xaridor” diadasi ko‘rinishidagi munosabatlar mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi “Xaridni amalga oshirishda odatda nimalarda qiynalasiz?” – degan savol(mos ravishda 19-, 18-savollar)ga berilgan javoblar quyidagi tahlillar chiqarilishiga asos bo‘ldi.

1-jadval natijalaridan ko‘rinadiki, har ikkala toifaga mansub sinaluvchilardan 119 nafar erkak va 96 nafar ayol (jami 40,3 foiz) “sifatni tanlashda”, 146 nafar erkak va 43 nafar ayol (jami 35,4 foiz) “narxni so‘rashda”, 174 nafar erkak va 128 nafar ayol (jami 56,5 foiz) “haqiqiy va qalbaki mahsulotni farqlashda”, 74 nafar erkak va 145 nafar ayol (jami 41,0 foiz) “muloqot tilida”, 124 nafar erkak va 188 nafar ayol (jami 58,4 foiz) “to‘lovni amalga oshirishda”, 195 nafar erkak va 104 nafar ayol (jami 56,0 foiz) “masofada”, 181 nafar erkak va 164 nafar ayol (jami 64,6 foiz) “qaytimni so‘rolmaslikda”, 194 nafar erkak va 96 nafar ayol (jami 54,3 foiz) “sotuvchining munosabatida”, 154 nafar erkak va 87 nafar ayol (jami 45,1 foiz) “ko‘ngildagi tovarni topolmaslikda”, 61 nafar erkak va 60 nafar ayol (jami 22,7 foiz) “boshqa sabablarga” ko‘ra xaridni amalga oshirishda qiyinchiliklarga ro‘baru kelishar ekanlar.

1-jadval.

Respondentlarning “Xaridni amalga oshirishda odatda nimalarda qiynalasiz?” savoliga bergan javoblaridagi etakchi omillar (n=534; foizli tahlil)

T/r	Xaridni amalga oshirishga to‘siq bo‘luvchi etakchi omillar	Sotuvchilar n=139			Xaridorlar n=395		
		erkak	ayol	jami	erkak	ayol	jami
1.	sifatni tanlashda	8,6	10,8	19,4	27,1	20,5	47,6
2.	narxni so‘rashda	3,6	5,0	8,6	35,7	9,1	44,8
3.	haqiqiy va qalbaki mahsulotni farqlashda	22,3	26,6	48,9	36,2	23,0	59,2
4.	muloqot tilida	7,9	10,1	18	15,9	33,2	49,1
5.	to‘lovni amalga oshirishda	36,0	46,8	82,8	18,7	31,1	49,8
6.	Masofada	34,5	43,9	78,4	37,2	10,9	48,1
7.	qaytimni so‘rolmaslikda	5,0	2,2	7,2	44,1	40,8	84,9
8.	sotuvchining munosabatida	29,5	38,1	67,6	38,7	10,9	49,6
9.	ko‘ngildagi tovarni topolmaslikda	28,8	36,0	64,8	28,9	9,4	38,3
10.	yana nima?	7,2	16,5	23,7	12,9	9,4	22,3

“Sotuvchi”larning fikricha, “to‘lovni amalga oshirish”, “masofa”, “sotuvchining munosabati”, “ko‘ngildagi tovarni topolmaslik” va “haqiqiy va qalbaki mahsulotni farqlash” kabi xaridni amalga oshirishga to‘siq bo‘luvchi etakchi omillar beshligini tashkil etar ekan. Bunda ham erkak, ham ayol sotuvchilar uchun “sotuvchi-xaridor” diadasidagi munosabatlarga to‘sqinlik birlamchi omil – bu “to‘lovni amalga oshirish” (mos ravishda – 36,0; 46,8 foiz) sanaladi.

Shuningdek, shu parametr bo‘yicha “xaridor”larning fikriga murojaat qilsak, “qaytimni so‘rolmaslik”, “haqiqiy va qalbaki mahsulotni farqlash”, “to‘lovni amalga oshirish”, “sotuvchining munosabati” va “muloqot tili” kabi xaridni amalga oshirishga to‘siq bo‘luvchi etakchi omillar beshligini guvohi bo‘lish mumkin. Bunda ham erkak, ham ayol xaridorlar uchun “sotuvchi-xaridor” diadasidagi munosabatlarga to‘sqinlik birlamchi omil – bu “qaytimni so‘rolmaslik” (mos ravishda – 44,1; 40,8 foiz) hisoblanadi. (1-jadvalga qarang).

“Xaridni amalga oshirib bo‘lgach uyga qanday etib borasiz?” – deb berilgan savol(mos ravishda 20-, 19-savollar)ga sinaluvchilar javoblarida quyidagi tafovutlar ko‘rinadi. Jumladan, xaridni amalga oshirgach “sotuvchi”larning 36,0 foizi – shaxsiy mashinasida yana 35,3 foizi esa taksida yoki oila a‘zolarining mashinalarida uylariga qaytishsa, ikkinchi toifa sinaluvchilar – “xaridor”larning deyarli yarmi, ya‘ni 48,1 foizi xariddan so‘ng taksida yoki oila a‘zolarining mashinalarida uylariga etib olishadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, 23,7 foiz “sotuvchi” va 23,8 foiz “xaridor” ayol-respondent uyi oldida / mahallasidagi minimarket/do‘kondan (mos ravishda

14-, 13-savollar) xaridni amalga oshirishsada, lekin taksi xizmati yoki oila a'zolarining shaxsiy ulovidan foydalanishar ekan. Faqatgina 18 foiz birinchi toifa, 19,7 foiz ikkinchi toifaga mansub (umumsinaluvchilar soniga nisbatan – 18,0 foiz) respondentlarimiz xariddan so'ng uylariga piyoda yoki velosipedda qaytishadi. Jamoat transportidan esa hammasi bo'lib, 88 nafar sinaluvchi (16,5 foiz) bozor-uchar qilib bo'lgach, uyga qaytishda foydalanishadi.

IPSning "Odatda o'zingiz uchun zarur bo'lgan/bo'ladigan narsalarni qachon, qanday sharoitda va qayerdan xarid qilasiz?" – degan savol(mos ravishda 21-, 20-savollar)iga esa quyidagi javoblarni ko'rish mumkin.

3.2-jadval natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala toifa sinaluvchilar o'zlari uchun zarur bo'lgan/bo'ladigan narsalar xaridini odatda xohlagan vaqtda bozor yoki do'kondan, mavsumga qaramasdan (mos ravishda – 46,8; 32,9 foiz) amalga oshirishlari ma'lum bo'ldi.

Umuman olganda, IPS orqali olingan bozor munosabatlari jarayonining sub'ekt(sotuvchi-xaridor)lari sanalgan respondentlarga oid barcha ma'lumotlarni keyingi paragraflarda tizimli tahlilini yuritish uchun, avvalo, "avlodlar toifasi" kontekstidagi "sotuvchi psixologiyasi" va "xaridor psixologiyasi"ga nisbat olib ijtimoiy-psixologik tahlil qildik. Bunda tahlillar, 2.1-paragrafda ta'kidlangan geografik- demografik, psixografik hamda xulq-atvor omillari bloki bo'yicha yaxlitlandi.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnoma bilan bir qatorda mazkur bosqichda "Z" va "X" avlodga mansub "xaridor" va "sotuvchi" respondentlarning barchasiga qo'shimcha ravishda E. Bernning "Shaxslararo munosabatlarda rolli pozitsiyani aniqlash" so'rovnomasi bilan murojaat qilindi (jami 139 nafar). Sababi "sotuvchi-xaridor" diadasi munosabatlari jarayonining "geografik" va "demografik" omillarni aniqlashda respondentlarning hudud joylashuvi, jinsi, yoshi, oila tarkibi, hayotiy sikl bosqichi, faoliyat sohasi, ma'lumoti, e'tiqodi, millati, aholining zichligi va soni, tijoriy faoliyat tuzilmasi, iqlim, hududiy rivojlanish dinamikasi, inflyasiya darajasi va boshqa ma'lumotlarning ijtimoiy-psixologik tahlili zarur.

Sinaluvchilar berilgan 21 ta tasdiq sotuvchining xaridorga yoki xaridorning sotuvchiga bo'lgan murojaatida, o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqib, "ota-ona", "katta yoshli", "bola" Menlaridan qaysi biridan foydalanishlarini ochiqlab beradi.

Aniqlanilishicha, "KBO" (kattalar → bolalar → ota-onalar) formulasi ko'rinishidagi rolli pozitsiya egalari sanaladigan 36 nafar respondent (25,9 foiz)da xoh u "sotuvchi", xoh u "xaridor" rolida bo'lsin, savdo-sotiq ishlarida mas'uliyat hissi shakllanganligini guvohi bo'lish mumkin. Shuningdek, bu toifa sinaluvchilar o'zlarining etarli darajada impulsiv, ya'ni

tevarak-atrofdagi shaxslarga nisbatan pand-nasihat, tanbeh berishdan uzoqroq inson ekanligi bilan alohida ajralib turishadi.

3.3-jadval.

**Sinaluvchilarning shaxslararo munosabatlarda egallaydigan rolli pozitsiyalari (n=139)**

T/r	Avlodlar toifasi	Shaxslararo munosabatlarning rolli pozitsiyasi formulasi							
		Sotuvchi (n=52)				Xaridor (n=87)			
		KBO	OBK	BOK	boshqa	BO	BK	OK	boshqa
1.	“Z avlod”					8	3	8	4
2.	“X avlod”	13	17	16	6	5	3	4	22
	Jami	13	17	16	6	3	6	2	26

“OBK” (ota-onalar → bolalar → kattalar) formulasi ko‘rinishidagi rolli pozitsiya sohib(a)lari hisoblanadigan 33 nafar respondent (23,7 foiz)da “sotuvchi” yoki “xaridor” rollaridan qaysi birida bo‘lishidan qat’iy nazar, iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonida qat’iyligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi orqali ajralib turishadi. Mazkur formulaga asoslanib, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatuvchi diada sohib(a)larida bolalarcha mag‘rurlik alohida xususiyat sanalib, ular aksariyat hollarda voqeylikni oqibatini o‘ylamasdan, reallikka (haqiqatga) tik borish jihatlari bilan boshqalardan tafovutlanishadi. Shu bois, bunday “sotuvchi-xaridor” diadasi sub’ektlarini inson-inson munosabatlari tizimida emas, balki inson-texnika yoxud inson-belgilar tizimida faoliyat yurituvchi kasblarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlarini alohida e’tirof etish zarur.

“BOK” (bolalar → ota-onalar → kattalar) formulasi ko‘rinishidagi rolli pozitsiyada diada munosabatlarni o‘rnatuvchi sinaluvchilar 38 nafar (27,3 foiz)ni tashkil etib, ular “sotuvchi” yoxud “xaridor” rolidan birini bajarishayotganda, ya’ni tovar(xizmat)larni tanlashayotgan vaqtlarida, ularning sifatiga, yorliqdagi ishlab chiqarish sanasiga, kimga/nimaga mo‘ljallanganligi, bir so‘z bilan aytganda texnik asosnomasiga alohida ahamiyat qaratishadi. Diada munosabatlari kontekstida bunday toifa sinaluvchilardagi bolalarcha soddalik va beg‘uborlikning chegarasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Aniqlanishicha, bu toifa respondentlar o‘z “bilag‘onlik”lari oqibatida noto‘g‘ri tanlovni amalga oshirishib, iqtisodiy munosabatlar jarayoniga xalaqit berishi mumkin bo‘lgan hissiyotlarini to‘la nazorat qila olishmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yaspers K. Obщaya psixopatologiya / Per. s nem. L.O. Akopyana. – M.: Praktika, 1997. – 1056 s.
2. Estetika i teoriya iskusstva XX veka: Xrestomatiya / Sost. N.A. Xrenov, A.S. Migunov. – M.: Progress-Traditsiya, 2008. – 688 s.
3. Karamyan M.X. Shaxsning salomatlikka qadriyat sifatidagi munosabatining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi: Psixologiya fan. doktori (DSc) ... dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2019. – 80 b.
4. Ishmuxamedov B.J., Muratov R.S. Tadbirkorlik faoliyatini asoslari: uslubiy qo'llanma – T.: Iqtisodiyot, 2018. 137 b. / [Elektron resurs] URL: <http://alternatus.uz>
5. Isayev V.V. Marketing lichnosti. Uchebnoye posobiye. – SPb.: SPbGIEU, kafedra marketinga i upravleniya proyektami, 2003 – 259 s. / [Elektron resurs] URL: <https://www.marketing.spb.ru/lib-mm/tactics/personality.htm#>
6. Igan Dj. Marketing vzaimootnosheniy: analiz marketingovykh strategiy na osnove vzaimootnosheniy: [ucheb. dlya vuzov po spetsialnostyam ekonomiki i upr. 080100 «Kommersiya (torgovoye delo)»]: per. s angl. / D. Igan. – M.: YUNITI-DANA, 2008. 363 s.

## O'ZBEKISTONDA AJRALISHNING IJTIMOY-ETNOPSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA JIHATLARI

**RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich**

*psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

### **Annotatsiya**

*Oila barqarorligini shakllantirish, oiladagi nizolar, ajralishlarni oldini olishda etnopsixologik xususiyatlarning ijtimoiy psixologik aspektlarini o'rgatish orqali oilalar mustahkamligini ta'minlash, sog'lom farzand tarbiyalash va voyaga etkazish eng muhim masalalarimizdan biridir.*

### **Kalit so'zlar**

*Etnopsixologiya, oila, nikoh, ajralish, taloq, ma'naviy qadriyatlar, nikoh munosabatlari, er-xotin munosabatlari, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi.*

### **Аннотация**

*Одним из самых важных вопросов является укрепление семьи, растит здоровых детей и воспитывают их, обучая их социально-психологические аспекты этнопсихологических особенностей в формировании устойчивости семьи, профилактике семейных конфликтов, разводов.*

### **Ключевые слова**

*Этнопсихология, семья, брак, развод, духовные ценности, супружеские отношения, стабильность семьи, воспитание детей.*

### **Annotation**

*One of our most important issues is to strengthen families, raise healthy children and bring them up by teaching them the socio-psychological aspects of ethnopsychological features in the formation of family stability, prevention of family conflicts, divorces.*

### **Keywords**

*Ethnopsychology, family, marriage, divorce, spiritual values, marital relations, family stability, child rearing.*

**Kirish.** Qadimdan dono xalqimizning urf-odatlarini, an'analari islom diniy ta'limoti bilan uyg'unlashgan holda ma'naviyatimizni oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligidan so'ngi davrlarga e'tibor qaratsak, nafaqat islomiy balki, undan oldingi avlodlarimizdan meros bo'lib qolgan bir qator an'ana va udumlarimiz ma'naviy qadriyatlarimizga singib ketganligini bois kundalik hayotiy tarzda qo'llaniladigan darajada tarbiyaviy ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Shaxslararo munosabatlarda kishi ruhiyatining o'z milliy qadriyatlari, etnik xususiyatlari, milliy psixologik qiyofasi va bir nechta etnopsixologik

xususiyatlari shakllanadi. Bular o'z navbatida milliy tuyg'uni mustahkamlashga xizmat qiladi va insoniy qadriyatlarni saqlanib qolish imkoniyatini yaratadi.

**Asosiy qism.** G'arb mamlakatlari nashrlari, ayniqsa Amerika qo'shma shtatlarida "ajraluvchilar" koeffitsiyenti dunyo miqyosidagi boshqa davlatlarnikidan yuqoriligi ko'rsatilib, anchadan buyon oilalar "baxt istiqomatgohi" bo'lmay qolganligini ta'kidlab keladi. Oila-nikoh munosabatlari bo'yicha tadqiqotchilar amerika qo'shma shtatlarida nikohi buzilmagan bir necha million oila ham "bo'sh po'stloq" ichida yashayotganday hayot kechiradilar. Er-xotin orasida hech qanday ruhiy yaqinlik va o'zaro bir-birini tushunish mavjud emas, nikoh faqatgina oila birligini saqlab kelinayotganligini bildirishadi.

Ajralish oqibatlarini er-xotinlarning xarakterini, ruhiy emotsional kechinmalarini to'kis anglamasliklari yoki bir-birlarining haq-huquqlarini poymol qilishlari natijasida kelib chiqadi. Shariat qonunlari o'zi belgilab bergan shart-sharoitlarga, inson o'z e'tiqodlariga qat'iy itoat etishini talab qilgan. Bunday ta'limotlarning asrlar mobaynida hukmronlik qilishi odamlarda oila-nikoh munosabatlariga, oilaviy hayotda sodir bo'ladigan hodisalarga nisbatan shunday tayyorgarlikni shakllantirganki, bunga ko'ra odamlar o'zlarining oilaviy hayotlarida nimalar ro'y berishidan qat'i nazar ularni tabiiy bir hol deb, taqdir taqozosi (peshonaga yozilgani) deb qabul qilganlar va ularga ko'nikib kelganlar.

Shu bilan birga nafaqat o'zbek oilasi, balki O'rta Osiyoda yashovchi mahalliy xalqlar: qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarda oila-nikoh masalalari kam o'rganilganiga qaramay, ming yillar davomida xalqimizning buyuk farzandlari, bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlarimiz oilaviy hayot masalalari bo'yicha o'zlarining shaxsiy kuzatishlariga asoslangan holda o'z zamondoshlari va o'zlaridan oldin yashab o'tgan donishmandlarning bu boradagi ishlarini tahlil qilib, oila-nikoh masalalari, oilaviy hayot haqida qator asarlar yozib, o'zlarining fikr mulohazalarini kelajak avlod uchun bebaho ma'naviy meros sifatida qoldirganlar. Ular tomonidan qilingan ishlar, yozilgan asarlar asrlar osha xalq ongida, xalq ijodida «axloqiy qoida» sifatida saqlanib, avloddan-avlodga o'tib yashab kelgan va bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Buyuk allomalardan biri Burhoniddin Marg'inoniy o'zining shoh asarlaridan biri "Hidoya" asarining "Nikoh kitobi" va "Taloq kitobi" bo'limlarida "...taloq man qilingan, ammo (er ila xotinning bir uyda kelishmay yashashlari oqibatida, ulardan biror gunoh sodir bo'lishidan) qutilish uchun

ruxsat etilgandir” yoki “...nikoh qullikning bir ko‘rinishi, taloq esa, o‘sha qullikni ketkazishning bir ko‘rinishidir”. Bularni yozar ekan ajralishning noma’qul nikohdan qutulish yo‘llaridan biri ekanligini, uning ham o‘z o‘rnida zarur tadbir ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Shunday mutafakkirlarimizdan yana biri Ahmad Donish “Agar kelin-kuyovlar birovlarining gaplariga, fisqu fasodlariga kirar ekanlar, ularning shirin turmushlari buziladi, oralariga sovuqlik tushadi...” degan fikr bilan yosh oila hayotiga boshqa kishilarning noo‘rin aralashuvi ba’zi hollarda ajralishga, ajralish tufayli er-xotin o‘rtasida salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini aytib o‘tganlar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o‘tgan olim, fozilayu muallima Faxr ul Banot Sibg‘atulloh qizi o‘z kitobida qizlarga 87 darsdan iborat saboq berib, o‘n ettinchi saboqda shunday yozadi: “...eringiz, qaynota, qaynona, qaynog‘a, qayningiz va qaynsingillaringiz, eringizning yaqinlari qalbingizga suyuqlik va hurmatli bo‘lishi kerak. Ularga sovuq munosabatu yomon xulqda bo‘lmaslik, har vaqt maxsus rioyayu nazokat birla ish qilmoq, yumshoq va yoqimlilik birla so‘ylamoq, ularni aslo ranjitmaslik lozimdir”. Bu bilan olim har bir xotin-qizga oilada o‘z hurmatini saqlab ish ko‘rish, oila a‘zolarining ta‘biga qarash, ularni e‘zozlash, har qanday qiyinchilik yoki ziddiyatli paytda ham axloq me‘yoridan chiqmagan holda ish tutish, hattoki urush-janjal bo‘lib, oila buzilish arafasida turgan bo‘lsa yoki ajralishsa ham, iliq munosabatlarni saqlagan holda munosabatda bo‘lish kerakligini so‘raladi.

Oila-nikoh munosabatlari yurtimizda bundan qariyb uch ming yil muqaddam yaratilgan, zardushtiyarning diniy “Avesto” kitobida oilaga jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida katta ahamiyat berilgan, jamiyatning mavjudligi va farovonligi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi, yomonlikka qarshi kurash, inson zotining davom etishi, “Avesto” jamiyatining yashovchanligi, dinning vorisligi va tarqalishi jamiyat mustahkamligiga bog‘liq ekanligi keltiriladi. Shuning uchun nikoh Oliy tangri Ahura Mazdaga xush kelishi, nikohsizlik esa gunoh, yomonlik ekanligi ta‘kidlanadi.

Zardushtiylik qo‘ydi-chiqdini, ya‘ni taloq qilishni qat‘iyan ta‘qiqlagan, er-xotin sadoqatini targ‘ib etgan, buzuqlikni, zinokor xotinlar turmush tarzini la‘natlagan.

Sharq mamlakatlari etnopsixologiyasida bir necha asrlar mobaynida din va shariat qonunlari asosiy hal qiluvchi axloqiy va huquqiy kuch bo‘lib hisoblanib kelingan. Har qanday dinda bo‘lgani kabi islomda ham oilaga, oila-nikoh munosabatlariga, ajralishgan er-xotin munosabatlariga va oilalarning buzilishiga juda katta e‘tibor berilgan. Islomda oila-nikoh masalalari bo‘yicha asosiy g‘oyasi, monogam (bir nikohli) oiladagi tartibni ideallashtirishdan iborat.

Bunda erkak va ayolning oiladagi va jamiyatdagi vazifalari aniq ko'rsatilgan. Bunda erkakka oilani moddiy jihatdan ta'minlash va taloq qilish javobgarligini alohida yuklaydi. Er-xotinlarning ajralishlari aniq bo'lgan taqdirda, uni salbiy asoratlarsiz o'tishini Islomda "chiroyli suratda ajralish"ga, ya'ni er-xotin bir-birini va bolalarini behurmat qilmay xususan ayol kishini boshqalar nazarida qora qilmay, ayblamay, unga keyin ham boshqa er xaridor bo'lishligini nazarda tutish lozimligi ta'kidlanadi. Bulardan tashqari shuni aytish lozimki, shariat qonunlari asosida oilaviy hayotning deyarli har bir ikir-chikiri, holati, jihati shunday ko'rib, tuzib chiqilganki, unda biron bir arzimmas narsaning o'zi e'tibordan chetda qolmagan.

**Xulosa.** Xulosa shuki, ajralishlarni salbiy jihatlari oldini olishda etnopsixologik xususiyatlarimizni bilishimiz, ayniqsa, muqaddas kitoblar "Avesto", "Qur'oni Karim", hadisi shariflar va boshqalarda, o'tmish allomalarimiz asarlarida oilalarning buzilishi, oiladagi nizo masalalari keng yoritilgan bo'lib, ular mazkur muammoning echimi, ajralishni oldini olishga oid ko'plab ilmiy-nazariy ma'lumotlarni egallashda yordam beradi, chunki ularda ijtimoiy munosabatlar, insonni inson tomonidan idrok qilish mexanizmi mujassamlashgandir. Shu bilan birga, muammoni o'rganishda milliy urf-odatlar, mentalitet, yuksak hislar, qadriyatlar, ma'naviyat hamda o'zbek oilasining ko'p avlodli va ko'p bolali ekanligini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avesto: tarixiy-abadiy yodgorlik / N.Jo'rayev; tarjimon A.Mahkam. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. - 732 b.
2. Ahmad Donish Navodirul vaqoye. Nodir voqealar. Toshkent, 1964. - 106 b.
3. Burhoniddin Marg'iloniy Hidoya. 1-jild. – Toshkent.: Adolat, - 2000. - 848 b.
4. Faxr:ul Banot Sibg'atulloh qizi. Oila saboqlari. – T.: Yozuvchi, 1992. - 96 b.

## OILAVIY MUNOSABATLARDA ZULMKORLIKNING PAYDO BO'LISHIDA RASHK FENOMENINI TA'SIRI

**TOVBAYEVA Mukaddam Safarovna**

*SamDU psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD)*

### **Annotatsiya**

*Maqola oilaviy munosabatlardagi zo'ravonlikning paydo bo'lishi rashkning ta'siri muammomiga bag'ishlangan. Muallifning fikricha oiladagi zulmkorlikni paydo bo'lishida rashkning xavfli jixatlari jabr-zulm qilish, kaltaklash, qiynash, og'ir ahvolga solish kabi omillarning sabab sharoitlari, tasnifi, xulqda moyillik xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.*

### **Tayanch so'zlar**

*Oilaviy munosabatlar, zo'ravonlik, gender farqlar, rashk, oiladagi nosog'lom munosabatlar, xudbinlik oqibatlar.*

### **Аннотация**

*Статья посвящена проблеме влияния ревности на возникновение насилия в семейных отношениях. Опасные стороны ревности в возникновении семейной тираннии по мнению автора причинные условия, классификация таких факторов, как угнетение, побои, пытки, жестокойе обращение, особенности склонности в поведении селесообразно исследоват с научно-практической точки зрения.*

### **Ключевые слова**

*Семейные отношения, насилие, гендйерные различия, ревност, нездоровые отношения в семе, последствия эгоизма.*

### **Abstract**

*The article is devoted to the problem of the influence of jealousy on the occurrence of violence in family relationships. Dangerous aspects of jealousy in the emergence of family tyranny according to the author, causal conditions, classification of such factors as oppression, beatings, torture, ill-treatment, features of propensity in behavior should be studied from a scientific and practical point of view.*

### **Key words**

*Family relationships, violence, gender differences, jealousy, unhealthy relationships in the family, the consequences of selfishness*

**Kirish.** Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarida, doston, qo'shiq va erta klarda, donishmandlarning fikr va qarashlari sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish obekti bo'lib kelgan.

Oilalarning mustahkam bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka erishuvi u mansub bo'lgan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma'naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosat mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir.

Ko'pincha oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning kelib chiqishiga rashk ham sabab bo'lishi mumkin. Rashk tufayli sevgi qo'ldan ketadi va bu shafqatsiz munosabatlarda hamjihatlikni ta'minlash uchun juda ko'p kuch va sabr-toqat talab etadi. Ammo qanday qilib rashkdan qutulish mumkin? Zamonaviy psixologiyada, rashk nazariyasi va amaliyotiga juda katta e'tibor berilyapdi va buning sabablari bor. Haqiqat shuki, rashk oqibatidako'plab nikohlar barbod bo'ladi va ko'plab jinoyatlar sodir etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, rashk-qashshoqlik rashkchi odam uchun xavfli va hasadgo'ylikka olib keladigan halokatli hisdir.

Rashk xissi aslida bolaligida rashkni namoyon qilish istagi paydo bo'lganda boshlanadi, ota-onalar, to'g'ri yo'l haqida ko'p jihatdan tashqi dunyo bilan bolaning munosabatlar yanada rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bolaning rashki ko'pincha boshqa bolaning oilada paydo bo'lishi. Ota-ona sevgisini yo'qotishdan qo'rqish, keraksiz va tashlab ketilgandek xis qilish - bu bolalarning rashkining ko'rinishi. Bolaning axloqan qashshoq bo'lib qolmasligini ta'minlash uchun ota-ona xatti-harakatlarning to'g'ri usullarini ishlab chiqishi kerak. Ota-onalarning eng ko'p xatosi - bolaning xatti-harakatlaridan norozilik bildirishdir. To'g'ri, bolaga e'tibor berishi, unga bo'lgan mehr-muhabbatni ko'rsatishi. uning harakatlarini maqtashga va mehribonlik ko'rsatish, ota onalar uchun tavsiya etiladi. Har bir oilada ota-onalar bolaning rashkini qanday engish uchun individual echim topishi zarur, eng muhimi, vaqtni o'tkazib yubormaslik va kerakli vaqtda yordam bermaslikdir.

Rashk hislarining namoyon bo'lishidagi yosh va gender tafovutlari inson shaxsining oila munosabatlari, faoliyat sohasi hamda shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lmishi hayotiy zarurat sifatidagi emotsional munosabatlar ekan, bu munosabatlar namoyon bo'lishida o'ziga xos psixologik

xususiyatlarni bilish orqali qanchadan–qancha salbiy asoratlarni (ajrashish, jinoyat, qasddan odam o'ldirish, nikohgacha homiladorlik, erta jinsiy aloqa) oldini olish mumkin bo'ladi.

Oilada nosog'lom muhit tufayli noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola esa keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlariga zid bo'lgan har xil salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi; o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning etishib chiqishi; erta nikohlar, rashk, hiyonat, qo'sh xotinlilik, ikkinchi nikoh kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.<sup>7</sup>

Eng namunali rus kishilaridan biri Chernishevskiy o'z xotiniga o'ziga xos, havas qilsa arziydigan muhabbat bilan munosabatda bo'lgan, bu e'tiborga sazovor xolatdir. Uning surgundan xotiniga yo'llagan maktublari kamdan-kam uchraydigan muhabbat qissalaridan ekanligini anglatadi. Uning muhabbati ham, xotiniga sadoqati ham erkin. Chernishevskiy erotik muhabbat bilan shu qadar bog'liq rashkka qarshi chiqishga jur'at topa olgan. Rashk inson erkinligi bilan bog'liq emas. Rashkda mulkchilik va xukmronlik instinkti bor, lekin bu haqoratlovchi xususiyatga ega. Muhabbat huquqini e'tirof etish va rashk huquqini inkor etish, uni ideallashtirishga chek qo'yish zarur. Buni Chernishevskiy hech qanday nozik psixologik jihatlarga murojaat qilmasdan bevosita va sodda shaklda qilgan. Rashk insonning inson ustidan zulmkorligi, zolimligi, zo'ravonligi. Ayol rashki uni furiyaga aylantirgani bois ayniqsa dahshatli. Ayol muhabbati uni shaytoniy stixiyaga aylantira oladi.. Ayol va erkak muhabbati o'rtasida kuchli tengsizlik, talab-ehtiyojlar va orzu-umidlar tengsizligi mavjud. Erkakning muhabbati juz'iy, butun fikri-zikrini egallab ololmaydi. Ayol muhabbati esa birmuncha yaxlit, to'laqonli. Ayol muhabbat telbasiga, savdoyisiga aylana oladi. Ayol muhabbatining halokatli tusga ega ekani shu bilan bog'liq. Ayol muhabbatining jodusi bor, biroq zolimona tusga ega. Va ideal ayol timsoliga hamisha mos kelmaslik mavjud. Ayol go'zalligining timsoli hamisha soxta, aldaydi. Ayollar erkaklarga nisbatan yolg'onni ko'p ishlatadi, yolg'on – matriarxat, onalik davri ustidan patriarxat, otalik davri g'alaba qilganidan buyon xotin-qizlarning tarixiy huquqsizligi yuzaga keltirgan o'zini o'zi muhofaza etish vositasi. Biroq ayol muhabbati hatto tasavvur qilib bo'lmaydigan yuksakliklarga eta oladi.

---

<sup>7</sup> Акрамова Ф.А. Оилада соғлом психологик муҳитни таркиб топтиришнинг ижтимоий-психологик асослари. ўқув-услубий қўлланма.Т., 2014. 185 б.

Rashkning turli namoyishi bilan ko'p juftliklar oldida muammo bo'lib turibdilar. Muammoni hal etishning bir usuli, his-tuyg'ularingizni va his-tuyg'ularingizni sherikingizga himoya qilish va yordam berish istagiga ega bo'lishiga ishonch hosil qilishdir.

Rashkchi odam odatda munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan nizolar targ'ibotchisidir. Agar hasadgo'ylik befoyda bo'lsa, unda shubhasiz ishonchsizlikning namoyon bo'lishiga xalaqit bera oladimi, deb o'ylash kerak. Psixologlar bir necha turdagi rashkning mavjudligiga ajratganlar:

1. Vaziyatni hasad qilish oilada yoki jamoada muayyan maqomni yo'qotish tahdidi bilan yuzaga keladi.

2. Bashorat qilingan rashk, insonning sir-asrorlari bo'lganida yuz beradi va ayolning ham u bilan bevosita aloqasi yo'qligini o'ylaydi.

3. Tirantistik rashk, barcha sheriklarga shaxsiy mol-mulki maqomini berishni istagan xudbin tabiatlarda paydo bo'ladi. Bunday odamlar nafaqat sheriklar, balki boshqa qarindoshlar, do'stlar, bolalar ham hasad qiladilar. Despotizm bilan ajralib turadigan rashkchi er hech qachon o'zgarmaydi, chunki u noto'g'ri ekanini tan ololmaydi.

Iшонchsiz odamlar shubhali rashkdan azob chekishadi. Ular o'zlarini o'zlari sevgiga loyiq deb hisoblaydilar va shuning uchun ularning sheriklari ham xuddi shu tarzda o'ylaydilar.

Rashk odamlari birinchi navbatda o'zlari uchun muammo yaratadilar, ammo keyinchalik bu muammo ham juftining his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. O'zaro munosabatlarni o'rnatish uchun er yoki xotinning aynan nima uchun hasad qilishiga e'tibor berish kerak. Manipulyasiyadagi harakatlarni rag'batlantirish kerak emas. Muloqot o'zaro hurmat asosida amalga oshirilishi kerak, bu ishonchsiz bo'lishi mumkin emas.

Rashk tuyg'usini engish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

Birinchiidan, o'zaro ishonchga erishish.

Ikkinchiidan, umr yo'ldoshni tinglashga tayyorgarlik ko'rayotganini va munosabatni o'zgartirishga harakat qilishini bilib olish.

**Xulosa.** Rashk er va xotinlar uchun yaxshi kafiyat xosil qiladi yoki fojiali ishlarga olib keladi.. Rashk qilish har bir insonga xos bo'lib, har bir kishi bu tuyg'uni o'z hayotini buzishi yoki uni xiyonatdan qutqarishi mumkinligini tushunishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o'quv-uslubiy qo'llanma.T., 2014. 185 b.
2. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007. –B. 7.
3. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. diss. psix. fan. nom. – T.: 2007. –B. 36.
4. Meks A.M. Sotsialnye usloviya nasiliya v semeynom povedenii (analiz nasiliya v amerikanskoy seme): Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata sotsiologicheskix nauk. –M., 2003. –S. 3.
5. Tovbayeva M.S. Issues of oppression in family relationships// International Journal of Psychological Rehabilitation, Volume 24, Issue 06, 2020, - P. 4118-4124.

## TAYANCH KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOY KOMPETENTLILIKNI TARKIB TOPTIRISH MAZMUNI

**SHARIFZODA Sardorbek O 'razboy tabib o'g'li**

*UrDPI dotsent*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**sharifzoda\_78@mail.ru**

### **Аннотация**

*Ushbu maqolada o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy kompetentlikni tarkib toptirish mazmuni bayon qilingan.*

### **Калит сўзлар**

*Kompetentsiya, faoliyat, ijtimoiy kompetentlik, motiv*

### **Аннотация**

*В данной статье описывается содержание поиска содержания социальной компетентности на основе формирования базовых компетенций у учениках.*

### **Ключевые слова**

*Компетентность, деятельность, социальная компетентность, мотивация*

### **Abstract**

*This article describes the content of the search for the content of social competence based on the formation of basic competencies in students.*

### **Keywords**

*Competence, activity, social competence, motivation*

**Kirish.** Shaxsning integrativ faoliyati maxsuli sifatida ijtimoiy kompetentlik o'zining muayyan mazmuni va tarkibiy tuzilishiga ega. Biz quyida ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismlari ustida to'xtalishga harakat qilamiz. Ijtimoiy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Motivli-emotsional komponent. Bunda o'quvchilarda atrofdagilarga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasi hosil qilinadi: rahmdillik, e'tiborlilik, g'amxo'rlik, o'zaro yordam va mehribonlik sifatleri shakllantiriladi.

- Kognitiv komponent doirasida o'quvchilarda atrofdagilarni bilishga yo'naltirilgan faoliyatni shakllantirish nazarda tutilib, bunda har bir shaxsning o'ziga xosligi, qiziqishlari, ehtiyojlari, kayfiyatidagi o'zgarishlarni sezish, hissiy holatini bilish tajribasi hosil qilinadi.

- Xulq-atvorga asoslangan komponent doirasida o'quvchilarda o'zaro muvofiq keladigan vaziyatlarni tanlash, o'zaro muloqotga kirishish, xulq-

atvorning axloqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan ko'rinishlarini egallash layoqatlari shakllantiriladi.

**Asosiy qism.** O'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy, kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy kompetent-lilikning mazkur komponentlari tarkib toptiriladi. Ushbu komponentlar nafaqat motivli-emotsional komponentga taalluqli, balki boshqa komponentlarda ham o'z ifodasini topadi. Ikkinchi komponentning tarkibiga nafaqat boshqalarning bilimlari, holati, balki o'zining bilimlari ham aks etadi. Hamkorlik jarayonida o'quvchi o'z holati, xususiyatlari, layoqatlarini idrok etgan holda harakatlanadi. O'z harakatlarini sherigining ko'zi bilan qaragan holda idrok etadi. Har qanday nuqtai nazarining kuchli va kuchsiz tomonini ko'ra oladi. Xuddi mana shunday munosabat doirasidagina o'quvchi o'z atrofidagi voqelikni aniq baholash imkoniga ega bo'ladi.

V.G.Pervutinskiyning nuqtai nazariga ko'ra, ijtimoiy kompetentlilik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy intellekt – ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va mazkur vaziyatlarga moslashuvchanlik bilan yondashish;
- ma'naviy etuklik – qadriyatli yo'nalishlar, dunyoqarash va motivlar;
- ijtimoiy-kasbiy etuklik – pertseptiv, empativ, kommunikativ, refleksiv, o'z-o'zini namoyon etish, ko'nikmalar;
- bashorat qilish, maqsadga intilish;
- axborot texnologiyalari va xorijiy tilni bilish, ijtimoiy-axloqiy etuklik, mas'uliyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, o'ziga ishonish, tashkilotchilik, talabchanlik<sup>8</sup>.

Ushbu tarkib ham bizningcha, ijtimoiy kompetentlilikni to'liq ifodalaydi. Ijtimoiy-kasbiy kompetentlilik o'zida faqatgina mehnat va kasbiy ko'nikmalarni mujassamlashtirsa, ijtimoiy-axloqiy etuklik, liderlik sifatlarini ifodalaydi.

N.V.Kalininaning ta'biricha, ijtimoiy kompetentlilik ikkita tarkibiy qismni o'zida mujassamlashtiradi. Kognitiv xulq-atvorga asoslangan shakllantiruvchi komponent muayyan tarkibiy qismlardan iborat: ijtimoiy intellekt, ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatni bajarish imkonini beradigan maxsuldor usullar, murakkab hayotiy vaziyatlarda samarali munosabat o'rnatish ko'nikmalari hamda konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalari. Motivli-shaxsiy

<sup>8</sup> Пervутинский В.Г. Развитие социальной компетентности студента в условиях профессиональной подготовки / В.Г. Пervутинский.- Санкт-Петербург, 2002. – 320 с. 58

shakllantiruvchi komponent jamiyatda o'zini namoyon qilish hamda unga xos shaxsiy sifatlarni ifodalaydi<sup>9</sup>.

Ko'rinib turibdiki, ushbu tarkibiy qismlarni mujassamlashtirgan holda motivli hamda shaxsiy komponentlarni belgilash mumkin.

O'z navbatida M.I.Lukyanova ham ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilgan:

- motivli-qadriyatli komponent ijtimoiy faoliyat motivlari, shakllangan motivatsiya, yutuqlarga erishishga intilish, ijtimoiy munosabatlarning qonun-qoidalarini o'zlashtirish, axloqiy me'yorlarga pozitiv munosabatda bo'lish, jamoa tartibiga rioya qilishni o'z ichiga oladi;

- jarayonli mazmunli komponent o'z ichiga o'zi va o'zgalarning xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, o'zaro munosabatlar natijasini bashorat qilish, muloqot orqali atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish, o'z oldiga maqsad qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish ko'nikmalarini qamrab oladi;

- hissiy-irodaviy komponent o'z ichiga echimlarni tanlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish layoqatiga ega bo'lish, o'z zimmasiga mas'uliyat olishga tayyorlik, o'ziga ishonch va qat'iyatli bo'lish kabi sifatlarni birlashtiradi<sup>10</sup>.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tgan komponentlar shaxsning ijtimoiy kompetentligini imkon qadar to'liq ifodalashga xizmat qiladi. Ularni umumlashtirgan holda quyidagi tarkibiy qismlarga birlashtirish mumkin: motivli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv.

Refleksiya insonning o'z-o'zini tushunishi va boshqalarning xatti-harakatini anglagan holda baholashini ifodalaydi. Ijtimoiy kompetentli shaxs chuqur mushohada qilgan holda o'zgalarning his-tuyg'ularini anglaydi. Muloqot va ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'quvchilarning o'zlari va atrofdagilarni anglashlari va munosib baholay olishlari uchun ijtimoiy kompetentlikning boshqa komponentlari bilan bir qatorda refleksiya muhim ahamiyatga ega.

O'quv-tarbiya jarayonida ijtimoiy kompetentlikning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarkibiy qismlarini mazmun jihatdan boyitib tayanch kompetensiyalar tarkibida o'quvchilarga taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

<sup>9</sup> Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности школьников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение / Н.В. Калинина. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2014. – 228 с.

<sup>10</sup> Лукьянова М.И. Психологические аспекты развития социальной компетентности школьников. - Ульяновск, 2003. - 207 с.

Tayanch kompetentsiyalar yordamida o'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilik mazmun jihatidan muntazam takomillashadi. Tayanch kompetentsiyalarni mazmun jihatidan boyitish asosida ijtimoiy kompetentlilikning tarkibi ham takomillashadi. Jamiyat hayotidagi ilmiy, texnologik, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot tayanch kompetentsiyalarning mazmun jihatidan boyishiga asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur kompetentsiyalarni intgeratsiyalash natijasida hosil bo'ladigan ijtimoiy kompetentlilikning ham mazmun jihatidan takomillashuviga asos yaratadi.

Ijtimoiy kompetentlilikning asosini 2 ta katta guruhga mansub bo'lgan kompetentsiyalar tashkil etadi. Birinchi guruhga mansub kompetentsiyalar shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini mujassamlashtiradi. Mazkur guruhga quyidagi elementlarni kiritish mumkin: kommunikativ ko'nikmalar, guruhda ishlash layoqati, ziddiyatlar va muammolarni echa olish layoqati. Ikkinchi guruh esa empatiya, rolli moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ ko'nikmalar shaxslararo munosabatlarga asos bo'ladi. Muloqot o'quvchilar hayotida alohida ahamiyat kasb etib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muloqot jarayonida har ikki ishtirokchi ham faol mavqega ega bo'ladi. Ularning birgalikdagi faoliyati mahsuli sifatida o'zaro axborot almashish jarayoni kechadi. Kommunikativ jarayonning har bir sub'ekti o'z muloqotdoshiga nisbatan faollik ko'rsatadi. U o'z suxbatdoshiga axborotlarni taqdim etar ekan, qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlarini hisobga oladi.

Har bir shaxs uchun muloqot jarayonidagi axborotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonda suxbatdoshlar umumiy fikr doirasida mulohaza yuritadilar. Shu asnoda ular axborotlarni shunchaki qabul qilmaydilar, balki ushbu axborotlar ustida o'ylaydilar, fikr yuritadilar. O'zaro axborot almashinish muloqotdoshlarning xulq-atvoriga ham ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ ko'nikmalar doirasida shaxslarning muvaffaqiyatli munosabat o'rnatishlari uchun zarur bo'ladigan ko'nikmalar nazarda tutiladi. Bunda asosiy e'tibor shaxslararo munosabatlar jarayonida nazokat bilan muomalada bo'lish, o'zini tutish, suxbatdoshiga hurmat ko'rsatish nazarda tutiladi. Ushbu jarayonda nafaqat kommunikativ ko'nikmalar, xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, balki kognitiv faoliyat ham amalga oshiriladi.

Muloqot jarayonida shaxslararo munosabatlar doirasida birgalikdagi faoliyatga kirishiladi. Muloqot qoidalari o'zida ijtimoiy axloq, faol tarzda musobaqalashish, o'z-o'zini namoyon etish qoidalariga amal qilishni qamrab oladi.

Ijtimoiy kompetentlilikning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ ko'nikmalar boshqalarni tushunish va uni tushunishlariga imkoniyat

yaratishdan iborat shaxsiy layoqat sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar muloqotning turli usullarini o'zlashtirishlari va vaziyat bilan bog'liq holda uni qo'llashlari uchun ta'lim jarayonida qulay sharoit yaratilishi kerak. Shu asosda o'quvchilarni shaxslararo munosabatga tayyorlash amalga oshiriladi.

Ijtimoiy kompetentlikning shaxs faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarkibiy qismlari o'zaro muvofiq keladigan vaziyatlarni tanlash, xulq-atvor ko'rinishlarini o'zlashtirish, kommunikativ hamda integrativ ko'nikmalarni mujassamlashtiradi.

O'quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda o'zaro mantiqiy jihatdan aloqador bo'lgan uch holatni nazarda tutish kerak: istalgan, mumkin bo'lgan va bajarilishi shart deb topilgan holatlar.

Birinchi holat shaxsning o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonida muayyan harakatlarni bajarish istagini ifodalaydi. Ikkinchi holat esa mavjud vaziyat va shaxsiy imkoniyatlarini baholash, xulq-atvorning yo'l qo'yilgan holatlarini tahlil qilish va uning oqibatlarini bashoratlashda namoyon bo'ladi.

Uchinchi holat esa o'zaro birgalikdagi harakatlar haqidagi bilimlar, uning me'yorlari, qonun-qoidalari va usullarini bilish orqali ifodalanadi. O'quvchilar ushbu jarayonda birgalikdagi harakatlarga shaxsiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish layoqatini ham egallaydilar. O'quvchilarda tayanch kompetentsiyalar yordamida ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirishda ushbu holatlarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega<sup>11</sup>.

Ijtimoiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri ziddiyatlarni bartaraf etish layoqatidir. Bu shaxsdan turli vaziyatlarda vujudga keladigan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi:

- xaqiqatni bilish va tushuntira olish;
- shaxslararo munosabat jarayonida qabul qilingan me'yorlar yordamida o'zi va guruhdoshlarining xatti-harakatlarini baholay olish;
- bozor munosabatlarini hisobga olgan holda kasb tanlash;
- hayotiy talablar asosida o'z mavqeini aniqlash va turmush tarzini belgilash kabilar.

Bu o'rinda vaziyatlarni baholash usullarini egallash, harakatlarni loyihalash, munosabat ko'lamini kengaytirish, turli qarorlar qabul qilish haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan ziddiyatlar va muammolarni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lish

---

<sup>11</sup> Sharifzoda S. Integrative methods of formation of basic competencies in students//Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation;32(3)ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X. <https://orcid.org/0000-0003-4733-8204>

o'quvchilarni kelajakda mikrosotsiumda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashadi. O'quvchilar faoliyatida har doim namoyon bo'lmaydigan biroq ularning xatti-harakatlari orqali seziladigan ijtimoiy kompetentlilikning muhim tarkibiy qismlari empatiya, turli rollarni bajarishga moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik ham ijtimoiy kompetentlilikning tarkibiy qismlari sifatida inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilikning tarkibiy qismi bo'lgan xulq-atvor me'yorlari hamda ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatga kirishish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarni yangi sharoitlarda harakatlanish, harakat usullarini o'zgartirish, hulq-atvor me'yorlariga amal qilish va faoliyatning yangi turlarini egallashga o'rgatishga ko'maklashadi.

Kognitiv komponentning tarkibiy qismi sifatida bilimlar, ishchan va shaxsiy munosabat o'rnatishning o'ziga xos usullarini egallash ham o'quvchilarda ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Shaxslararo munosabatga kirishish jarayonida xulq-atvorning o'ziga xos jihatlari, birgalikdagi harakatlar, guruhli faoliyatning rivojlanishi, rollar, nuqtai nazarlarning o'ziga xosligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kompetentlilikning muhim tarkibiy qismlaridan biri mas'uliyatlilikdir. Mas'uliyatlilik o'quvchining emotsional, axloqiy va dunyoqarashga oid sifatleri bilan bevosita bog'liq holda shakllantiriladi.

Ijtimoiy kompetentlilikning motivatsiya bilan bog'liq qismi o'z ichiga shaxslararo munosabatlar, muloqot, voqelikka nisbatan pozitiv yondashuv, ijtimoiy hamkorlik, xulq-atvor me'yorlarining o'zgarishi, inson xulq-atvori va faoliyati bilan bog'liq voqealarga e'tibor qaratish, ijtimoiy faoliyat motivlari, motivatsiyaning shakllanishi kabilarni o'z ichiga oladi<sup>12</sup>.

Motivatsion komponentning tarkibiy qismlari sifatida o'z ehtiyojlari, istaklari, qiziqishlari va boshqalarga nisbatan munosabatini oliy qadriyat sifatida tushunish, rahmdillik, e'tiborlilik, g'amxo'rlik, o'zaro yordam va rahmdillikni kiritish mumkin.

**Xulosa.** Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar yordamida shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilikning rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun tashxislash metodikalaridan samarali foydalanish kerak. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ularni ijtimoiylashtirishga xizmat qiladigan muayyan didaktik vositalar, usul va

---

<sup>12</sup> Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity // Journal of critical reviews ISSN- 2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115.

metodlardan foydalanishga harakat qildik. Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari va shart-sharoitlarini tadqiq qilish o'z echimini kutayotgan muammolardandir. O'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy kompetentlikni tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlari, vositalarini aniqlash ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tayanch kompetentsiyalar yordamida o'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlik mazmun jihatidan muntazam takomillashadi. Tayanch kompetentsiyalarni mazmun jihatidan boyitish asosida ijtimoiy kompetentlikning tarkibi ham takomillashadi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari va shart-sharoitlarini tadqiq qilish o'z echimini kutayotgan muammolardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности школьников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение / Н.В. Калинина.–Ульяновск: УИПК ПРО, 2014. – 228 с.

2.Лукьянова М.И. Психологические аспекты развития социальной компетентности школьников. - Ульяновск, 2003. - 207 с.

3.Первутинский В.Г. Развитие социальной компетентности студента в условиях профессиональной подготовки / В.Г. Первутинский.- Санкт-Петербург, 2002. – 320 с. 58.

4.Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity // Journal of critical reviews ISSN- 2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115

5.Egambergan Khudoynazarov, Jumanazar Yarmetov //Application of problem-based teaching methods in the development of mathematical thinking skills of students. Psychology and education (2021) 58(1): p. 4537-4541

## O'QUVCHILARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY PEDAGOGIK QONUNIYATLARI VA PRINSIPLARI

**YO'LDOSHEV O'tkir Jumaqo'ziyevich**  
*Qo'qonDPI pedagogika kafedrası dotsenti*  
*yuldoshev.utkir@inbox.ru*

**JUMANQO'ZIYEV O'ktamjon O'tkirjon o'g'li**  
*Qo'qonDPI informatika kafedrası o'qituvchisi.*  
*jumanqoziyev@mail.ru*

### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishda pedagogik qonuniyatlarni inobatga olish va prinsiplarga amal qilish, qonuniyatlardan prinsiplarni kelib chiqishi kabi masalalari bayon etilgan.*

### *Kalit so'zlar*

*Qonuniyat, prinsip, tizimli yondoshuv, dekterminatsiya qonuniyati, samaradorlik qonuniyati, natija qonuniyati.*

### *Аннотация*

*В данной статье рассмотрены такие вопросы, как учет педагогических законов и следование принципам, выведение принципов из законов при формировании информационной культуры у учеников.*

### *Ключевые слова*

*Закон, принцип, системный подход, закон детерминации, закон эффективности, закон результата.*

### *Annotation*

*In this article, issues such as taking into account pedagogical laws and following principles, deriving principles from laws, are described in the formation of information culture among students.*

### *Key words*

*Law, principle, systematic approach, law of determination, law of effectiveness, law of result.*

**Kirish.** Pedagogik qonuniyatlarning deganda quyidagi o'lchovni tushunish kerak: «<...> alohida olingan sistemadagi o'zaro aloqalar va munosabatlarni ifodalovchi ob'ektiv qonunlar ta'siri majmuasining ifodasidir»<sup>13</sup>. Ta'rifdan ko'rinadiki, qaralayotgan sistemani qonuniyatlarini aniqlash dastlab uning muhitida amal qiluvchi ob'ektiv qonunlarni aniqlashdan boshlanadi.

<sup>13</sup> Абулханова-Славская, К.А. и др. Философско-психологическая концепция С.Л. Рубинштейна. К 100-летию со дня рождения / К.А. Абулханова-Славская, А.В. Брушлинский - М: Наука, 1989. – С.24.

**Asosiy qism.** «Pedagogik qonun» tushunchasini ko'rishda biz quyidagi xulosaga keldik, ya'ni, aytilgan kategoriya ob'ektiv qiymatni belgilaydi, ta'lim sistemasi uchun umumiy bo'lgan hodisalar(komponentalar) orasida qaytariladigan o'zaro aloqalarga turg'un va ularni rivojlanishi hamda amal qilishini ta'minlovchi asosiy mexanizmlarni aks ettiradi. Biz tomondan ko'rsatilganlar, olib borilayotgan tadqiqotni ushbu bosqichi oldida turgan xususiy masalalarni aniqlashga imkon beradi, masalan, avval ko'rsatib o'tilgan nazariy-metodologik yondashuvlarga tayanib, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyati shakllanishining pedagogik qonuniyatlarini aniqlash mumkin, chunki qaralayotgan sistemada turg'un takrorlanuvchi o'zaro aloqalar ifodalanadi.

В. И. Загвязинский fikriga ko'ra, pedagogik prinsiplar «<...> qonun va asosiy qonuniyatlarda aks etgan, pedagogik konsepsiyalarni faoliyatini aks ettirishda aniqlanadigan kategoriyalar uskunalari» sifatida ishtirok etadi.<sup>14</sup> В. И. Загвязинский tomonidan aytilgan pozitsiya В. В. Краевский fikricha aytilgan ta'riflar «<...> normativ bilimlar sifatida taqdim qilingan, konstruktiv-texnik funksiyalarlarni amalga oshirish vaqtida pedagogika orqali olingan faoliyat prinsiplari» shaklida ekanini rad qilmaydi. Biz aytilgan ta'riflarni aniqlashga batafsil to'htalishimiz bejiz emas, chunki tadqiqotda foydalanilayotgan pedagogik prinsiplar nazariy bilimlardan normativ bilimlarga adekvat o'tishni ta'minlashga qodir.<sup>15</sup>

Yuqorida aytilganlarga bog'liq holda, taqdim qilinayotgan konsepsiyada, aniqlangan qonuniyatlarga tayanib, nazariy modellar(normativ modellar) asosida yotuvchi prinsiplar o'rnatiladi. Endi maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy qonuniyatlari va asosiy prinsiplarini ochib berishga o'tamiz.

Tizimli yondashuv asosida yotuvchi asosiy mazmun nuqtai nazaridan, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning determinatsiya va dinamika jarayonini tizimlashtirish imkoniyatini ochib beruvchi qonuniyatlarga ahamiyat qaratish kerak.

Н. М. Таланчук va В. Н. Кorchaginlarning ilmiy ishlarida batafsil ifodalab berilgan tizimli sinergizm qonunlariga tayanib, o'z-o'zidan paydo bo'ladigag sistemalarni paydo bo'lish va kelgusida rivojlanish jarayoni qaralayotgan sistemada paydo bo'ladigan ziddiyatlar qatorida aniqlanadi, o'z navbatida uning noturg'unligiga sabab bo'ladi va ularni sistema

<sup>14</sup> Загвязинский, В. И. Методология педагогического исследования : учебное пособие для вузов / В. И. Загвязинский. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 105 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-07865-7. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/514079> (дата обращения: 08.01.2023)

<sup>15</sup> Захарова, И. Г. Информационные технологии в образовании: учебное пособие. / И.Г. Захарова – М., 2003. – 183 с.

komponentalari o'zaro ta'siri vositasida bardoshliliga xos bo'lgan qobiliyatlarini hosil qiladi.

Aytilganlar asosida aytish mumkinki, ushbu tadqiqotni asosiy bosqichi axborot-ta'lim muhitida maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning yurituvchi kuchini o'rnatishdir, chunki bu ularni tashkillashtirishni oshirish jarayonida aniqlanadigan ziddiyatlarga muvoffaqiyat bilan bardosh berishini ta'minlaydi.

Faoliyatlar nazariyasining asosiy mazmuniga asosan, inson bajaradigan harakatlarning yaratuvchanlik mohiyati ochib beriladi, masalan, В. Л. Хайкин fikricha «<...> inson qobiliyatlari uning individual imkoniyatlariga moslashadi». Biz esa, Н. А. Бернштейн nazariyasiga asoslanib, shaxsni o'z faoliyatidagi faollikni ochishga intilishi uning ichki dasturidagi bo'lajak obrazni yaratish uchun qiladigan harakatlariga asosanadi deb hisoblaymiz<sup>16</sup>.

Aytilganlarga asosan biz, **shaxs faoliyati rivojining dekterminatsiya qonuniyatini** o'rnatamiz: maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning yurituvchi kuchi, o'quvchi talablarini oshishi va uni qondirish imkoniyatlari orasida bo'ladigan ziddiyatlarga bardoshlilik jarayonida paydo bo'ladi.

Shunday qilib, axborot-ta'lim chegarasi muhitida amalga oshadigan o'quvchi foaliyati tarbiya-ta'lim jarayoni davomida o'zgaradi va o'zlarining talablariga mos ta'lim maqsadlariga mustaqil erishish uchun qobiliyatlarni oshishga yo'nalgan o'zgarishlarni o'zida ifodalaydi.

Determinatsiya qonuniyatlariga asoslanib, asosiy prinsip sifatida biz o'quvchilarni ta'lim faoliyati davomida paydo bo'ladigan **faollikni rivojlantirish prinsipini** shakllantiramiz.

Keyingi prinsip – **qayta o'zgartirishga yo'nalganlik prinsipidir**. Aytilgan prinsip maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiy sub'ektliligini kengaytirish shaklida gavdalanitiriladi, yosh talablarini qondirishga va bolani uni o'rab turgan muhit o'zgarishiga kirishuvchanligiga yo'naltirilib, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini ifodalaydi.

Ko'rsatilgan yo'nalishga tayanib, o'quvchi axborot madaniyati shakllanishi davomida o'zining yoshiga mos imkoniyatlarini amalga oshirishga urinib ko'radi, bu o'zining yo'nalishi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: 1) nusxa ko'chirib qayta tiklashni ko'zda tutuvchi, qayta tiklash yo'nalishi; 2) qidiruv yo'nalishi – qisman qayta o'zgartirib tiklash; 3) o'zgartirish yo'nalishi – uni o'rab turgan muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyat.

<sup>16</sup> Захарова, И. Г. Информационные технологии в образовании: учебное пособие. / И.Г. Захарова – М., 2003. – 183 с

Biz tomondan ko'rsatib o'tilgan bu uchta yo'nalishning barchasini rivojlanishini muhim ekanini ta'kidlash lozim, chunki ular birgalikda o'quvchini real atrofni o'zgaritish uchun o'qish davomida egallagan tajribani qayta tiklashdan o'quvchi harakatini ta'minlashga qodir.

Keyingi ko'radigan prinsipimiz **avtonomiya prinsipi** bo'lib, u sub'ekt tomonidan, axborot-ta'lim muhiti sharoitidagi barcha imkoniyatlarni avtonom faoliyatni amalga oshirish va ularni bevosita amaliyotga joriy qilish uchun, o'quv jarayonini taqdim qilishni ko'zda tutadi. Bunday tuzilmani beqarorligi(fluktuatsiya), o'quv jarayonida sub'ektlarda paydo bo'ladigan tashabbus shaklida, faol faoliyatlarda aks etadigan turli masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi.

Ko'rsatilgan prinsipni bevosita amalga oshirish muhimdir, chunki, turli shakldagi faoliyatlarni interiorizatsiya (tashki real xatti harakatlarning ichki harakatlarga aylanish jarayoni) vositasida eksteriorizatsiyaga(ichki o'ylangan narsalarning tashqi faoliyatiga o'tishi) o'tishi, ta'lim jarayoni kechayotgan chegarada axborot-ta'lim muhitini yangilanishiga olib kelishi mumkin.

**O'quv jarayoni dinamikasining ikkinchi qonuniyati** ochiq sistenmalarni butunlik va davriylik qonunidan kelib chiqadi, haqiqatan: maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish chiziqsiz jarayon sifatida paydo bo'lib, uni ketma-ket almashib turuvchi muvozanatdagi va muvozanatda bo'lmagan holatlar shaklida tasavvur qilish mumkin, bundagi harakatlantiruvchi kuch biz avvalroq ko'rsatib o'tgan ziddiyatlardir. Bunday ketma-ket almashib turuvchi holat o'quvchining axborot madaniyatini shakllantirish davriyligini va uning kelgusidagi taraqqiyoti ko'p siklliligi asosini tashkil qiladi.

Bunda uning rivojlanish dinamikasi bolada amalga oshirilayotgan faoliyatni qayta blokirovkalash vositasida shakllantiriladi. Ta'lim faoliyati sub'ekti ziddiyatlar bilan duch kelganda, uning sababi, tashqi yoki ichki muhitlardagi turli o'zgarishlar, ichki kuchlarni jalb qilishga tayanish, ularni paydo bo'lgan ziddiyatlarga qarata yo'naltirish, buning uchun ular faoliyatini amalga oshirishdagi ayrim bo'g'inlar faolligini bloklashni amalga oshirish, faoliyatni ayni paytida ularga ehtiyoj o'ta zarur bo'lgan uchastkalarga kuchlarni yo'naltirish, bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilganlarga tayanib, biz tomondan quyidagi dinamik qonuniyat joriy qilindi: maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish, uni shaxsni rivojlantirish sohasiga yaqin bo'lgan ta'lim masalalarini samarali echishga jalb qilish darajasini yuzaga keltiradi.

Bu holda, rivojlanishga yaqin sohani, o'quvchini aktual rivojlanish darajasi bilan uning potensial riojlanish darajasi, ya'ni o'quvchini ta'lim

jarayonining boshqa sub'ektlari bilan hamkorligi davomida erishgan darajasi, orasida aniqlangan nomuvofiqlik darajasi sifatida qarash kerak bo'ladi. Rivojlanishga yaqin sohada yo'nalishni aniqlab olishni ahamiyati o'quvchilarni rivojlanish xususiyatlari bilan ta'minlash zarurligini yuzaga keltiradi, bu o'quvchini ta'lim faoliyati davomida bajaradigan, uning o'zaro ta'sir va hamkorlik jarayoniga yuqori darajada jalb qilinganligi bo'lib, uning paydo bo'lishida koevolusiyaga yo'nalishni aniqlaydi.

O'zaro ta'sir davomida shaxsning ichki resurslarini ko'payishi yuz beradi, bu bilan axborot madaniyati shakllanishida o'z-o'zini ta'minlashga o'tish ta'minlanadi. Yuqorida aytilganlarni yuz berishini, shakllar o'zgarishi davomida, o'quvchilar faoliyatini amalga oshirishda, ularni intensivlik darajasini o'zgarishida, haqiqiy funksiyalarni amalga oshirish samaradorligi darajasini oshirishda, kuzatish mumkin.

O'quv jarayoni dinamikasi qonuniyati quyida biz tomondan sanab o'tiladigan pedagogik prinsiplar majmuasini amalga oshirishni talab qiladi.

Shunday qilib, birinchi prinsip sifatida biz **bir-birini boyitadigan hamkorlik prinsipini** keltiramiz. Aytilgan prinsip asosida maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini ta'lim jarayonidagi barcha su'ektlarni qiziqishlarini hisobga olib shakllantirish jarayonini yaratish yotadi, bu jarayon davomida kommunikatsiyaning har bir ishtirokchisini individual qarashlari yig'indisini moslashtirish amalga oshiriladi.

Hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan bir-birini boyitish maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish davomida determinatsiya uchun "birniktirishga" etarlilikni ta'minlashga qodir. Ko'rsatilgan prinsipni amalga oshirish uchun quyidagilar zarur: 1) muloqotni ta'minlash – ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'siri; 2) birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish davomida ta'lim jarayonidagi barcha su'ektlarning kuchlarini birlashtirishga qodir, kommunikatsiyaning sh akl va usullari majmuasini qo'llash. Biz ko'rgan prinsipni amalga oshirish jarayonida axborot-ta'lim muhitidagi resurslar integratsiyasi va natijadorligida siljish(yutuq)ga erishish mumkin.

Keyingi prinsip – *koevolusiya prinsipi*. Aytilgan prinsipni anglash faoliyati davomidagi moslik va uyg'unlik sifatida qarash mumkin, chunki o'quvchi shaxsini rivojlanishi va axborot-ta'lim muhiti o'zgarishi masalalariga to'la mos keladi, bola ta'lim jarayoni davomida axborot-ta'lim muhiti bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Ko'rsatilgan prinsip bilan maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni axborot-ta'lim muhiti va bola ehtiyojarini

ularni o'zaro ta'siri davomida doimiy o'zgarishi sharoitida bilvosita amalga oshiriladi.

Aytilganlarga asosan quyidagicha xulosa qilish mumkin, ya'ni, axborot-ta'lim muhitidagi sub'ektlarning o'zaro ta'sir jarayoni birinchi navbatda konstruktiv bo'lishi kerak. Uni amalga oshirishda joriy qiziqishlarga tayanib, o'zaro ta'sirdagi moslik darajasini oshirishga erishiladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayoni sub'ektlari xissiyotlarining umumiylikni angash harakatiga katta e'tibor berish kerak, natijada o'quvchiga axborot-ta'lim muhiti chegarasida faoliyatini amalga oshirish davomida eng samarali koevolyusion rivojlanish usullarini tanlash imkonini beradi.

Sinxron-diaxron yondashuv mazmuniga asoslangan qonuniyat maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning tashqi va ichki faktorlari orasidagi o'zaro aloqani qiymatini ochib beradi, natijada biz taqiqot olib borayotgan jarayondagi eng samarali pedagogik ta'sir yo'lini aniqlash imkoni bo'ladi.

Д. Н. Узнадзе aytgan fikrga asosan, inson amalga oshirayotgan faoliyatning samaradorlik darajasi quyidagi ikkita shartga bog'liq: 1) ta'lim jarayoni sub'ektlarning dolzarb ehtiyojlari; 2) uni qondirish vaziyatlari. Tadqiqot muallifi, ta'lim jarayoni sub'ekti faoliyatida eng yuqori samaradorlikga faqat shu shartlar bo'lgandagina erishish mumkin, deb ta'kidlaydi.

Aytilganlarga asoslanib, quyidagi xususiy xulosani qilish mumkin, ya'ni, axborot-ta'lim muhiti sharoitida samarali faoliyatni amalga oshirish uchun uni sub'ektni o'zi amalga oshirishidagi ehtiyojlarini va muhit ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini anglash zarur.

Bir narsani ta'kidlash zarur, ya'ni, u bo'lsa, yuqorida aytilgan qonuniyatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi, masalan, qaralayotgan sistema xossalari qiymatlariga yaqinlashadigan hollarda ta'lim sub'ekti tomonidan tashqaridan amalga oshirilgan bo'ladi. Aytilganlarni isboti bo'lib, И. П. Подласый va И. Ф. Харламов kabi olimlarning tadqiqot natijalari xizmat qiladi. Ular quyidagicha xulosa qiladilar, ya'ni, «<...> ta'lim jarayoni sub'ektlarning potensial imkoniyatlari tarbiya muhiti tomonidan "rezonansli" ta'sirlar bo'lgan hollarda maksimal darajada amalga oshirilishi mumkin, bizning holda bu axborot-ta'lim holdir. Bu holda, ta'lim jarayoni sub'ekti maqsadlari uchun amalga oshirish qiymatli bo'ladigan holda, ko'rsatilgan rezonans jarayoniga etish mumkin bo'ladi.

Keyingi qonuniyat, **samaradorlik qonuniyati** bo'lib, uni quyidagicha ifodalash mumkin: maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishning samaradorligi sub'ekt maqsadlari qiymatiga erimshishni

ta'minlaydigan, axborot-ta'lim muhitini potensial imkoniyatlar bilan boyitilganlik darajasiga bog'liq.

Aynan, axborot-ta'lim muhitini boyitilganlik darajasi, o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan, ularni individual talablarini hisobga olib, bir vaqtda bolalarda faoliyat faolligini paydo bo'lishini ta'minlovchi, turli shakldagi faoliyatlar integratsiyasini rivojlantirishga sezilarli darajata ta'sir ko'rsatishga qodir.

Shunday bo'lsada, rivojlanishga yaqin muhitda maktab yoshidagi bolalar axborot madaniyatini shakllantirish uni aks ettiruvchi shakl va vositalar yig'indisi konvergentsiyasini talab qilishini, unga ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'sirini tizimlashtirish vositasida erishish mumkinligini hisobga olish zarur.

К. А. Абулханова-Славская aytgan fikrga ko'ra, ta'lim faoliyati sub'ekti usullar to'plami ichidan faqat bittasini, ya'ni u yordamida o'zining individual ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'ladiganini, amaliy faoliyatida qo'llasa bo'ladiganini tanlaydi ( 1 ). Aytilganlardan, ta'lim jarayoni sub'ekti bevosita maqsad va usullarni yaratadi.

Ushbu qonuniyatga asosan, pedagog tomonidan amalga oshiriladigan barchcha harakatlar quyidagi dastur integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, dasturga asosan, uning doirasida, maktab yoshidan katta bolalarni o'zlarining faol rivojlanish va rivojlanishga yaqin muhitda, ta'lim jarayoninig boshqa sub'ektlari bilan uzilmaydigan o'zaro ta'sir davomida eng samarali vositalar va kommunikatsiya usullari taqdim qilinishi kerak.

Biz tomondan ko'rilgan qonuniyat bir qancha prinsiplar, jumladan, *ustunliklar integratsiyasi prinsipini*, talab qilinishini aniqlaydi. Bu prinsip, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyatda o'rnatilgan, joriy bosqichda ularni rivojlanishiga qo'yilgan talablar, normalar va ustunliklarga mos bo'lishi, shu bilan birga har bir shaxsni o'ziga xosligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Keyingi prinsip – *faoliyatdagi konvergentsiya va divergentsiyalar birikmasi prinsipi* bo'lib, u maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni, ta'lim jarayoni sub'ektlarining bilish faoliyati va divergentsiyasi davomida, tanlash imkoniyatlarini ko'p variantlilik kabi o'zaro ta'sir mexanizmlarini stabilligini anglatuvchi konvergentsiyalar birligi asosida qurilganligini bildiradi, bunda o'quvchiga, o'z potensialini o'zining faoliyati uchun muhim, ehtiyojlarini qondiruvchi sharoitlarni(individual traektoriya) tashkil qilish vositasida amalga oshirish sharoiti taqdim qilinadi.

Keyingi prinsip – *konstruktiv sub'ektivlik prinsipi*. Bu prinsipga asosan, axborot-ta'lim muhitida pedagog va o'quvchi erkin tanlov asosida tuzilgan sub'ektlar sifatida ishtirok etadi. Bu prinsip, o'quvchilarni anglash faoliyatida, axborot-ta'lim muhiti bilan o'zaro ta'sir jarayonida o'zlarini namoyish qilib, o'zlarini o'z hayotining muallifi sifatida anglash imkonini beradi.

Narrativ yondashuvning asosiy mazmuniga asoslanib, o'quvchilarni o'zaro ta'sirdagi tajriba, olingan bilim va shakllangan fikrlar asosida o'quvchilarni konstruktiv biluv faoliyatini amalga oshirish mumkin.

Keyingi qonuniyat **natija qonuniyati** bo'lib, unda maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish natijasi, o'zlarining faoliyat potensialini ochish uchun muhim bo'lgan, shaxs uchun muhim bo'lgan konstruktiv biluv faoliyatini amalga oshirish davomida ochiladigan anglash darajasi bilan aniqlanadi.

**Xulosa.** Aytilganlarga tayanib, quyidagicha xulosa qilish mumkin, ya'ni, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini, konstruktiv biluv faoliyati binar sikllilik chegarasida va ular natijalari refleksiya siklini amalga oshirib maksimal darajada samaradorlik bilan ta'minlash mumkin.

Ushbu qonuniyat, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish, uning texnologiyalari va ta'lim maqsadi va refleksiyaiga ketma-ket erishish algoritmini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirish asosida yotadi.

Aytilgan qonuniyat, *binar sikllilik prinsipga* o'xshagan pedagogik prinsiplarni amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Aytilgan prinsip, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni sikllarni doimiy almashinuvi shaklida amalga oshirilib, unga bosh talab sifatida unga o'quvchilarni axborot-ta'lim muhiti sharoitida bilish faoliyatini amalga oshirish davomida tugallanganlik talabi qo'yiladi.

Yana bir prinsip *o'suvchi mahsuldorlik prinsipidir*. Bu prinsip sifatida ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'sirida amalga oshiriladigan, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishdagi har bir yangi sikl mahsuldorligini oshirish zarurligi tushuniladi. Bunday samaradorlik, ham tashqi va ham ichki planda aks etishi mumkin.

Va, nihoyat, so'ngi prinsip *teskari aloqa prinsipidir*. Ko'rsatilgan prinsip, maktab yoshidagi bolalarda axborot madaniyatini shakllantirish natijalarini doimiy monitoring qilishni o'z ichiga olishi zarurligi talabini olg'a suradi. Aytilgan prinsip, ta'lim jarayoni sub'ektlari bilan bo'ladigan, o'z navbatida o'z vaqtida zarur o'zgartirishlarni kiritish bo'ladigan, o'zgarishlarni tez his qilish imkoniyatlarini taqdim qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абулханова-Славская, К.А. и др. Философско-психологическая концепция С.Л. Рубинштейна. К 100-летию со дня рождения / К.А. Абулханова-Славская, А.В. Брушлинский - М: Наука, 1989. – С.24.
2. Загвязинский, В. И. Методология педагогического исследования : учебное пособие для вузов / В. И. Загвязинский. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 105 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-07865-7. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: [хттпс://урайт.ру/бсоде/514079](https://uraйт.ру/бсоде/514079) (дата обращения: 08.01.2023).
3. Захарова, И. Г. Информатсионные технологии в образовании: учебное пособие. / И.Г. Захарова – М., 2003. – 183 с.
4. Кудрявцева, И. А. Методика обучения бакалавров физико-математического образования математическим основаниям парадигм программирования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / И.А. Кудрявцева – СПб., 2005. – 123 с.
5. Краевский В. В. Методология педагогики: Пособие для педагогов-исследователей. - Чебоксары: Изд-во Чуваш, ун-та, 2001. - 244 с.  
Оглавление. Введение. 130 страниц

## “FOTODIODLAR, FOTOTRANZISTORLAR. TIBBIYOTDA FOTOMETRIK USULLARNI QO‘LLANILISHI” MAVZUSINI O‘TISHDA “AJURLI ARRA” STRATEGIYASI QO‘LLASH

**AXMADJONOV Mexriddin Faxridinovich**

*Farg‘ona politexnika instituti, o‘qituvchisi.*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada “Tibbiy elektronikasi” fani amaliy mashg‘ulotlarni interfaol usul yordamida olib borish haqida ma’lumot berilgan. Ta’lim metodining maqsadi yoritilgan. Mavzuni hamkorlikka asoslangan “Ajurli arra” strategiyasi bilan yoritishga oid masalalar tahlil qilingan.*

### **Kalit so‘zlar**

*“Ajurli arra” strategiyasi, fotodiodlar, fototranzistorlar, tibbiyotda fotometrik usullar, kolorimetriya, oksigemometriya, polarimetriya.*

### **Аннотация**

*В данной статье представлена информация о проведении практических занятий по направлению «Медицинская электроника» с использованием интерактивного метода. Объясняется цель воспитательного метода. Проанализированы вопросы, связанные с освещением темы стратегией «Пила», основанной на сотрудничестве.*

### **Ключевые слова**

*стратегия «Пила», фотодиоды, фототранзисторы, фотометрические методы в медицине, колориметрия, оксигемометрия, поляриметрия.*

### **Annotation**

*This article provides information on conducting practical classes in the direction of “Medical Electronics” using an interactive method. The purpose of the educational method is explained. The issues related to the coverage of the topic by the “Saw” strategy based on cooperation are analyzed.*

### **Key words**


*“Jigsaw” strategy, photodiodes, phototransistors, photometric methods in medicine, colorimetry, oxyhemometry, polarimetry.*

**Kirish.** “Ajurli arra” strategiyasi – hamkorlik ta’limi texnologiyalarining muhim turi bo‘lib, hamkorlik ta’limida keng foydalaniladi. Ushbu strategiyani qo‘llash jarayonida talabalar tayyor matnlar bilan ishlaydi. 1986 yilda F.Slavin

tomonidan “Ajurli arra-2” metodi ishlab chiqilgan bo’lsada, biroq, “Ajurli arra” strategiyasi o’zining ommaviylikini saqlab qoldi.

**Asosiy qism.** “Ajurli arra” strategiyasi (fr. “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o’tgan, ikki tomoni ochiq) – yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida talabalarning uni puxta o’zlashtirishi, o’z bilimlarini boshqalarga etkazib berish layoqatiga ega bo’lishi ta’minlovchi strategiya

“Ajurli arra” strategiyasining texnologik modeli quyidagicha (1-rasm):



1-rasm. “Ajurli arra” strategiyasining texnologik modeli

Mashg’ulotda “Ajurli arra” strategiyasini qo’llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O’qituvchi talabalarni “Ajurli arra” strategiyasi mohiyati bilan tanishtiradi
2. O’qituvchi talabalarni kichik guruhlariga ajratadi
3. O’zlashtiriladigan mavzuning matnini bir nechta qismlarga ajratilgan holda alohida qog’ozlarda qayd qilinadi hamda paketlanga solinadi.
4. Matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlariga tarqatib beriladi.
5. Guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajarishga kirishadi.
6. Topshiriq bajarilgach, har bir guruhdan matnni yaxshi o’zlashtirgan talaba ajratib olinib, ulardan ekspert guruhi shakllantiriladi
7. Ekspert guruhi a’zolari o’zlari o’zlashtirgan material mazmunini boshqalarga etkazish rejasini tuzadi.

8. Ekspert guruhi a'zolari o'zlari o'zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlarga ham tushuntirib beradi. [1]

Mazkur strategiyani qo'llashda talabalarning mavzuni puxta o'zlashtirganligi, o'zlari ega bo'lgan bilimlarni boshqalarga etkazib berish layoqatiga ega bo'lishlari muhim sanaladi.

O'zlashtiriladigan mavzuning matnini talabalrga namuna sifatida quydagicha taqsimlanadi.

*Mavzu: Fotodiodlar, fototranzistorlar. Tibbiyotda fotometrik usullarni qo'llanilishi.*

#### **1-guruhga: Fotodiodlar.**

Bu yarim o'tkazuvchi diodlar bo'lib, ularda ichki effekt ishlatiladi (fotoeffekt nurlanish ta'sirida juft zaryad tashuvchilarning generatsiyasidan iborat). Yorug'lik oqimi fotodiodning teskari tokini boshqaradi. Fotodiodga yorug'lik ta'sirida fotoeffekt sodir bo'ladi va diodning o'tkazuvchanligi oshadi, teskari tok ko'payadi.

Bunday rejim fotodiodli deyiladi. Agar yorug'lik oqimi bo'lmasa, bunda diod orqali oddiy boshlanuvchi teskari tok oqadi va u qorong'ilik toki deyiladi.

Odatda fotodiod sifatida  $n-p$ -o'tishli yarim o'tkazuvchi diodlar ishlatiladi, u tashqi ta'minlash manbai bilan teskari yo'nalishda siljigan.

$n-p$ -o'tishida kvantlar yorug'likni yutganida yoki unga yaqin hududlarda yangi zaryad tashuvchilari hosil bo'ladi. Diffuzion uzunligidan oshmagan masofada  $n-p$ -o'tishni atrofida hududlarda paydo bo'lgan asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilari  $n-p$ -o'tishga diffundirlanadi va elektr maydoni ta'sirida u orqali o'tadi. Ya'ni teskari tok yuritilganda oshadi.  $n-p$ -o'tishida bevosita kvantlarni yutilishi o'xshash natijalarga olib keladi. Teskari tokni oshgan miqdori fototok deyiladi.

#### **2-guruhga: Fototranzistorlar.**

Qo'shqutbli fototranzistorlar tashqi ko'rinishidan oddiydan farqi shundaki, uning korpusida «darcha» ochilgan, u orqali yorug'lik oqimi baza hududiga ta'sir ko'rsatadi. Fototranzistorlar fotodiodlarga qaraganda katta integral sezgirlikka ega.

Baza hududiga yorug'lik nuri ta'sir qilganida unda elektron va teshiklarni generatsiyasi boshlanadi va ular kollektorli o'tish tomoniga harakatlanadilar va bo'linadilar. Teshiklar kollektorli o'tish maydoni ta'sirida bazadan kollektorga yurishadi va uni tokini oshirishadi, elektronlar bazada qalinlashadi va emitterli o'tishni to'g'ri kuchlanishini oshiradi, bu sababli bu o'tishda teshiklar injeksiyasi kuchayadi. Buning hisobiga qo'shimcha kollektorli tok oshadi.

### **3-guruhga: Konsentratsiya kolorimetriyasi**

Kolorimetriya (Lot. Color – rang) – biologik muhit tarkibini ularning eritmalarini bo'yash darajasi bo'yicha o'rganishning fizik-kimyoviy usuli. U vizual va fotometrik o'lchovlarga asoslangan. Ma'lumki, rangning miqdoriy xarakteristikasi bo'yovchi moddaning eritmadagi konsentratsiyasidir. Ko'pgina biologik suyuqliklar (qon, siydik, safro) uchun diagnostik eritmalar tayyorlash usullari ishlab chiqilgan. Usulning miqdoriy nisbatlari Buger–Lambert–Ber qonuniga asoslangan bo'lib, unga ko'ra yorug'likning eritma bilan yutilishi (yutilishi) qatlamning qalinligi va eritmadagi yutuvchi moddaning konsentratsiyasiga bog'liq. Bu qonun faqat monoxromatik nurlanishlar uchun amal qiladi ( $\lambda = \text{const}$ ), shuning uchun lazerni nurlantiruvchi sifatida ishlatish qulay. Agar  $I_0$  va  $I$  – eritmaga kirish va chiqishdagi nurlanish intensivliklari,  $L$  esa o'rganilayotgan eritmadagi nurlanish yo'lining uzunligi deb faraz qilsak, bu nisbat qonunga mos keladi

$$I = I_0 \cdot 10^{-\varepsilon c L},$$

bu erda xarajatning molyar yutilish koeffitsiyenti,  $s$  – eritmadagi moddaning konsentratsiyasi. Fotometrik o'lchashlar bilan *eritmaning optik zichligi* aniqlanadi:

$$D = \lg(I_0/I)$$

u holda  $D = \varepsilon Lc$  ni tashkil qiladi. Nurlanishning to'lqin uzunligi funksiyasi bo'lganligi uchun ma'lum bir qiymat uchun moddaning molyar yutilish koeffitsiyenti  $\lambda$  qiymatlari jadvallari tuziladi.  $L$  qiymati fotometr dizaynining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Eritmaning optik zichligini o'lchab, moddaning kerakli konsentratsiyasi formula bo'yicha topiladi

$$s = D/\varepsilon L, [s] = \text{mol}_b/l.$$

Biologik suyuqliklarning eritmaları uchun o'lchangan konsentratsiyalar oralig'i  $10^{-8} \dots 10^{-3}$  mol/l ni tashkil qiladi.[2,3]

### **4-guruhga: Oksigemometriya.**

Oksigemometriya (lotincha oxygenium – kislorod, yunoncha haima - qon) - tashqi nafas olish funksiyasining samaradorligini baholash uchun inson qonining kislorod bilan to'yinganlik darajasini aniqlash usuli. Bu oksigemoglobin va kamaytirilgan gemoglobinning yutilish spektrlaridagi farqlarga asoslangan.

Eritmalardagi kamaytirilgan gemoglobin o'tayotgan qizil rangni o'zlashtiradi ( $\lambda_{kr} = 620 \dots 680$  nm) oksigemoglobin eritmasidan ko'p marta kuchli. Infraqizil nurlanish ( $\lambda_{ik} = 810$  nm) gemoglobinning bu shakllari bilan teng ravishda so'riladi.

**Uzluksiz qonsiz oksigemometriyaning eng keng tarqalgan usuli.** Oksigemometrning foto datchigi bemorning quloqg'iga (ko'proq – quloq solinchasiga) qo'yiladi. Datchikda ikkita fotodetektor mavjud: biri selen, qizil

nurga sezgir, ikkinchisi oltingugurt-kumush, infraqizil nurlanishga sezgir. Birinchisi qon oksigenatsiyasini aniqlash uchun, ikkinchisi qon tomirlarini to'ldirishda puls o'zgarishi bilan bog'liq buzilishlarni qoplash uchun ishlatiladi. Boshqa tomonda joylashgan miniatyura lampochkasi porlaydi va aurikula to'qimalarini 40°S haroratgacha isitadi, vazodilatatsiya va kapillyarlar orqali volumetrik qon oqimining ko'payishi sodir bo'ladi. Ning analitik munosabatlaridan foydalanish Buger–Lambert–Ber qonuni kamaytirilgan va umumiy gemoglobinning konsentratsiyasi uchun quyidagi munosabatlarni yozish mumkin:

$$C_B = \frac{D_k}{\epsilon_k l(t)}, C = C_O + C_B = \frac{D_{ИК}}{\epsilon_{ИК} l(t)},$$

bu erda  $l(t)$  – lampochka va fotodetektorlar orasidagi biotissuyesning o'zgaruvchan qalinligi. Keyin oksigemoglobin konsentratsiyasini quyidagicha ifodalash mumkin

$$C_o \sim (C_o + C_v) / C_v = (D_{ik} \epsilon_k) / (D_k \epsilon_{ik}).$$

Ushbu usul uchun olingan oksigenatsiya qiymati nisbiy qiymatdir. Oksigemoglobinning mutlaq qiymatlarini olish uchun qon namunalari asosida kalibrlash talab etiladi.


#### 5-guruhga: Polarimetriya.

Bu optik faol muhitdan o'tayotganda optik diapazonning monoxromatik tekisligi-qutblangan nurlanishining qutblanish tekisligining aylanish burchagi bilan moddaning konsentratsiyasini aniqlash usuli (6.3-rasm).

Optik faol moddalarning konsentratsiyasini qutblanish tekisligining aylanishini ro'yxatdan o'tkazish orqali topish mumkin. Amalda, odatda oddiy nisbat ishlatiladi

$$\alpha = \alpha_0 S L,$$

bu erda  $\alpha_0$  – nurlanishning ma'lum  $\lambda$  to'lqin uzunligida modda tomonidan qutblanish tekisligining o'ziga xos aylanishi bo'lsa,  $L$  – moddaning eritmadagi nurlanishning optik yo'li,  $C$  – moddaning eritmadagi istalgan konsentratsiyasi.



6.3-rasm. Radiatsion qutblanish tekisligining aylanishi

Polarimetriya tibbiy laboratoriya tadqiqotlarida qon va biologik suyuqliklarning boshqa eritmalaridagi shakar (saxarimetriya) kontsentratsiyasini aniqlash uchun eng katta foydalanishni topdi.

Qutblanish tekisligining aylanish burchagining chastota dispersiyasi spektropolyarimetriya usulida qo'llaniladi. Bu usul olingan qarama-qarshiliklarga asoslanadiquyidagi bir necha optik faol moddalarning kontsentratsiyalarini aniqlash imkonini beradixolatda.[5,6]

Ushbu metodni tajriba-sinovi Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy talabalar fakulteti Tibbiyotda innovatsion va axborot texnologiyalari, biofizika kafedrasida amalga oshirildi va Tibbiy biologiya, tibbiy profilaktika, xalq tabobati fakulteti 60910600-Tibbiy biologik ishi yo'nalishning 2-bosqich talabalari ishtirok etishdilar. Metodni mashg'ulotda qo'llab ko'rganimizda o'zining samarali natijasini ko'rsatdi. Sinov sifatida ikkita guruh tanlab olindi. 1-guruhga dars oddiy an'anaviy usulda o'tildi. 2-guruhga ushbu metod qo'llanilganda, dars keskin bahs-munozaralar bilan o'tdi va talabalar faol ishtirok etdilar.

Ushbu tadqiqot ishimiz samaradorligini tekshirishda Student kriteriyasidan foydalanadik. Unga muvofiq Tibbiyot elektronikasi fanini o'qitishdagi samaradorlik yuqori ekanligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu fandan ma'ruzalarni o'qitishda "Ajurli arra" strategiyasidan foydalanish samaradorligi yuqoriligi ko'rish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida quydagilarni aytish mumkin, ushbu metoddan foydalanish Tibbiyot elektronikasi fanini o'qitishda yuqori samara beradi. Chunki har bir talaba guruhlarda faol harakat qiladi. Talabalarning o'z fikrini mustaqil bayon qilish va asoslab himoya qila olish ko'nikmalari shakllanadi. Talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, dunyo qarashi kengayadi. Bunda o'qituvchi talabalarning kamchiliklarini to'ldirib umumiy xulosani beradi. Faol qatnashgan talabalar baholanadi.

Yuqoridagi pedagogik texnologiyani qo'llab o'tkazilgan Tibbiyot elektronikasi dars jarayonlari talabalar tomonidan ham ma'qullandi. Oddiy, an'anaviy usulda tashkil qilingan dars jarayonidan farqli ravishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan dars jarayoni o'zining sezilarli samarasini ko'rsatdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев Инновацион таълим технологиялари Тошкент. 2015 й.
2. Афанасьев А.И., Рогаткин Д.А., Сергиенко А.А. и др. Методики и аппаратура неинвазивной оптической тканевой оксиметрии // Сб. «Голография: Фундаментальные исследования, инновационные проекты и

нанотехнологии». Матер. XXVI школы по когерентной оптике и голографии. / Под. Ред. проф. Малова А.Н. Иркутск: Изд-во «Папирус», 2008. С. 505–513.

3.Х.С.Далиев, Э.Х. Бозоров и др медицинская электроника учебник Ташкент. 2019 г.

4. Ремизов А.Н. Медицинская и биологическая физика.- М.: Высш. шк., 1987.

5. Физика визуализации изображений в медицине : В 2 т. / Пер. с англ. под ред. С. Уэбба. - М.: Мир, 1991.

6. T. Sakai, M. Nagao, and S. Fujibayashi, "Line Extraction and Pattern Detection in a Photograph," Pattern Recognition, vol. 1, pp. 233-248, 1969.

## KASBIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOT TA'LIM SIFATINI O'STIRISH OMILI SIFATIDA

**KURBANOVA Gulnoz Negmatovna**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti  
dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

### *Annotatsiya*

*Mazkur maqolada bugungi kunda pedagogik muloqot tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblangan kasbiy tafakkurni rivojlantirish muammolari haqida fikr yuritilgan. Jumladan, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o'рни, ahamiyati va asosiy tamoyillari ochib berilgan. Pedagogik muloqotning turlari ularning tafakkur turlarini shakllantirishdagi muhim omil ekanligi etiborga olingan.*

### *Tayanch so'zlar*

*Pedagogik muloqot, kasbiy tafakkur, omil, tafakkur, muloqot, pedagogik faoliyat, muloqot etikasi, mezon*

**Kirish.** Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog Ye.Melibruda<sup>17</sup> aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot etakchi faoliyatga, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Muloqot-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir.

Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

17 Мелибруда, Е. Я – Ты – Мы: Психологические возможности улучшения общения : пер. с польск. / Е. Мелибруда. – М.: Прогресс, 1986. – 256 с.

**Asosiy qism.** Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar, ma’lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslik, balki bo‘lg‘usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish muhim jihat ekanligi ta’kidlanadi.

Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma’naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot ta’lim-tarbiyaning ma’naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma’naviy vazifalarning murakkabligi o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga yuksak talablarni qo‘yadi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun ko‘p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning ayrim yo‘nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘qituvchi o‘zi uchun bo‘lajak darsning noyob xususiyatlarini va pedagogik rejasini tuzishi mumkin. Unda darsning har bir pedagogik vazifasiga pedagogik vazifaning ma’lum bir usullari mos kelib, uni hal qilishning o‘ziga xos yo‘nalishlari namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o‘rganilayotgan dars mavzusi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida talabalarni axborot ko‘lamiga jalb etishni o‘ylamasligi kerak, balki o‘qituvchining yordamiga muhtoj bo‘lgan talabalarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir talabaning qiziqishini ta’minlovchi sharoitlarni ko‘ra olishi va o‘zaro hamkorlikni ta’minlashi lozim.

Talabalar bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirishning muhim sharti o‘qituvchi va talabalarining o‘zaro emotsional birligi bo‘lib, bu o‘qituvchiga darsning quyidagi ehtimoliy muhitini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini beradi:

- bo‘lajak darsda talabalar jamoasi bilan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish;
- talabalar bilan o‘zaro demokratik va erkin munosabatning turli darajalarini tashkillashtirish, uni rivojlantirish istiqbollarini belgilash;
- darsda talabalarining bilishga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish<sup>18</sup>.

<sup>18</sup> Грехнев В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя. – М.: «Просвещение», 1990

Dars jarayonida o'qituvchilar bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish juda muhimdir, zero bu jarayon darsning didaktik tamoyillarini har tomonlama belgilab beradi, o'qituvchini ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, unda talabalar bilan o'zaro hamkorlikning mukammal shakllariga nisbatan turli muloqot modellarini takomillashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Muloqotni modellashtirish bevosita yangi dars oldidan tezda bajarilishi mumkin, ba'zan esa doimiy xarakter kasb etadi. U o'qituvchiga o'zining dars jarayonidagi pedagogik munosabati va emotsional xulqi, his-tuyg'ularini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini yaratadi. Bo'lajak muloqotning shart-sharoitlari va tizimi aniqlashtiriladi, oldindan rejalashtirilgan muloqot modeli tatbiq etiladi.

Pedagogik muloqotning dastlabki daqiqalaridayoq o'qituvchi tanlangan ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashtirishi, talabalarning umumiy kayfiyati, ulardagi ijodkorlik va ishchanlik kayfiyatini his qilishi lozim.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasi hisoblanadi. Pedagog olimlar o'qituvchining talabalar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalar-da, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Olimlar esa muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi, xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A. Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi<sup>19</sup> :

1. Prognostik bosqich (modellashtirish) – o'qituvchi tomonidan guruh jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.

2. Pedagogik aloqa – talaba bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

3. Pedagogik jarayon – o'qituvchining xatti harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi.

4. Natijalar tahlili – amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab, kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin. Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir talabaning psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki talaba shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

<sup>19</sup> Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т.: ТДПУ, 2003.

Pedagogik aloqa bosqichida guruh jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va talabalar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, talabalar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, guruh jamoasining rasmiy va norasmiy etakchilari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligini ta'minlashi, o'quv-tarbiya jarayonida talabalar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlik, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak.

Hozirgi zamon ijtimoiy-psixologik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, inson muloqotda uning tashabbuskori bo'lishi ham, ba'zan esa vaziyatga qarab, o'zaro munosabatning faol yoki passiv sub'ekti sifatida qatnashishi ham mumkin<sup>20</sup>.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqotni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilishda uning pedagogik madaniyatiga jiddiy talablar qo'yiladi. Dars hamda tarbiyaviy tadbirlar o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatlari tizimini shakllantiruvchi jarayon bo'lib, aynan ushbu faoliyatda o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik faoliyatini tarkib toptiradi.

Tajribali o'qituvchilar bilan o'zaro suhbatlardan ma'lum bo'ladiki, darsda talabalar jamoasi bilan muloqot shaklini tanlash uchun o'qituvchi qaysidir ma'noda o'rganilayotgan yangi material uchun pedagogik metodlarni ham tanlashi talab qilinadi. Shu sababli, darsda yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik ko'rilayotganda hamda tarbiyaviy ta'sir rejasini tuzayotganda muloqot tizimining o'ziga xos mazmunan boy jihatlarini modellashtirish lozim<sup>21</sup>.

Pedagogik faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchi talabalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida, ayniqsa, o'zining kasbiy pedagogik xatti-harakatlarida o'ziga xos psixologik to'siqlarga duch kelishi, talabalar bilan muloqotda ziddiyatlar paydo bo'lishi mumkinligini bilishi va bunga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi, chuqur pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi kerak.

<sup>20</sup> Быков А.К. Теория и практика развития педагогического мастерства преподавателей высшей военной школы. // Дисс. докт. пед. наук. – М., 2000.

<sup>21</sup> Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. // Пед. фанлари докт. илмий дар. учун дисс. – Т., 2007.

Yosh o'qituvchi muloqot malakasiga ega bo'lmashligi mumkin, bu esa unda esankirab sarosimaga tushish, erkin harakat qilolmaslik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Yosh o'qituvchilarda muloqotning rivojlangan ifodali vositalari etishmasligi, nutq texnikasidan foydalanishni bilmasligi, mimik va pantomimik harakatlarda no'noqlik kuzatiladi. Ba'zan o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotning «avtoritar uslubi»ni qo'llashi natijasida o'zaro munosabatlar salbiy oqibatlariga olib keladi.

Yosh o'qituvchining chuqur bilimi va mahorati evaziga tayyorlangan ta'limiy vazifalar, xilmaxil topshiriqlar va tarbiyaviy tadbirlar, olib boriladigan pedagogik faoliyat talabalar uchun mutlaqo qiziqarli bo'lmashligi yoki ular umuman beparvo bo'lishlari mumkin.

Kutilmagan, tayyorgarlik ko'rilmagan pedagogik muammolardan nihoyatda uddaburonlik bilan ustunlikni qo'lga olish o'qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan sinov bo'lib, prinsipial ahamiyatga ega, negaki bunday vaziyatlarda muloqotning barcha variantlarini taxminiy rejalashtirish aslo mumkin emas.

Bunda o'qituvchi muloqotda pedagogik improvizatsiya (tayyorgarliksiz) holatlariga ko'nikma hosil qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak – vaziyatni va talabalar xatti-harakatini chuqur idrok qilib tez va haqqoniy baholashi, hech qanday mantiqiy mulohazasiz, o'zining bilim va malakalari, tajribalari, pedagogik mahorati va aql-zakovati, sezgisiga asoslanib, tez va aniq qaror qabul qilishi, vaziyatning o'zgarishiga qarab munosabatini, shaxsiy pedagogik faoliyatini to'g'rilab, uzviy ravishda ushbu qarorni talabalar bilan muloqot jarayonida qo'llashi lozim.

Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- o'qituvchilarning ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va talabalar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muloqot asosida guruh jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, talabalar xattiharakatining oldingi holati bilan tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, talabalar bilan o'zaro

muomalaning «ustoz-shogird» an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob'ektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot obyekti, ya'ni talabning diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda talabalar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyati, etikasi va odob-axloqi, dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining guruh jamoasi, ota-onalar bilan muloqot qila bilishi, talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishi va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovi bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib boradigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs bo'lishi;

- talabalarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- har qanday favqulodda vaziyatlar, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklar nisbatan hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlar, jamoatchilik tizimi, muvaqqat guruhiy munosabatlar, ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi; dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy

izlanishlarga moyilliligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- talabalar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish bilan qurollanganligi va hokazo<sup>22</sup>.

Bunday yo'naltirilganlik mazmunida jamiyatning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari mazmuni va mohiyati ifodalangan. Shuning uchun o'qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan intellektual ong, yuksak ma'naviyat, asriy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan, zamonning ilg'or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e'tiqod kabi mezonlar mavjud bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda qabul qilinishi mo'ljallangan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me'yoriy xujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi.

Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlarini, xislatlarini, qobiliyatlarini ish uslublarini mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muloqot maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot – muloqot subektlarining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi, rivojlantiriladi. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqotning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlarini bilan belgilanishini aytib o'tish kerak. Pedagogik muloqotning to'g'ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta'sir ko'rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo'lib qoladi, auditoriya bilan muloqotda bo'lish jarayonining o'zi soddalashadi, u pedagogning o'zi uchun yoqimli, uzviy bo'lib qoladi;

ikkinchidan, talabalar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayoni ancha engillashadi;

<sup>22</sup> Султонова Г.А. Педагогик махорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005

uchinchidan, pedagogik muloqotning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muloqotning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro'y beradi.

Talabalarda muloqotlarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalar muloqoti individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va ularni talabalarining anglab etishi. Talabalarining mustaqil tahlil qilishi, o'zaro har tomonlama tavsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. Talabalar shu maqsadda «Men boshqa kishilar bilan muloqotda qandayman?» mavzuida esse yozadilar, bir-birlariga shunga o'xshash mazmunda tavsifnoma tayyorlaydilar va hokazo.

2. Shaxsiy muloqotdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muloqot uslubidagi salbiy holatlarni engish.

3. Pedagog uchun muloqotning hissiy jihatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Muloqotda o'z individual uslubini asosida pedagogik muloqot tarkibiy qismlarini egallash (maxsus mashg'ulotlarda) sohasidagi ishlar.

5. O'z muloqot uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muloqotdan iborat yaxlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muloqot uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashg'ulotlarda).

6. Haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslubini asosida talabalar bilan muloqot qilish, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida).

Tibbiyot kollejlari ishni endi boshlayotgan o'qituvchilar individual muloqot uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqotning jihatlari muhim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan talabalarining bevosita o'zaro harakati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muloqotning oldingi xususiyatlarini tiklashni, muloqot vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o'z muloqot uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. Shuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ohang, hulq-atvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich: Pedagogik muloqotning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Talabalar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muloqot ob'ektining diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir. Muloqot ob'ektining, ya'ni talabaning diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan talabalar diqqatini jalb qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlilik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muloqot bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.



2.1.1-rasm. Pedagogik muloqot maqsadi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muloqotning ahamiyati bilan bog'liq ravishda pedagogik muloqot madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbiy tafakkur sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muloqot qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli

sohalarda muntazam muloqot qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muloqotning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Bo'lajak tibbiyot muassasalari o'qituvchilari quyidagi xususiyatlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim va bu xususiyatlar ular kasbiy tafakkurining asosiy mezonlarini belgilaydi:

- mustaqil respublikamizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiylik tuyg'ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o'quvchilarga, hattoki jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy mehr – muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

- jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va voqeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlariga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni perseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

- hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiyaga yo'llashga qobilligi;

- favqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart – sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

- umumiy qiziqishi ko'lamining kengligi, bilishga oid qiziqishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatliligi, muayyan salohiyat, mahorat darajalariga erishganligi;

- muloqot maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham, ma'nosi kuchli, ta'sirchan fikr uzatish, ta'sir o'tkazish uquvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi muloqot davomida to'g'ri, omilkor axborot uzatishi va unga suhbatdoshini ishontira bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturini tavsiya etishimiz mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o'z-o'zini anglashni (muloqotda o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga

o'shinish va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o'rinda o'z shaxsiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qilish, talabalar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo'lgan muloqotda olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan bo'lgan muloqotda oldingi muloqotning hozirgi darajasini tahlil qilish, muloqot haqida o'zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish, sizning muloqotdagi imkoniyatlaringizni boshqalar (talabalar, o'qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O'zida dilkashlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

Z. Talabalar va kishilar bilan xilma-xil jamoat ishlari olib borish, bunda o'zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma'ruzalar, suhbatlar) hosil bo'ladi.

4. Muloqotda salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

O'zbekistonning ta'lim-tarbiya sohasidagi tub o'zgarishlardan kelib chiqib, hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham talaba-o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ammo ushbu maqsadlarni amalga oshirishning eng muhim quroli borki, uning vositasida ta'lim-tarbiyaviy jarayonning sifati va samaradorligi ta'minlanadi. Bu – muloqot etikasidir.

Hozirgi yoshlarda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot etikasini shakllantirib borish kelgusida ularning etuk mutaxassislar bo'lib etishishida muhim ahamiyatga egadir. Albatta bu o'rinda pedagogning pedagogik muloqotini yangilashning muhim sharti ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'z nutq va ma'ruzalarida alohida ta'kidlaydilar, ya'ni bugungi shiddatkor hayot odamlar bilan bemalol muloqot qila oladigan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, hayotning pastu - baland ko'chalarida aql - zakovat bilan to'g'ri yo'lni topishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishni talab qilmokda.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar.

Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar

bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz.

Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi<sup>23</sup>.

Kasbiy-pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bular quyidagilardir:

1. Muloqot jarayonida orientirovka (mo'ljal olish) qilish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihati e'tiborni o'ziga tortish bo'lib, talaba bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida talabani diqqati barqaror bo'lishi kerak.

3. Ob'ektning (kishi) qalbini zabt etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o'ziga xos izlash bosqichidir. Masalan, yangi materialni bayon etishda pedagog talabalarni muloqotga tayyorlab oladi. Pedagogning talabani tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya'ni pedagogning yangi materialni o'quvchilarga og'zaki bayon qilib berishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so'zi obrazlar qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi.

5. Pedagog bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro harakatda hayajonlanishni kuzatishning kommunikativ vositalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo'lishi kerak. Shunda tinglovchilarning idroki to'liq, obrazli bo'ladi<sup>24</sup>

Pedagog talabani diqqatini to'plab olishiga imkon berishi kerak. Bir-birini tushunish uchun quyidagi 5 ta shartni aytib o'tish joiz:

- birgalikdagi kasbiy tilga ega bo'lish;
- intellekt darajasini hisobga olish;
- axborotning to'liq bo'lishi;
- mantiqan bayon etish;
- diqqatni bir joyga to'play olish.

<sup>23</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2017. – B.59-62.

<sup>24</sup> Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, Istiqlol, 2003. – 170 b.

Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy psixologik shartlari, o'quv faoliyatini samarali bo'lishi uchun faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish usullarini bilish muhim bo'lib, ularni talabada muomala madaniyatini shakllantirib borishga qaratilishi kerak. Har qanday muammoni echish uchun qo'llash mumkin bo'lgan bahs turlari va asosan og'zaki bahsni o'tkazish qoidalari borki, ular bevosita talabalarda muloqot etikasini shakllanishida yordam beradi.

Muloqot etikasining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1) hamqorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish;

2) Sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;

3) talabani faollikka undovchi muloqot imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlab o'tish;

4) talabalarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;

5) shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish;

6) o'zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish. Biz bo'lajak mutaxassislarda quyidagi muloqot xususiyatlarini shakllantirishimiz zarur:

- muloqot madaniyatining nazariy asoslarini;
- shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;
- pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;
- oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;
- shaxsda muloqot shakllanishini o'rganish;
- muloqot madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
- muloqot sirlarini bilishi va qo'llay olishni;
- guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
- oilada muloqot madaniyati, muloqot sirlaridan bohabar bo'lish;
- muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish<sup>25</sup>.

Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari etaklaydi. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi – bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab

---

<sup>25</sup> Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012. – 142 b.

turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari etaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiya-sini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Muloqotga o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o'quvchilardan biri bajarishi.

2. E'tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. O'quvchilar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda mayda-chuydalargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaf-faqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, ya'ni kamchilikni bitta o'quvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu o'quv qo'llanma jamiyatning yangilanish davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi<sup>26</sup>.

Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko'rish pedagogning kasbkorga oid shaxsiy fazilati bo'lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda kasbiy tafakkur o'z navbatida muloqot madaniyatiga tayangan holda bo'lajak o'qituvchining dunyoqarashini, uning kasbini sevishi orqali etuklik darajasiga intilishini, o'z borlig'ini his etishi, Vatan, jamiyat manfaatlari, rivoji uchun keraklilik hissini anglashini ifodalaydi.

---

<sup>26</sup> Xoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDIU, 2011.-160 b.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мелибруда, Е. Я – Ты – Мы: Психологические возможности улучшения общения : пер. с польск. / Е. Мелибруда. – М.: Прогресс, 1986. – 256 с.
2. Грехнев В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя. – М.: «Просвещение», 1990
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т.: ТДПУ, 2003.
4. Быков А.К. Теория и практика развития педагогического мастерства преподавателей высшей военной школы. // Дисс. докт. пед. наук. – М., 2000.
5. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. // Пед. фанлари докт. илмий дар. учун дисс. – Т., 2007.
6. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005

## SUD PSIXOLOG EKSPERTINING SOHAGA OID BILIMDOMLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**OLIMOV Laziz Yarashovich**

*Buxoro davlat universiteti, dotsenti*

### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida huquqiy bilimdonlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentligi va ish tajribasini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.*

### *Kalit so'zlar*

*Sud psixolog eksperti, huquqiy bilimdonlik, sud psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ekspert shaxsi, kasbiy faoliyat.*

**Kirish.** Sud psixologik ekspertizaning tashkil qilishda uning huquqiy, psixologik, ijtimoiy jihatlarini o'rganish, shuningdek, ekspertiza o'tkaziluvchi shaxs jinoyatchiligining sabab va motivlarini, ijtimoiy-psixologik, shaxs va individual-psixologik, yosh, hududiy, statistik va jinsiy xususiyatlarini o'rganish hamda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasini ilmiy, psixologik-pedagogik jihatdan asoslash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijasidan yaratilgan xulosalar sud huquq tizimini yanada isloh qilishda, sud-psixologik ekspertizalar bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlarini yanada boyitishga, ijtimoiy, huquqshunoslik va pedagogik psixologiyasi fanlaridagi voyaga etmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillarini, yosh, etnopsixologik, hududiy, statistik va jinsiy xususiyatlarini o'rganish yo'nalishini ilmiy-nazariy jihatdan boyitadi.

**Asosiy qism.** Tadqiqotdan olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillari to'g'risida muayyan konseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari olingan empirik natijalar quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- ichki ishlar bo'limining voyaga etmaganlar bilan ishlash xodimlari faoliyatida;
- sud psixologik ekspertiza o'tkazuvchi komissiya faoliyati samaradorligini oshirishda;
- maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari psixologlari, ijtimoiy, pedagogik, huquqshunoslik psixologiyasi sohasida ishlaydigan tadqiqotchilar faoliyatlarida;
- o'qituvchilar va ota-onalarning bolalar va o'smirlar bilan muomala munosabat jarayonlarida;
- mahalla fuqarolar yig'ini faollari faoliyatlarida;
- ushbu yo'nalish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqishda;
- ichki ishlar bo'limi voyaga etmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari, o'qituvchilar, mahalla faollarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etishda;

ommaviy axborot vositalarida voyaga etmaganlar jinoyatchiligi muammosi bo'yicha maxsus ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va ruknlar tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi. Yuridik psixologiya ko'pgina sohalarni o'z ichiga qamrab oluvchi amaliy fan hisoblanib, bir tomondan psixologiya, ikkinchi tomondan huquqshunoslik fanlari doirasiga kiradi. Bu fan ijtimoiy-gumanitar fanlarning integrallashuvi jarayonlarining mahsuli sifatida XVIII asrdan boshlab paydo bo'la boshlagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida I.M.Sechenov, S.M.Bexterev, A.F.Koni faoliyat yuritgan davr yuridik psixologiyaning o'sish davri hisoblanadi. Bu davrga kelib, jinoyatchi shaxs psixologiyasi borasidagi izlanishlar natija bera boshlaydi va yuridik psixologiyani mustaqil fan sifatida qabul qilish zarurati tug'iladi.

Gans Grosning 1898 yilda chop etilgan "Kriminal psixologiyasi" nomli asari ko'plab psixolog olimlarning mashaqqatli mehnatlarini o'zida aks ettirgan birinchi ilmiy adabiyot sanaladi. Alfred Bine 1900 yilda nashr ettirgan "Ta'sir etish" asarida yosh bolalarning guvohlik berishida ta'sir ko'rsatishning muhimligi muammosini o'rgangan. 1925 yilda birinchi bo'lib Rossiya federatsiyasida Jinoyat va jinoyatchilikni o'rganish instituti tashkil etiladi. 1964

yilda “Yuridik psixologiya” fani huquqshunoslik yoʻnalishidagi barcha oliy oʻquv yurtlarining oʻquv dasturlariga kiritiladi.

1970 yilda Amerika milliy psixologik sogʻlomlashtirish markazida oʻtkazilgan 45 ta izlanish natijalari asosida “Jinoiy xromosoma anomaliyasi” mavjudligi haqida maʼruza qilinadi. Kriminal psixologiya nazariyasiga koʻra, Klaynfelter gipotezasi tahlil qilinadi va 5242 nafar jinoyatchi (aynan boʻyi balandlari) tajribadan oʻtkaziladi. Olingan natijalarga koʻra, baland boʻyli erkak jinsiga mansub shaxslarning 2 % da, oʻrta boʻyli shaxslarning 0,7% da qonunga itoatkor deb topilgan respondentlarning 1,0% da tajovuzkor xulqning shakllanishiga bogʻliq xromosomalar aniqlangan.

Yuridik psixologiya fanining rivojlanishiga S.S.Romanov, M.I.Enikeyev, V.L.Vasilevlar katta hissa qoʻshganlar. Shu maʼnoda yuridik psixologiya psixik qonuniyatlarning huquqiy faoliyat va huquqiy tartibga solish jarayonlarida paydo boʻlishi hamda amalda qoʻllanishini oʻrganuvchi soha ekanligini koʻrishimiz mumkin

Sud-psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud-psixologik ekspertizasining mohiyatini toʻlaroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yoʻlini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi, xolis) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va oʻrganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud boʻlgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga oʻrnini boʻshatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, oʻzgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki boʻldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik tajribalarning ahamiyati yanada ortib, uni oʻtkazish usullari takomillashib bordi. Bu oʻz navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini taʼminladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi koʻp hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bogʻliqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga etmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur va idrok qilish va xayol jarayonlarini tadqiq qilish bilan shugʻullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan maʼlum boʻlishicha, birinchi boʻlib 1810 yilda Napoleon “Jinoyat kodeksi”ga oʻz hatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchi (gumonlanuvchi shaxsi)ning o'z hatti-harakati yoki qilmishlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlanadi.

XX asrning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya va psixodiagnostika sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulq-atvoridagi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922 yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. XX asrning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sudga oid psixologik ishlar olib borila boshladi.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topa boshladi.

Sud-psixologik ekspertiza mustaqil ekspert tadqiqotining shakli sifatida murakkab hisoblangan amaliy psixologiya ma'lumotlarini yuridik faoliyatga bog'liq ehtiyojlarga moslashtirish urinishlaridan boshlab, sud-psixologik ekspertizaning o'z nazariyasini yaratishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Bu jarayon umumiy va amaliy psixologiya rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq va shu kun qadar davom etmoqda.

Sud-psixologik ekspertizaning, alohida ajralgan fan sifatidagi, paydo bo'lish jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

XIX asrning birinchi yarimida Shveysariyalik yozuvchi I.Lafaterning fiziognomika risolasi mashhur bo'lib ketdi. Unda muallif "Tashqi ko'rinish (xulqiy)ga qarab ichki (psixik) holatini" (insonning psixik holatini va psixik tipini yuz tuzilishining anatomik xususiyatlariga qarab) aniqlashga intilishini aks etgan.

O'sha paytda Avstriyalik vrach va anatom F.Gal frenologiyaga asos solgan. U inson miyasining o'ziga xos xaritasini ishlab chiqib, bu xaritada

insonning har bir qobiliyati uchun ma'lum bir qism javob berganligini aniqlagan. F.Gal fikricha, bosh miyaning alohida qismlarining rivojlanishi bosh suyagining shakliga ta'sir qilsa, bosh suyagining ustgi qismining o'rganilishi shaxs xususiyatlarini baholashga imkon beradi. Yurisprudensiya va psixologiyani bog'lab turgan, boshqa qismlarni aniqlashga qaratilgan boshqa urinishlar ham bo'lgan. Ushbu urinishlarning o'ziga xos natijasi Italiyalik psixiatr va kriminalist Ch.Lombrozo tomonidan yaratilgan mashhur bo'lgan "jinoatchi inson" nazariyasini katta ahamiyat kasb etadi. Garchi bunga o'xshash ta'limotlarning ilmiyligi isbotlanmagan bo'lsa ham, bularning hammasi yuridik psixologiya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

XIX asrning ikkinchi yarimida psixologiya bilimning ilmiy sohasiga aylanib qoladi, bunga falsafa va fiziologiya sohalaridagi mutanosib yo'nalishlar ko'maklashadi. Nemis olimi G.Gelmgols asarlari sezgi organlari zamonaviy fiziologiyasining asosini tashkil etadi. Muallif o'z asarida ilk bor bilish jarayonining sensor (his-tuyg'u) va intellektual (kognitiv) komponentlari o'rtasidagi uzoqlashishni ko'rsatib berishga harakat qilgan. Uning psixofiziologiyasining g'oyalari bir qator xususan psixofiziologik kategoriyalarni ishlab chiqishga, psixologiyani fan sifatida shakllanishiga ko'maklashgan.

Ushbu bosqichda sud-psixologik ekspertiza psixiatrik tadqiqotning bir qismi sifatida, sud-psixiatrik ekspertizaning muhim qurollari sifatida, (bu esa psixologiya va psixiatriya fanining qisman o'xshashligi, va psixologiya fani rivojlanishining ushbu bosqichida etarli darajada mustaqil emasligini inobatga olgan holda), yoki maxsus pedagogik tadqiqot sifatida o'rganilgan.

Psixologiya ilmining mustaqil sohasiga aylanayotgan bir paytda, amaliy fan sifatida taraqqiy etgan. Sud psixologiyasining shakllanishiga D.Drilning "Psixofizik tiplar jinoyatchilik va uning turlari bilan solishtirganda (xususan jinoyatchilik psixologiyasi)", "Jinoyatchilik va jinoyatchilar" (jinoiy psixologik etyudlar) asarlari ulkan hissa qo'shgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshiga kelib psixologiya ilm-fanda mustaqil sohaga ajralib qoladi. Bir tomondan bunga psixologiyaga – tajriba kiritilgani bilan erishiladi, ikkinchi tomondan ushbu hol tadrijiy psixologiya rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Bu esa o'z navbatida yuridik amaliyotda (shu bilan birga sud amaliyotida ham) psixologik tadqiqotlarning yutuqlarini qo'llash yo'lida kuchli yangi turtki vazifasini bajardi. Aynan shu paytda g'arbiy Yevropa davlatlaridagi olimlar K.Marbe, V.Shtern, J.Varendonk, A.Bine tomonidan sud-psixologiya ekspertizasi yo'nalishida ilk tajribalar o'tkazilgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida sud-psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qo'llaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan, xususan, Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada - E.Ferri va R.Garrofalo, Rossiyada - L.E.Vladimirov, A.U.Freze, V.M.Bexterev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu paytda sud-psixologik ekspertizaning muammolariga bag'ishlangan bir qator asarlar paydo bo'ladi. Bular - K.Marbening "Psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatida", R.Kuve "Psixotexnika temir yo'llar xizmatida", V.Shtern "Jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalari" va "Aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullari", G.Gross tomonidan "Kriminal psixologiyasi" asari chop etilgan.

1885 yilga kelib Rossiyada empirik psixologiya o'z maqomiga ega bo'ladi. 1902 yilda V.Bexterev tomonidan sud-psixologik amaliy tadqiqotlarga bag'ishlangan birinchi asar yaratiladi. 1907 yilda Rossiyada V.Bexterev va D.Dril Psixonevrologik institutga asos soladilar. U erda ilk bor sud-psixologik ekspertiza fanidan ma'ruzalar o'qilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar sud-psixologik ekspertizaning chet el tajribasini katta qiziqish bilan o'rganadilar. Sud-psixologik ekspertizaning eng chuqur tahlil qilish bo'yicha ilk tajribalar A.E.Brusilovskiy "Sud-psixologik ekspertiza. Fan sifatida, uslubi va chegaralari" asarida qilingan, ushbu asar 1929 yilda Xarkov shahrida nashr etilgan.

Bu davrda Rossiyada amaliy psixologiyaga va xususan psixologik ekspertizaga katta qiziqish kuzatiladi. Gumonlanuvchi, ayblanuvchi va guvoh shaxslar psixikasining o'rganib chiqishga va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Olimlar shunday metodika ishlab chiqishga harakat qilganlarki, ular ekspert tadqiqoti natijasida paydo bo'lgan psixologik ma'lumotni yuridik ahamiyatga ega tushunchalar bilan solishtirishga imkoniyat yarasin (masalan, ma'lum psixologik holat yoki psixologik jarayonlar sifati, ayblanuvchi yoki gumon qilingan shaxsning aqli raso ekanligi yoki emasligi bilan solishtirganda). Bu holatda olimlar tomonidan haqiqatdan ham bir qator qiziqarli psixologik hodisalar aniqlangan edi. Agar sud-psixologik ekspertizaning eng keng tarqalgan turi haqida fikr yuritilsa, bu ko'rsatmalarni haqqoniyligini tekshirish hisoblanadi (alohida e'tibor guvohlar ko'rsatmalariga qaratilgan, shu bilan birga jinoiy jarayonning voyaga etmagan qatnashchilarining ko'rsatmalariga ham). Bir vaqtning o'zida sud psixologiyasi muammolarini tadqiq etish ham rivojlanib ketdi (jarayondagi turli ishtirokchilarining psixologiya xususiyatlari, xususan sud jarayonidagi psixologik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari). Rossiyada XX asrning boshida bu ish bilan L.E.Vladimirov, L.D.Kiselyov,

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

O.B.Goldovskiy, V.K.Sluchevskiy, A.P.Boktunov va boshqalar shug'ullanganlar.

Bu davrga kelib sud-psixologik ekspertizasiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy asarlar paydo bo'la boshladi: M.M.Grodzinskiy "Guvohlar ko'rsatmalaridagi bir xil xatolar", Ya.A.Kantarovich "Guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi", A.R.Luriya "Jinoyat izlarini aniqlashda psixologiya", G.I.Volkova "Jinoiy huquq va refleksologiya", V.A.Vnukova va A.E. Brusilovskiy "Voyaga etmagan va yoshi kichik guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi va psixopatologiyasi" va boshqalar. Bu asarlarda shaxs va ayblanuvchi psixologiyasi, guvohlik ko'rsatmalari bo'yicha sud-psixologik ekspertizani o'tkazish texnikasi va uslubini asoslab bergan.

**NATIJALAR**

Sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimdonligini baholashga mo'ljallangan yopiq tarzdagi so'rovnoma natijalari tahliliga o'tamiz.

**1-jadval**

*Sud psixolog eksperti huquqiy savodxonligini baholash bo'yicha ijtimoiy psixologik so'rovnoma natijalari tahlili*

T/r	Savollar	1-5 yilgacha n=41						5 yildan ortiq N=61							
		past		o'rta		Yuqori		Past		o'rta		yuqori			
		n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%		
1	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering	25	61	10	24	6	15	1	4	1	23	23	38	24	39
2	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	20	49	13	32	8	19	1	9	1	29	18	29	25	42
3	O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	26	63	9	22	6	15	1	4	1	23	21	34	26	43
4	O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	22	54	15	36	4	10	1	9	9	15	23	38	29	47
5	O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	31	76	6	15	1	4	4	9	1	23	28	46	19	31

PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA


6	O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 24-sonli 12.12.2008 y. "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida" qarori bo'yicha sohaga tegishli qanday bilimga egasiz?	19	4 6	11	2 7	1 1	2 7	1 4	23	31	51	16	26
7.	"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni												
7.1.(7)	"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining a	13	3 2	18	4 4	1 0	2 4	1 1	18	29	47	21	34
7.2.(8)	Davlat sud-ekspertiza muassasasi, boshqa tashkilot rahbarining hamda sud ekspertining huquq va majburiyatlari bobi bo'yicha nimalarni bilasiz?.	12	2 9	17	4 1	1 2	3 0	1 1	18	30	49	20	33
7.3.(9)	Sud ekspertizasini o'tkazishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?	18	4 4	10	2 4	1 3	3 2	1 4	23	31	51	16	26
7.4.(10)	Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish, tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborot bilan ta'minlash. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish bobining mohiyatini tushuntirib bering.	21	5 1	13	3 2	7	1 7	1 7	28	29	47	15	25
7.5.(11)	Qonunning yakunlovchi qoidalarida nimalar nazarda tutilgan?	16	3 9	18	4 4	7	1 7	1 9	31	23	38	19	31
7.6.(12)		9	2 2	21	5 1	1 1	2 7	8	13	34	56	19	31
7.7.(13)		6	1 5	24	5 8	1 1	2 7	9	15	37	60	15	25
7.8.(14)		22	5 4	13	3 1	6	1 5	2 1	34	28	46	12	20
7.9.(15)		7	1 8	17	4 1	1 7	4 1	9	15	23	38	29	47
(16)		29	7 1	9	2 2	3	7	1 4	23	27	44	20	33

PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

8.(17)	Respondent (aylanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi)ning ruhiy va jismoniy holatini qaysi usullar yordamida o'rganish lozim?	23	5 6	10	2 4	8	2 0	8	13	31	51	22	36
9. (18)	Respondent (aylanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi)ning aqliy taraqqiyoti qanday baholanadi?	17	4 2	12	2 9	1 2	2 9	1 0	17	24	39	27	44
10.(19)	Respondentning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qila olishini qaysi usullar bilan baholash mumkin?	29	7 1	9	2 2	3	7	1 5	25	27	44	19	31
11.(20)	Respondentning o'rganilayotgan paytdagi psixologik holatiga ko'ra to'g'ri ko'rsatuv berish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish hamda sudda ishtirok etishga qodir yoki qodir emasligi qanday aniqlanadi?	12	2 9	18	4 4	1 1	2 7	1 0	17	22	36	29	47
12.(21)	Voyaga etmaganlarni ota yoki onasi bilan yashash istagini o'rganishda qanday talablarga amal qilish lozim?	15	3 6	18	4 4	8	1 9	1 4	23	25	41	22	36


1-diagramma

5- yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilidonligi darajasi (% hisobida)



2-diagramma

5 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilidonligi darajasi (% hisobida)



Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, sud psixologik ekspertizasiga aloqador bo'lgan huquqiy va psixodiagnostik bilimdonligi 5 yilgacha faoliyat yuritgan sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimlari 5 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarning ko'rsatkichlari o'rtasida keskin tafovut borligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 5 yildan ortiq faoliyat yuritgan sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimlarga egaligi ish tajribasiga bog'liq bo'lib, berilgan savollar yuzasidan o'rta yoki yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Bu esa albatta ular bilan o'quv va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish zarurati borligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Tadqiqotimiz davomida sud psixolog ekspertlari huquqiy bilimdonligini har biri o'ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi qayd etildi va bu uslub, o'z navbatida, yuridik psixologiya fanidagi sud psixolog ekspertisasi samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilimdonligini oshirishda sohaga oid kodekslar va qonunlarni bilishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman, sud psixolog ekspertlari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi hususiy bilimdonlik ko'rsatkichlariga baho berishda, ularning ish tajribalari bilan bog'liq tomonlari yuzasidan empirik xulosalar chiqarish orqali sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
- 2.Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
- 3.Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
- 4.Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
- 5.Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
- 6.Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

## TA'LIMDA TARIXIY-MADANIY MEROS VA O'QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA O'RGATISH MASALALARI

**BEKNIYAZOV Bayrambay Saparbayevich**

*Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, p.f.d (PhD)*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ta'limda tarixiy-madaniy meros va o'quvchilarni milliy hunarmandchilikka o'rgatish masalalari, maktabda o'quvchilarni aniq bir kasbga mehr qo'ydirishda tarixiy-madaniy meroslardan foydalanish va ushbu faoliyatda pedagoglarning hissasi haqida so'z yuritiladi.*

### **Kalt so'zlar**

*Kasbga yo'naltirish, hunar, hunarmand, hunarmandchilik, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, xalq hunari, temirchilik, zargarlik, miskarlik, yog'och o'ymakorligi, tikish, to'qish, teridan har xil buyumlar yasash, suyakga naqsh o'yish hunarmandchiligi.*

### **Аннотация**

*В данной статье рассматриваются вопросы историко-культурного наследия в воспитании и обучении школьников народным промыслам, использование историко-культурного наследия в школе для привития учащимся любви к конкретной профессии, а также вклад педагогов в эту деятельность.*

### **Ключевые слова**

*Профориентация, ремесло, ремесленник, промыслы, национальное самосознание, национальные ценности, народные промыслы, кузнечное, ювелирное, медное дело, резьба по дереву, шитье, ткачество, изготовление различных изделий из кожи, резьба по кости.*

### **Annotation**

*This article discusses the issues of historical and cultural heritage in the education and training of schoolchildren in folk crafts, the use of historical and cultural heritage at school to instill in students a love for a particular profession, as well as the contribution of teachers to this activity.*

### **Key words**

*Vocational guidance, craft, craftsman, crafts, national identity, national values, folk crafts, blacksmithing, jewelry, coppersmithing, wood carving, sewing, weaving, making various leather products, bone carving.*

**Kirish.** Qaysi xalqning madaniy tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, o'sha xalqning axloqiy go'zalligi, urf-odat rang barangligi ko'lami keng, ta'lim-tarbiya tizimi ildizlari ham shunchalik chuqur bo'ladi. Chunki, har qanday madaniyat,

axloq, urf-odat va ta'lim-tarbiya insoniy faoliyatning kechinmalari, sinovlari, boy xayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi va maqbullari avloddan avlodga o'tadi.

O'tmish madaniy merosimizni o'rganish faqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etibgina qolmay, ayni paytda, u ajdodlarimiz yaratgan buyuk ma'naviy xazinadan bahramand bo'lishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda va insonning barkamol bo'lib shakllanishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktablarda o'qitish jarayonida tarixiy-madaniy merosimizni chuqur va puxta o'rganishni ta'minlash komil insonni voyaga etkazishning ishonchli kafolatidir.

**Asosiy qism.** Yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida qonun" da va 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6108-sonli Farmonida ham umumta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab "Kasbga yo'naltirish tizimi" ni joriy etish vazifalari belgilab berilgan bo'lib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun «Kasbga yo'naltirish tizimi» joriy etish nazarda tutilgan.

Rivojlanayotgan yosh avlodni maktabda aniq bir kasbga mehr qo'ydirish uning hayotdagi o'rni va baxtini topishda biz pedagoglarning hissasi katta. Bu vazifalarni bajarish biz pedagoglardan tinmay mehnat qilishni o'z kasbimizning mohir ustasi bo'lishni talab qiladi.

Hunarmandchilikning eski davrda keng tarqalgan turlari temirchilik, zargarlik, miskarlik, yog'och o'ymakorligi, tikish, to'qish teridan har xil buyumlar yasash, suyakga naqsh o'yish hunarmandchiligi bo'lgan. Bizga tanish xalqimiz avvallari milliy amaliy san'ati va hunarmandchiligi bilan olamga tanilgan.

Xususan, Xorazmshohlar davrida arab muallifi al-Kurashi (XIII asr) ma'lumoti bo'yicha «Xorazmda 50 ga yaqin ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari mavjud bo'lgan»<sup>27</sup>. Boshqa muallif Zakaria al-Kazvinining «Gurganj aholisi mohir hunarmandlar, ayniqsa, temirchilik, duradgorlik va boshqa hunarmandchilik sohalari zamonasida yuksak rivojlangan» - degan ma'lumoti ham arxeologik tadqiqotlar bilan mos keladi<sup>28</sup>.

Yozma manbalarda teriga ishlov berish (ko'nchilik) bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, al Maqdisiy Volgabo'yi Bulg'oriyasidan

<sup>27</sup> Бунятов З.М. Государство Хоразмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. -М.: «Наука». 1986. – с 102.

<sup>28</sup> Ushbu asar. – b 228.

Xorazmga «mo'yna, ishlangan teri va oq qayin po'stlog'i keltirilishi» haqida ma'lumot beradi. "Hudud al Olam" muallifi ham Kerder shahridan (Hayvon qal'a, shimoliy Qoraqalpog'iston) "qorako'l qo'zi terisi ko'plab chiqariladi", - deb yozgan<sup>29</sup>. Ibn Havkal arab xalifaligining g'arbiy elatlarida "Xorazmdan keltirilgan qorako'l terilari xaridorbop bo'lgan",- deb qayd etadi. Oq qayin po'stlog'i o'ramlari Shemaxaqal'a, Ko'hna Urganch, Oy ota, Jampiqqal'a, Mizdaxqon yodgorliklarida mavjud bo'lganligi ushbu ma'lumotni tasdiqlaydi. A.Yu.Yakubovskiy oq qayin po'stlog'idan mahalliy sharoitda teri ishlashda foydalanilgan, deya fikr yuritadi<sup>30</sup>. Yakka Parson (yozuv bitilgan teri, kavush, pichoq g'ilofi), Jampiqqal'a (teri, jun gilam va kigiz)<sup>31</sup>, Mizdaxqon va boshqa yodgorliklardan teridan tayyorlangan poyafzal, kamar, tasma kesmalari topilgan. Bu esa Xorazmning rivojlangan o'rta asr shaharlarida hunarmandchilikning ko'nchilik sohasi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Kuyukqal'a<sup>32</sup>, Teshikqal'a<sup>33</sup>, To'qqal'a<sup>34</sup>, Jampiqqal'a<sup>35</sup>, Mizdaxqon yodgorliklaridan suyakni qayta ishlash (suyak o'ymakorligi) mahsulotlari, ustaxonalari va xom ashyo zahiralari topilgan.

Xorazm hududidagi Sulton Uveys tog'-konlaridan olingan toshdan ishlangan buyumlar Markaziy Osiyoda ajralib turadi, bu mahalliy tog'lardan olingan xom ashyo va tayyor mahsulotlarga Sharq davlatlari, jumladan, Kavkaz orti mintaqalarida ham talab katta bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, qurilish va qozon toshlari (tal'koxlorit), qimmatbaho feruza va serdolik toshlari Yaqin Sharq dunyosining mashhur joylari qatorida Xorazmdan savdoga chiqarilgan. Sayyoh-geograf al Maqdisiy (985-1000 yozgan) «Axsan at-takasim fi-marifat...» asarida «Xorazmning Barategin qishlog'idan tegirmon toshlari chiqariladi», - deya xabar beradi<sup>36</sup>.

Sulton Uveys tog'laridagi Quyunchiq soy va Qorako'l atrofi (tegirmon toshi), Jampiqqal'a (feruza, serdolik, tal'koxlorit), Yomonsoy (feruza) konlaridan yuqorida ta'kidlangan va boshqa xom ashyolar olinganligi aniqlangan. Qadimshunoslar Yu.P.Manilov, S.A.Dudakovlarning ta'kidlashicha, bu tog' konlarini o'zlashtirish va mahsulotlarni tayyorlash Xorazmshohlar davrida avjiga chiqqan. Xom ashyoga o'sha joyning o'zida ma'lum ishlov berilib yarim tayyor mahsulot shakliga keltirilgan (polufabrikat)

<sup>29</sup> Ал Макдиси. Ахсан ат такасим фи-марифат ал – акалим.// МИТТ. Т.І. -М.: «Наука». 1959. – с 202-217.

<sup>30</sup> Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. - М.- Л. 1950. –с 151.

<sup>31</sup> Доспанов О.Т. Жампык қала – орта эсирлер естелиги. -Нөкис: «Қарақалпақстан»,1992. – б 53-67

<sup>32</sup> Ходжаев Т.К, Мамбетуллаев М.М. Раннесредневековый некрополь Куюк кала. -М.: «Наука».2008.-с. 132-133

<sup>33</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм.-М.: «Наука».1948.-с 142.

<sup>34</sup> Гудкова А.В. Ток кала.-Ташкент: «Фан». 1964. –с. 44.

<sup>35</sup> Доспанов О.Т. Жампык қала – орта эсирлер естелиги. -Нөкис: «Қарақалпақстан»,1992. – б 66-71.

<sup>36</sup> Ал Макдиси. Ахсан ат такасим фи-марифат ал – акалим.// МИТТ. Т.І. -М.: «Наука». 1959. – с 187.

va so'ngra shahar va qishloqlardagi toshga ishlov berish ustaxonalarida me'yoriga etkazilgan<sup>37</sup>.

Arxeologik qazishlar jarayonida (Jampiq qal'a, Bug'roxon, Tuproq qal'a-Qo'ng'iro't tumani) XI–XIII asrlarga oid xo'jalikda foydalanilgan tosh qozonlar, tova, cho'mich, tegirmon toshlari, xaraz, tashnov qopqog'i, ustun tagliklari, sayqal plitkalari, taqinchoqlar (tumor, munchoq, uzuk) va chiroqlar ko'plab topilgan.

Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan buyumlar (qozon, choynak, tashnov, chiroqlar, bezak taxtachalari, qimmatbaho taqinchoqlar), mahalliy toshtaroshlik san'atining yorqin ifodasi bo'lib, ularning tayyorlanishi va bezalish uslublaridagi umumiy o'xshashliklar Sulton Uveys tog'larida topilgan xom ashyo nusxalari, vohada maxsus ixtisoslashgan hunarmand toshtaroshlar faoliyat olib borganligini ko'rsatadi. Bu esa tosh buyumlar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar bozorbop mahsulotlarni Xorazm vohasi elatlarini ta'minlagan va olis o'lkalarga ham savdoga chiqarishgan degan fikrni tasdiqlaydi. Umuman, o'rta asrlarda Xorazmning ayrim tosh mahsulotlari (asosan bezak toshlari) Kavkaz, O'rta Sharq hududlarida ham qayd etilgan.

Yozma manbalar, xususan, al-Makdisiy "Axsan at takosim..." asarida Xorazmda ipak aralashmasidan to'qilgan yo'l-yo'l matodan ("olacha") tikilgan kiyimlar, gilamlar, nafis parchalar tayyorlanishi haqida yozadi. Al Istahriy va "Hudud al-Olam" muallifi bu erda (Xorazmda) chetga chiqariladigan paxta va jo'n matolar (karbos) ko'plab ishlab chiqarilishi xususida ma'lumot beradilar<sup>38</sup>. Yaqut al Hamaviyning xorazmshohlar davri haqidagi ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, muallif o'z asarida Xorazmda "...daraxtlarining ko'pi tut va terakdir", "tut ipak qurti uchun ozuqa", - deya vohadagi to'qimachilik hunarmandchiligining bir sohasi bo'lmish ipakchilikning xom ashyo manbai to'g'risidagi ma'lumotni to'ldiradi<sup>39</sup>. Manbalarda qayd qilingan "karbos" paxta gazlamasi bo'lib, mahalliy xalq to'qimachilari "bo'z", "chit" nomlari bilan tarixiy-etnografik ma'lumotlar va arxiv materiallaridan ma'lum. Mahalliy to'qimachilik mahsulotlari namunalari arxeologik tadqiqotlarda ham uchraydi. Jumladan, Yakka Parson qo'rg'onidan paxta gazlamasidan tikilgan ayollar kiyim-kechagi, mato ipi, jo'n qirqimlari, kigiz bo'lgi va o'rchuq boshlari, Jampiqqal'a yodgorligidan bo'z, gilam va kigiz parchasi, yog'ochdan yasalgan ip yigirish dastgohining bir qismi topilgan<sup>40</sup>. Tadqiqotlarda "piyoz" shaklidagi cuyak, toshdan tayyorlangan urchuq boshlari, paxta g'o'za ko'saklari, ip

<sup>37</sup> Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья.// Автореферат дисс. канд. ист. наук. –Т.:1974. –с 16-17.

<sup>38</sup> Ал Макдиси. Ахсан ат такасим фи-марифат ал – акалим.// МИТТ. Т.І. -М.: «Наука». 1959. – с 180-216.

<sup>39</sup> Ushbu asar. – b 419.

<sup>40</sup> Доспанов О.Т. О некоторых результатах раскопок Джанпык калы в 1987-1989 гг. // Новые открытия в Приаралье. – М., 1991. Вып.2. –с 85.

yigirish dastgohi qismlari Teshikqal'a va Jampiqqal'a yodgorliklarida qayd etilgan (X-XIII asr). Umuman olganda, Jayhun bo'ylarida qadim zamonlardan to'qimachilik hunarmandchiligining xom ashyo manbai (paxta, jo'n, ipak) va bu sohaning rivojlanishi uchun etarli shart-sharoitlar mavjud bo'lgan.

Lekin keyinchalik xalq hunarmandchiligini o'rganish ishlariga etarlicha e'tibor berilmadi. Natijada milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, xalq hunari va hunarmandchilikni tushinish, qadrlash va yaratib bilish qobiliyatini yo'qotdi.

Bugungi kunda davlatimiz xalq hunarmandchiligining barcha sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Respublikamiz umumta'lim maktablarida mehnat tarbiyasi darslarida mashqlarda, to'garaklarda o'quvchilarga «Ustoz-Shogird» uslubida hunar o'rgatish yo'lga qo'yilmoqda. O'quvchi-yoshlarga milliy hunarmandchiligimiz va uning yutuqlari to'g'risida ma'lumot berish milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda mehnat kasb-hunar o'quvchilarning o'ziga xos vazifalari bor. Respublikamiz xalqining geografik joylashish o'rniga bog'liq o'zi yashab turgan elatda taniqli usta hunarmandlarni ularning bizga qoldirgan milliy meroslarini ko'rsatish va ularning ishlarini davom ettiruvchi shogirdlar tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Demak, biz hunar, hunarmand, hunarmandchilik deganda nimani tushinasiz? – degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Hunar odamzotning eng tayyorgarlikni talab qiladigan tirichilik manbai bo'lgan mehnat yo'lidir. Hunarmand – ma'lum bir hunarni yaxshi egallagan inson. Hunarmand – belgili bir hunar turi bilan shug'ullanuvchi inson. Biz o'quvchilarga hunar o'rgatish orqali uning foydali ishlar bilan band bo'lishiga va har qanday noqulay vaziyatlardan asraymiz.

Umumta'lim maktablarida jamiyatimizda barcha kasblar yaxshi ekanligini o'quvchilarga etkazib berish shuningdek kasblarning buyuk ekanliklari haqida ma'lumotlar berib borish lozim. O'quvchi yoshlarga milliy hunarmandchiligimiz haqida ma'lumotlar berish, ularni o'rgatish, ota-bobolarimizdan milliy meroslarni hozirgi kunga qadar qadrlash va uni avloddan-avlodga etkazish uchun maktablarda o'quvchilarga milliy hunarmandchilik sirlarini o'rgatib borishimiz zarur. Sababi, mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni ongli va bilimli kadrlar qilib tayyorlash bizning asosiy burchimizdir.

Qoraqalpoq xalqining madaniyati va badiiy san'ati o'zining boshqa xalqlarda umuman uchramaydigan an'analariga, boy merosiga ega. Shu kungacha etib kelgan madaniy meroslarimizga e'tibor beradigan bo'lsak eng qadimgi va o'rta asrlarda yashagan xalqlar bilan qoraqalpoqlarning o'zaro bir-birlari bilan yaqin aloqalarda bo'lganligiga amin bo'lamiz. Hunarmandchilik xalqning kundalik turmushi bilan birga yonma-yon rivojlanib kelgan. Uning

asosiy turlari ko'pincha marosimlarda kiyadigan naqshli kiyimlar hosil metallardan ishlangan zargarlik buyumlari, odamlar yashaydigan uying ustunlari, uy buyumlari, har xil asboblari, qurol-yaroqlar va hakozi. O'quvchilarga qo'l hunarlari turlaridan zargarlik, yog'ochga naqsh berish, to'qimachilik, gilamchilik, kulolchilik, teri buyumlariga ishlov berish turlarini aytib o'tish mumkin.

**Xulosa.** Bu milliy meroslarimizga ota-bobolarimizning milliy ijodkorlik xususiyatlari qadrlash, milliy madaniyatimizning boy meroslaridan biri ekanligini bilishimiz zarur. Naqsh solingan buyumlar ko'pincha oq toldan, qora toldan, tut yog'ochidan, qorag'ay yog'ochlaridan ishlangan. Bu yog'ochlarga naqshli rang berishda har xil usullari mavjud (qaynatish, quritish, ko'mib qo'yish). Dastlab naqshlar qog'ozga ishlanib, keyinchalik terilarning yuziga qo'yilib, shu tariqa nusqa olinadi. Har xil naqsh bo'laklaridan tayyorlangan qismlar kata qo'shma naqshlarga birlashtiriladi. Bu karton va yupqa kongiltirdan ishlanadi. Bunday nusqalar taxtaning yuz qismiga tekis tushadi, ko'zg'alib ketmaydi va siljmaydi hamda naqsh esa oson ko'chiriladi. Shuningdek, hayvon suyaklariga ham naqsh berish juda ham qadimgi an'analarimizdan sanaladi. O'quvchilarga milliy hunarmandchilik sirlarini o'rgatish ularni asrab avaylash zarurligini o'rgatib borishimiz zarur.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. -М.: «Наука». 1986.
2. Ал Макдиси. Ахсан ат такасим фи-марифат ал – акалим.// МИТТ. Т.1.
3. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. - М.- Л. 1950.
4. Доспанов О.Т. Жампық қала – орта әсирлер естелиги. -Нөкис: «Қарақалпақстан»,1992.
5. Ходжаев Т.К, Мамбетуллаев М.М. Раннесредневековый некрополь Куюк кала. -М.:2008.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм.-М.:1948.
7. Гудкова А.В. Ток кала.-Ташкент: Фан.1964.
8. Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья.// Автореферат дисс. канд. ист. наук. –Т.: 1974.
9. Доспанов О.Т. О некоторых результатах раскопок Джампык калы в 1987-1989 гг. // Новые открытия в Приарале. – М., 1991. Вып.2.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CONSUMER CULTURE IN STUDENTS.

**RAMAZONOV Jahangir Djalolovich**

*Associate Professor of Bukhara State*

*Pedagogical Institute.*

*E-mail: ramazonov2020@mail.ru*

### **Resume**

*This article discusses the phenomenon of information-demanding culture among students, theoretical and practical issues of formation of motivation for information-demanding culture, socio-psychological features of information sorting, processing and consumption.*

### **Key words**

*Information, information exchange culture, information demand, social networks, information society, information culture, information literacy, communication, communication, mass communication.*

In the world education system, today special attention is being paid to the training of highly qualified and competitive personnel. In the era of globalization, the main goal of the higher education system is to provide students with knowledge based on the requirements of the new innovative environment, to develop the socio-psychological factors for self-development in them, and thus to improve their voluntary mechanisms. The social and economic conditions that are developing all over the world, urbanization processes, population growth in cities, and various information related to globalization have an effect on the increase of emotional stress in a person, as well as on establishing a balance between the forms of behavior in managing one's actions and managing their development.

Due to the emergence of a new form of information space in the world and the rapid development of computer technologies, the process of information exchange between people has reached a new level, which has also led to changes in human thinking. The endless expansion of mutual information exchange, the deepening and acceleration of socio-cultural integration creates unique complications in the socialization of young people into society.

In the process of modernization of the social system in the world, "information exchange culture", "information consumption", "social networks", "informed society", "information culture", "information literacy", "communication", "communication", "mass communication", " concepts and categories such as "mass media" remain the main topic of sociological and psychological research. In the globalizing modern society, the fact that information affects human thinking in different directions and

means, has the ability to change the life and destiny of mankind, and has become a powerful tool that acquires a positive or negative essence, creates the need to study its sociocultural and psychocultural aspects.

Society has developed and used knowledge at all stages of its development. It is known that information is necessary for human development like water, air and land. Information enriches knowledge, changes it, fills and polishes it. Knowledge is the basis of the growth and historical development of human social life, that is, it absorbs social experience, applies it in practice, and passes it on to generations. Knowledge is the basis of human development, and the methods of obtaining it are different. In particular, in the agrarian method of development, observation is a source of knowledge, and based on it, the resulting actions related to labor and the growth of natural resources are ensured. In the method of industrial development, observation, experiments and theories that form the effective use of energy in the process of introduction of new energy sources and production emerge as important sources of knowledge.

Fast, large-scale information system of the 21st century and. The development of telecommunication technologies is recognized as a factor that has a strong influence on the globalization of the information space, penetrating into almost all spheres of life, especially the human lifestyle.

First of all, the essence, genesis and scientific interpretation of the concept of "information" were touched upon, according to which, "information" [1] (Arabic message, information) is considered one of the main concepts of modern science and technology, philosophy and sociology, and is used in different ways from one subject to another. refers to information transmitted in any form (verbal, written, electronic, etc.).

The founder of cybernetics, Norbert Wiener, was the first to propose that information be considered as a physical variable quantity. According to him, all management and communication processes in living nature, society and machines are considered as information transmission, storage and processing processes. But the content of communication in this process does not depend on the form of information (written, spoken, in different languages, with gestures, conditional signals, etc.)[2].

It was recognized that the 21st century is the information age. The main reason for this is that by this century, technologies for transmitting information of an unprecedentedly large volume at high speed appeared. In other words, a real revolution has taken place in the field of information technology. In 1986, the establishment of the Internet in the world[3] became a global event in the field of information and information, as well as in the life of all mankind.

Although the American scientist R. Hartley introduced the concept of "information" into scientific circulation for the first time in 1928 in order to define the quantitative criterion of information distributed through technical communication channels, serious attention was paid to this term only in 1948. Many studies in the 60s of the 20th century were closely related to the problems of information retrieval, and information retrieval systems and methods were created during this period [4]. The

development of cybernetics and the emergence of the science of information theory led to the development of this field on a large scale.

Researcher G. Gaffarova stated that "in recent years, the idea of an information model existing in an objective entity has been discussed in the literature. In particular, the approach to the question of development in non-living nature depends on how it can be applied to the systems of self-organization in it. According to these views, there are separate information structures - codes in self-organizing systems»[5]. These codes "record valuable information for the system, come out as its component and determine the ways of its interaction with the environment and its recovery as a whole" [6].

Representatives of modern social sciences explain such information structures and their functions in accordance with social systems. This happens through the genetic apparatus in biological organisms, and through culture in social organisms.

In short, the concept of "information" has a long history and a multifaceted meaning. Information in social life means information about people, facts, events and other processes. Based on the analysis of the concept of "information", it can be concluded that information is not only a subject of communication for the society, but also a factor influencing the exchange of information in communication between people.

Indeed, information is a message, information. But this interpretation of "information" is not enough to understand the entire mechanism of information exchange in society from a socio-philosophical point of view. Therefore, it is appropriate to pay attention to aspects that are typical for any process in order to study all the general features of information, the nature of the information exchange process as a phenomenon.

The information culture of the society is characterized by the formation of the ability of its members to exchange information from information resources, to use information technologies for personal life activities and the interests of the development of the state. In order for a person to move freely in the flow of information, he must have information culture as a component of his general culture. Information culture is related to the needs of a person's social nature. The level of information culture is determined by the ability to master information and communication technologies and use them in daily activities and to meet various needs.

Also, the essence of the concept of "information culture" is determined not only from the point of view of the analysis of various information, but also from the point of view of mastering the methods of its management.

Information acquisition, transfer and formation of skills is a multifaceted problem that needs to be solved comprehensively. Information culture is important in terms of attitude towards information, creation of a methodology of worldview formation, explanation of the philosophy of the information society to the population, formation of skills to select the necessary information from the flow of information.

In the scientific positions of psychologists of foreign countries on the subject, the formation of the worldview of student youth or the changes that occur in it, mainly

the psychological protection mechanism of the student youth personality, life strategy, level of socialization, type of leading activity, self-conscious management and emotional stability, stable characteristics of behavior, it is proven that it is inextricably linked with important factors such as reliance on priority methodological principles in education and training and optimal conditions for the physical and psychological development of a person. Information has acquired a global essence, and it is based on the fact that it is a powerful ideological force that influences human thinking, consciousness and worldview in different directions, turns the entire human life, its destiny in one direction or another, sometimes acquires a negative, sometimes positive essence.

#### References:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жидд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.– Б.119–120.
2. Винер Н. Человек управляющий. – СПб.: Питер, 2001.–С.24.
3. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы.–М.: Дашков и К,2003.–С.13.
4. Хартли Р. Передача информации // Теория информации и её приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959.
5. Гаффарова Г.Ф. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари: фалс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.– Б.25.
6. Степин В.С. Саморазвивающиеся системы и постнеклассическая рациональность // Вопросы философии. – Москва, 2003.– №8.– С.12.

## OILAVIY MUNOSABATLARDA ZULMKORLIKNING PAYDO BO'LISHIDA RASHK FENOMENINI TA'SIRI.

**TOVBAYEVA Mukaddam Safarovna.**

*SamDU psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

### **Annotatsiya**

*Maqola oilaviy munosabatlardagi zo'rvonlikning paydo bo'lishi rashkning ta'siri muammomiga bag'ishlangan. Muallifning fikricha oiladagi zulmkorlikni paydo bo'lishida rashkning xavfli jixatlari jabr-zulm qilish, kaltaklash, qiynash, og'ir ahvolga solish kabi omillarning sabab sharoitlari, tasnifi, xulqda moyillik xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.*

### **Tayanch so'zlar**

*Oilaviy munosabatlar, zo'rvonlik, gender farqlar, rashk, oiladagi nosog'lom munosabatlar, xudbinlik oqibatlarini.*

### **Аннотация**

*Статья посвящена проблеме влияния ревности на возникновение насилия в семейных отношениях. Опасные стороны ревности в возникновении семейной тираннии по мнению автора причинные условия, классификация таких факторов, как угнетение, побои, пытки, жестокое обращение, особенности склонности в поведении целесообразно исследовать с научно-практической точки зрения.*

### **Ключевые слова**

*Семейные отношения, насилие, гендерные различия, ревность, нездоровые отношения в семье, последствия эгоизма.*

### **Abstract**

*The article is devoted to the problem of the influence of jealousy on the occurrence of violence in family relationships. Dangerous aspects of jealousy in the emergence of family tyranny according to the author, causal conditions, classification of such factors as oppression, beatings, torture, ill-treatment, features of propensity in behavior should be studied from a scientific and practical point of view.*

### **Key words**

*Family relationships, violence, gender differences, jealousy, unhealthy relationships in the family, the consequences of selfishness*

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarida, doston, qo'shiq va erta klarda, donishmandlarning fikr va qarashlari sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish obekti bo'lib kelgan.

Oilalarning mustahkam bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka erishuvi u mansub bo'lgan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma'naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosat mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir.

Ko'pincha oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning kelib chiqishiga rashk ham sabab bo'lishi mumkin. Rashk tufayli sevgi qo'ldan ketadi va bu shafqatsiz munosabatlarda hamjihatlikni ta'minlash uchun juda ko'p kuch va sabr-toqat talab etadi. Ammo qanday qilib rashkdan qutulish mumkin? Zamonaviy psixologiyada, rashk nazariyasi va amaliyotiga juda katta e'tibor berilyapdi va buning sabablari bor. Haqiqat shuki, rashk oqibatidako'plab nikohlar barbod bo'ladi va ko'plab jinoyatlar sodir etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, rashk-qashshoqlik rashkchi odam uchun xavfli va hasadgo'ylikka olib keladigan halokatli hisdir.

Rashk xissi aslida bolaligida rashkni namoyon qilish istagi paydo bo'lganda boshlanadi, ota-onalar, to'g'ri yo'l haqida ko'p jihatdan tashqi dunyo bilan bolaning munosabatlar yanada rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bolaning rashki ko'pincha boshqa bolaning oilada paydo bo'lishi. Ota-ona sevgisini yo'qotishdan qo'rqish, keraksiz va tashlab ketilgandek xis qilish - bu bolalarning rashkining ko'rinishi. Bolaning axloqan qashshoq bo'lib qolmasligini ta'minlash uchun ota-ona xatti-harakatlarning to'g'ri usullarini ishlab chiqishi kerak. Ota-onalarning eng ko'p xatosi - bolaning xatti-harakatlaridan norozilik bildirishdir. To'g'ri, bolaga e'tibor berishi, unga bo'lgan mehr-muhabbatni ko'rsatishi. uning harakatlarini maqtashga va mehribonlik ko'rsatish, ota onalar uchun tavsiya etiladi. Har bir oilada ota-onalar bolaning rashkini qanday engish uchun individual echim topishi zarur, eng muhimi, vaqtni o'tkazib yubormaslik va kerakli vaqtida yordam bermaslikdir.

Rashk hislarining namoyon bo'lishidagi yosh va gender tafovutlari inson shaxsining oila munosabatlari, faoliyat sohasi hamda shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lmishi hayotiy zarurat sifatidagi emotsional munosabatlar ekan, bu munosabatlar namoyon bo'lishida o'ziga xos psixologik

xususiyatlarni bilish orqali qanchadan–qancha salbiy asoratlarni (ajrashish, jinoyat, qasddan odam o'ldirish, nikohgacha homiladorlik, erta jinsiy aloqa) oldini olish mumkin bo'ladi.

Oilada nosog'lom muhit tufayli noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola esa keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlariga zid bo'lgan har xil salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi; o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning etishib chiqishi; erta nikohlar, rashk, hiyonat, qo'sh xotinlilik, ikkinchi nikoh kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.<sup>41</sup>

Eng namunali rus kishilaridan biri Chernishevskiy o'z xotiniga o'ziga xos, havas qilsa arziydigan muhabbat bilan munosabatda bo'lgan, bu e'tiborga sazovor xolatdir. Uning surgundan xotiniga yo'llagan maktublari kamdan-kam uchraydigan muhabbat qissalaridan ekanligini anglatadi. Uning muhabbati ham, xotiniga sadoqati ham erkin. Chernishevskiy erotik muhabbat bilan shu qadar bog'liq rashkka qarshi chiqishga jur'at topa olgan. Rashk inson erkinligi bilan bog'liq emas. Rashkda mulkchilik va xukmronlik instinkti bor, lekin bu haqoratlovchi xususiyatga ega. Muhabbat huquqini e'tirof etish va rashk huquqini inkor etish, uni ideallashtirishga chek qo'yish zarur. Buni Chernishevskiy hech qanday nozik psixologik jihatlarga murojaat qilmasdan bevosita va sodda shaklda qilgan. Rashk insonning inson ustidan zulmkorligi, zolimligi, zo'ravonligi. Ayol rashki uni furiyaga aylantirgani bois ayniqsa dahshatli. Ayol muhabbati uni shaytoniy stixiyaga aylantira oladi.. Ayol va erkak muhabbati o'rtasida kuchli tengsizlik, talab-ehtiyojlar va orzu-umidlar tengsizligi mavjud. Erkakning muhabbati juz'iy, butun fikri-zikrini egallab ololmaydi. Ayol muhabbati esa birmuncha yaxlit, to'laqonli. Ayol muhabbat telbasiga, savdoyisiga aylana oladi. Ayol muhabbatining halokatli tusga ega ekani shu bilan bog'liq. Ayol muhabbatining jodusi bor, biroq zolimona tusga ega. Va ideal ayol timsoliga hamisha mos kelmaslik mavjud. Ayol go'zalligining timsoli hamisha soxta, aldaydi. Ayollar erkaklarga nisbatan yolg'onni ko'p ishlatadi, yolg'on – matriarxat, onalik davri ustidan patriarxat, otalik davri g'alaba qilganidan buyon xotin-qizlarning tarixiy huquqsizligi yuzaga keltirgan o'zini o'zi muhofaza etish vositasi. Biroq ayol muhabbati hatto tasavvur qilib bo'lmaydigan yuksakliklarga eta oladi.

---

<sup>41</sup> Акрамова Ф.А. Оилада соғлом психологик муҳитни таркиб топтиришнинг ижтимоий-психологик асослари. ўқув-услубий қўлланма.Т., 2014. 185 б.

Rashkning turli namoyishi bilan ko'p juftliklar oldida muammo bo'lib turibdilar. Muammoni hal etishning bir usuli, his-tuyg'ularingizni va his-tuyg'ularingizni sherikingizga himoya qilish va yordam berish istagiga ega bo'lishiga ishonch hosil qilishdir.

Rashkchi odam odatda munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan nizolar targ'ibotchisidir. Agar hasadgo'ylik befoyda bo'lsa, unda shubhasiz ishonchsizlikning namoyon bo'lishiga xalaqit bera oladimi, deb o'ylash kerak. Psixologlar bir necha turdagi rashkning mavjudligiga ajratganlar:

4. Vaziyatni hasad qilish oilada yoki jamoada muayyan maqomni yo'qotish tahdidi bilan yuzaga keladi.

5. Bashorat qilingan rashk, insonning sir-asrorlari bo'lganida yuz beradi va ayolning ham u bilan bevosita aloqasi yo'qligini o'ylaydi.

6. Tirantistik rashk, barcha sheriklarga shaxsiy mol-mulki maqomini berishni istagan xudbin tabiatlarda paydo bo'ladi. Bunday odamlar nafaqat sheriklar, balki boshqa qarindoshlar, do'stlar, bolalar ham hasad qiladilar. Despotizm bilan ajralib turadigan rashkchi er hech qachon o'zgarmaydi, chunki u noto'g'ri ekanini tan ololmaydi.

Iшонchsiz odamlar shubhali rashkdan azob chekishadi. Ular o'zlarini o'zlari sevgiga loyiq deb hisoblaydilar va shuning uchun ularning sheriklari ham xuddi shu tarzda o'ylaydilar.

Rashk odamlari birinchi navbatda o'zlari uchun muammo yaratadilar, ammo keyinchalik bu muammo ham juftining his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. O'zaro munosabatlarni o'rnatish uchun er yoki xotinning aynan nima uchun hasad qilishiga e'tibor berish kerak. Manipulyasiyadagi harakatlarni rag'batlantirish kerak emas. Muloqot o'zaro hurmat asosida amalga oshirilishi kerak, bu ishonchsiz bo'lishi mumkin emas.

Rashk tuyg'usini engish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

Birinchi, o'zaro ishonchga erishish.

Ikkinchi, umr yo'ldoshni tinglashga tayyorgarlik ko'rayotganini va munosabatni o'zgartirishga harakat qilishini bilib olish.

Rashk er va xotinlar uchun yaxshi kafiyat xosil qiladi yoki fojiali ishlarga olib keladi. Rashk qilish har bir insonga xos bo'lib, har bir kishi bu tuyg'uni o'z hayotini buzishi yoki uni xiyonatdan qutqarishi mumkinligini tushunishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o'quv-uslubiy qo'llanma.T., 2014. 185 b.

2. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: "Yangi asr avlodi", 2007. –B. 7.

3. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. diss. psix. fan. nom. – T.: 2007. –B. 36.
4. Meks A.M. Sotsialnye usloviya nasiliya v semeynom povedenii (analiz nasiliya v amerikanskoy seme): Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata sotsiologicheskix nauk. –M., 2003. –S. 3.
5. Tovbayeva M.S. Issues of oppression in family relationships// International Journal of Psychological Rehabilitation, Volume 24, Issue 06, 2020, - P. 4118-4124.

## AXBOROT TAXDIDLARI SHAROITIDA O'SMIR YOSHIDAGI BOLALARDA PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING O'RNI.

*SALIYEVA Dilorom Abdullayevna*

*QDPI dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi*

*Amaliy psixologiya kafedrası mudiri*

### *Annotatsiya*

*Maqolada axborot taxdidlari sharoitida o'smir yoshidagi bolalarda psixologik immunitetni shakllantirishda qadriyatlarining ahamiyati olib borilgan tadqiqotlar asosida taxlil qilib berilgan va ustuvor qadriyatlar aniqlab berilgan.*

### *Kalit so'zlar*

*O'smir, qadriyat, mustaqillik, xavotirlanuvchanlik, qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor, qadriyatli ustanovka, qadriyatli yo'nalganlik, milliy odatlar, an'analar.*

### *Аннотация*

*В статье на основе исследований проанализировано значение ценностей в формировании психологического иммунитета у детей подросткового возраста в условиях информационных угроз и определены приоритетн.*

### *Ключвые слова*

*Подросток, ценность, самостоятельность, тревожность, ценностное сознание, ценностное отношение, ценностное поведение, ценностная установка, ценностная направленность, национальные обычи, традиции.*

### *Abstract*

*In the article, the importance of values in the formation of psychological immunity in adolescent children under the conditions of information threats is analyzed based on the conducted research and the priority values are identified*

### *Key words*

*Teenager, value, independence, anxiety, valuable consciousness, valuable attitude, valuable behavior, valuable ustanovka, valuable direction, national customs, traditions*

**Kirish.** Hozirgi kunda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar jamiyatimizning barcha jabhalarida ulkan o'zgarishlarni amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu ulkan vazifani hal etishda fuqarolarimiz ijodiy faolligini oshirib borish va kamol toptirish bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda kishilarning ma'naviyati va ma'rifat, madaniyat va ilm-fan to'g'risidagi

tasavvurlarini nechog'lik darajada ilmiy, nazariy va amaliy negizga ega ekanligi bilan bog'langandir.

Dunyodagi qaysiki xalq yoki mamlakat o'zga bir yurtni bo'ysundirmoqchi bo'lsa, avvalo, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy ma'naviyati va tarixidan judo qilishga urunadi. O'z-o'zidan ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Ma'lumki bu dunyoda tashqi tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir agar bo'shliq paydo bo'lsa, hech shubhasiz, uni albatta kimdir, qandaydir tartibda uni to'ldirishga harakat qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqadiki, yoshlarni ma'rifatli, yuksak salohiyatli, ma'naviyatli va barkamol shaxs bo'lib kamol topishi jarayonida ularga munosabatlar psixologiyasini chuqurroq singdirish ularda psixologik immunitetni rivojlantirish hamda ularni kelajakda ma'naviyati va intellektual salohiyati yuksak darajada bo'lishiga va ular orasida Bahouddin Naqshband, Abu Ali ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Imom Buxoriy va Mahmud Zamaxshariydek allomalarning etishib chiqishiga asos bo'ladi. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash lozim.

**Asosiy qism.** Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 yil yakunida Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomada "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchunchi Renesseans poydevorini barbo etishdek ulug'maqsadni quygan ekanmiz buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab berdigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim va tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz." deb ta'kidladilar. **Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimi keng islohotlarni olib borish haqida so'z borar ekan, albatta islohotlarni amalga oshirish uchun o'rganilgan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llay olishimiz kerak.** Prezidentimizning bu fikrlariga chuqurroq razm salsak biz yoshlarda psixologik immunitetni shakllantirishga qanchalik e'tibor berganliklarini tushunamiz. Chunki ma'naviyatni tushunish uchun avvalo shaxsni o'z-o'zini tushunish va anglash barobarida unda qadriyatlipsixologik ong va psixologik immunitetni shakllantirish lozim.

Yoshlarimizda qadriyat, qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor, qadriyatli ustanovka, qadriyatli yo'nalganlikni tarbiyalash muxim hisoblanadi. Qadriyatlar qachonki, insonda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat va ustanovkalar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va

xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi. Qadriyatga yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi.

Yurtimizda shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'lga – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash, yangicha tafakkur innovatsion g'oya va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish aynan rivojlantiruvchi mafkura va maqsadlar asosida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong bu dunyoqarash va e'tiqod ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng targ'ib qilinadi.

Buyuk rus psixolog olimi L.S.Vigotskiyning fikricha, shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala ekanligini ta'kidlab, o'z tadqiqotlari natijasidagi fikrlariga qaraganda, shaxslararo munosabatlarda dastlab, muomala asosiy vosita, so'ngra esa xulq – atvor vositasi ekanligini ko'rsatib o'tgan. Chunki inson yolg'iz qolgan paytda ham muomala funksiyasini o'zida saqlaydi. Buyuk psixolog olim L.S.Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomala harakteri haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi.

M.T.Isakova tadqiqotlarida erta yoshlikda ma'naviy tasavvurlari shakllanishni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularga ijtimoiy omillar va milliy an'analarni ta'sir ko'rsatishiga e'tibor qaratiladi. Muallifning dars jarayonida va o'quvchilar kommunikativ faoliyati tizimiga kiritiladi. Bu tadbirlar o'quvchilar hulqini yoshlik paytida o'zgartirishga yordam beruvchi ijtimoiy omil xususiyatiga ega bo'ldi. Milliy odatlar va an'analarning mazmunini tushunib olish, maqsadga muvofiq olib borilgan ma'naviy targ'ibot tadbirlari mos ravishda shaxsning manaviyat tasavvurlarini va moslashish xislatlarini va tizimini o'zgartiradi degan holda muhim xulosa hisoblanadi. Mavjud ko'zda tutilgan ma'naviy tasavvurlari o'quvchilarning bu tasavvurlarga binoan o'z xulqida harakat qilishga tayyorligi omili sifatida ishtirok etadi.

Etnik xususiyatlar milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. Biron bir etnik guruh yoki etnik jamoaning madaniyati, odati, an'ana va marosimlari, san'ati qolaversa qadriyatlarini milliyliigi aynan shu etnopsixologik xususiyatlarni vujudga keltiradi.

Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli, tabiiy individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy qtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir.

Biz qadriyat xususiyatini madaniy-tarixiy kontseptsiya nuqtai-nazaridan yondashib talqin qilib, muayyan shaxs xususiyati saqlanib qolishi uchun u ma'lum darajadagi funktsionallikka ega bo'lishi kerak, deb hisobladik. Tashqi (ham geografik, ham ijtimoiy) muhitning o'zgarishi, xususan, ijtimoiy bosim, ushbu xususiyatning bir qancha muammolarini yuzaga keltiradi. Mazkur o'ziga xos adaptatsion muammolarga nisbatan javob tariqasida axborot informatsion-protsessual mexanizmlarni o'ziga xos qonun qoidalar bilan bog'lab turadigan ijtimoiy saralanish ro'y beradi. Demak, madaniyat axborot maydoni bo'lsa, individuum – faol sub'ekt. Madaniyat esa miya turli uslublar yordamida qayta ishlovchi informatsion kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Individ informatsion birliklarni tanlab olib, ularni "tahrir" qiladi, o'zgartiradi va eng muhimi, ulardan foydalanadi.


O'zbek xalqiga xos qadriyat xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalarida biz o'zbek xalqining shaxs xususiyatlarini rus xalqi shaxs xususiyatlari bilan taqqoslash orqali aniqlashga harakat qilib ko'rdik. Ikki xalqning ustuvor shaxs tuzilmasi xususiyatlari R.Kettelning 16-faktorli so'rovnomasi yordamida o'rganildi. R.Kettel metodikasi bo'yicha tadqiqotlar natijalariga ko'ra sakkizga yaqin ikkilamchi faktorlarni ajratgan, shularning to'rttasi ahamiyatga molikdir:

1. - Faktor: moslashganlik - xavotirlilik.
2. - Faktor: Introversiya - Ekstroversiya.
3. - Faktor: Senzitivlik - Emotsional barqarorlik.
4. - Faktor: Konformlilik – Mustaqillik.

Ko'rsatilgan jadvallardan shu narsani aniqlashimiz mumkinki, kichik yoshdagi o'smirlarning hayotga moslashganligi, ekstrovertliligi, emotsional barqaror va nisbatan mustaqil ekanligi ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Katta o'smirning psixologik qiyofasi esa boshqacha ko'rinishga ega bo'lib, u biroz xavotirli, introversiyaning mavjudligi, senzitiv hamda konformli ko'rsatmoqda.

#### O'smirlik davrida shaxs xususiyatlarining rivojlanishi.

Shkalalar	Kichik o'smir		Katta o'smir	
Xavotirlilik	6,5	2,9	5,9	5,1
Ekstroversiya	5,2	2,6	5,8	6,0
Senzitivlik	4,6	2,3	4,7	3,2
Konformizm	4,8	3,7	4,9	2,3



O'smirlik davrida shaxs xususiyatlarini namoyon bo'lishi xususiyatlari.

Katta o'smir boshqa muhitda tarkib topganligi va bunday sharoitda madaniy qadriyatlar ham o'zgacha ma'no kasb etganligini ko'rsatish mumkin. Bunday vaziyat ekstroversiya xususiyati yuqori bo'lgan o'smirlarning reproduktiv imkoniyatlarini kamaytirgan. Ushbu madaniyatda hayo, ibo, uyatchanlik kabi kategoriyalar asosiy tanlov mezoniga aylangan. O'smirlarning xavotirlanuvchanligi yuqori bo'lishiga har xil notinch harakatlarning ko'pligi ushbu yurtga qarshi olib borilgan yurishlari ham sabab bo'lgan.

Ushbu aniqlangan qadriyat xususiyatlarining adaptiv mohiyatini biz quyidagicha tushundik. Senzitivlik muhitdan kelayotgan ogohlantiruvchi signallarni idrok qilish qobiliyati bilan bog'liq. Ba'zi bir vaziyatlarda ushbu xususiyat bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega shaxslarda xavf-xatarlardan samaraliroq qutulib qolish imkoniyatiga ega bo'lgani bois ancha katta reproduktiv ustuvorlikni qo'lga kiritishadi. Markaziy Osiyoda bunday yutuq sezitivligi yuqori bo'lganlarda ko'rishimiz mumkin.

Ekstroversiya yoki tashqi olamga yo'nalganlik bosh miya po'stlog'ini stimulyatsiya (qitiqlash) qilish ehtiyoji bilan bog'liq. Ekstrovert insonlar tez zerikib qolishadi. Bundan tashqari ular intensiv stimullarga tez ko'nikma hosil qilishadi. Konformlilik o'smirlarda shakllangan tabiiy muhitda ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq, bunga olib kelgan omillar turlicha bo'lgan: ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar, ta'lim-tarbiya, shaxsiga nisbatan munosabat hissining yuqori darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin.

1. O'smirlarni hayotga moslashganligi (adaptatsiyalashganligi), ekstrovertliligi, emotsional barqaror va nisbatan mustaqil ekanligi bilan ajralib turadi.

2. Kichik o'smirlarning psixologik surati esa boshqacha ko'rinishga ega: u biroz xavotirli, introversiv, senzitiv hamda konformdir.

3. Faqat insonlardagi munosabatlar va insoniy faoliyat tufayligina qadriyat tushunchasining haqiqiy ma'nosini ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong doirasida hamda muvofiq tarzda kishilarning ijtimoiy faoliyati sohasiga tadbiquan tushuntirish va o'rgatish mumkin.

4. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Xalqimizning madaniy va ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir.

5. Har bir xalqning psixologik xususiyatlari milliy xarakterda, qobiliyatlari, dinida, uning ijtimoiy tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelayotgan barqaror xislatlari mavjud bo'ladi. Xalqning ruxiy holati uning milliy madaniyati tilida, ya'ni adabiyot, me'morchiligida, qo'shiq, musiqa, kiyinish va urf-odatlarida aks etadi. Urf-odat ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib kishilar turmushiga singib ketgan, kundalik hayotda uchrab va ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq - atvor qoidalaridir. An'analar esa aniq holatlar uchun emas balki ma'naviy sifatlarni namoyon etishiga qaratilgandir. Millatlar xalqlarning milliy o'ziga xosligi va insonning milliy jihatdan individualligi – bularning bari hozirgi zamonning realliklaridandir. Ular ijtimoiy munosabatlarning shakllantirishiga, ma'lum bir milliy muhitda yashaydigan shaxsning kamolotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Biz yuqoridagi yuritgan fikrlarimizdan ko'rinadiki, millatni millatlar orasidagi obro'-e'tibori o'z tarixini, o'z milliyligini chuqur bilishidir. Milliyligimizning eng asosiy xususiyatlaridan o'z tilimizni o'z dinimizni o'zligimizga qaytarilishidir.

Demak, yoshlarda axborot taxdidlari sharoitida mafkuraviy psixologik immunitetni shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarning rivojlantirish milliy qadriyatlar, urf-odatlar, o'zlikni anglash yoshlarimizda vatan xissi, vatanni sevish, vatan uchun, uning taraqqiyoti, tinchligi uchun fidoiylikni shakllantiradi.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
2. Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь / Гл. ред. И.И.Мазур, А.Н.Чумаков. -М.; СПб.; Нью-Йорк, 2006. S.318
3. Левашов В.К. Общество и глобализация // Социологические исследования. - 2005. - № 4.S.48
4. Dilorom Abdullaevna Salieva, & Karas Orzhanovich Kaziev. (2022). THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 756–760. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2871>
5. O'smirlik davrida bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishida oilaning ta'siri. Салиева Дилором Абдуллаевна, 2019/5/20 Modern scientific challenges and trends
6. O'smirlik davrida bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishida oilaning ta'siri. Салиева Дилором Абдуллаевна, 2019/5/20 Modern scientific challenges and trends

## KURASHCHILARNING MASHG'ULOT VA MUSOBAQA FAOLIYATINI HISOBGA OLGAN HOLDA MASHG'ULOTLAR YUKLAMALARINI TAYYORGARLIK BOSQICHLARI BO'YICHA HAJMI VA SHIDDATINI TAQSIMLASH.

**XUDAYBERGANOV Otabek Erkinovich**

*Urganch davlat Pedagogika institute dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

*Xudayberganov-O@mail.ru*

### **Annotatsiya**

*Maqolada kurash nazariyasi va metodikasining dolzarb muammolaridan biri bo'lgan kurashchilarning yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini ularning trenirovka mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda taqsimlash masalasi o'rganilgan. Shuningdek, kurashchilarning tayyorgarlik jarayonidagi mashg'ulot yuklamalarining hajmi va shiddati me'yorlari asoslab berilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*O'quv mashg'ulotlari, anaerob-aerob, anaerob-alaktat va aerob-gilikolitik yuklamalar, jismoniy tayyorgarlik, mezotsikl (MS), shiddat, musobaqa faoliyati (MF).*

### **Аннотация**

*Статья посвящена одной из актуальных проблем теории и методики борьбы – вопросу распределения тренировочных нагрузок на различных этапах годового цикла подготовки с учетом тренировочной и соревновательной деятельности борцов стиля. Также обоснованы нормы тренировочных нагрузок.*

### **Ключевые слова**

*Учебно-тренировочных занятия, нагрузки анаэробно-аэробной, анаэробно-алактатной и аэробно-гликолитической направленности, физическая подготовленность, мезоцикл (МЦ) интенсивности, соревновательная деятельность (СД).*

### **Annotation**

*The article deals with the study of the state of the problem of freestyle wrestlers' training and explains the essences of reforms and measures undertaken by state in the development of freestyle wrestling. as well as the distribution of training load in the annual training of highly qualified freestyle wrestlers*

### **Key words**

*Training, anaerobic - aerob, physical preparing, activity of competition.*

**Kirish.** Qadimdan ko'plab xalqlarning milliy kurash turlarida hozirgi kurashda qo'llaniladigan usullar bo'lgan Qadimgi Yunonistonda o'tkazilgan Olimpiada o'yinlari dasturiga miloddan avvalgi 708 yildan boshlab kurashga o'xshash kurash musobaqasi kiritilgan. Kurashning zamonaviy qoidalari 19 asrning 2-yarmida Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan. 1894 yilda AQSHning Sent-Luis shahrida ilk bor yirik musobaqa tashkil qilingan. Kurash musobaqalari 1904 yildan zamonaviy Olimpiada o'yinlari dasturidan o'rin olgan. 1912 yilda Xalqaro havaskor kurashchilar assotsiatsiyasi (FINA) tuzilgan, unga 154 davlat (O'zbekiston 1992 yildan) a'zo. Kurash bo'yicha 1951 yildan erkaklar, 1995 yildan ayollar o'rtasida jahon chempionatlari o'tkazib kelinadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda, jismoniy tarbiya va sport dunyoda ustuvorlik kasb etmoqda. O'zbekistonda kurash bilan shug'ullanadigan sportchilarni saralash, o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, musobaqa jarayonini nazorat qilish, psixologik, jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarlikda qo'llaniladigan vosita va usullarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Sport natijalarining jadal o'sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan o'quv-mashg'ulotlarni tashkillashtirishning optimal tizimini izlab topish talabini qo'yimoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan, kelib chiqib, zamonaviy sportda mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining oshib borishi o'quv-mashg'ulotlarini o'tkazishda yangi vositalar va uslublarini izlab topishni taqazo etadi.

Olimlar kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda mashg'ulot yuklamalarini maqsadli rejalashtirish va nazorat qilish orqali ularning nisbatini aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

**Asosiy qism.** Kurashchilarni samarali tayyorlash texnologiyasi o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va boshqarish, jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholash, sport natijalarini oshirish, musobaqa oldi tayyorgarlik va musobaqa faoliyatini nazorat qilish bo'yicha samarali tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kurashchilarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini oqilona taqsimlash asosida kurashchilarning yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarining umumiy hajmi me'yorlari ishlab chiqildi.

1-jadval

**Kurashchilar uchun tayyorgarlik jarayonidagi mashg'ulot  
yuklamalarining umumiy hajmi.**

**I. Tayyorgarlik davrinig maxsus tayyorgarlik bosqichi - 3 oy**

t/r	Bosqich nomi va haftalik MS turi	Yuklama hajmi va shiddati
1.	Kurashchilarning maxsus aerob imkoniyatlarini rivojlantirish	3400-3620 submaksimal
2.	Anaerob-aerob (aralash) yo'nalishdagi rejimda bazaviy texnikani rivojlantirish	3600 submaksimal
3.	Anaerob-alaktat va aerob-glikolitik yo'nalishdagi rejimda bazaviy texnikani rivojlantirish	3780-4000 maksimal
4.	Tiklanish MS (U.R.M. sport o'yinlari, yugurish, suzish va h. q, shuningdek, sust shiddatli zonada bazaviy texnikani rivojlantirish)	1300-1600 o'rta
5.	Ixtisoslashmagan mutlaq kuch imkoniyatlarini rivojlantirish	2600 katta
6.	Umumiy ixtisoslashmagan tezkorlik imkoniyatlarni rivojlantirish	3800 maksimal
7.	Aralash yo'nalishdagi rejimda bazaviy texnikasini rivojlantirish	1650 o'rta
8.	Maxsus kuch imkoniyatlarini rivojlantirish	3750 submaksimal
9.	Maxsus tezkorlik shiddati va MF darajasini rivojlantirish	4000 maksimal
10.	Tiklanish MS (ixtisoslashmagan umumiy mashqlar)	1000 gacha kichik
11.	Kurashchilarning maxsus koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab kombinatsiyalar, taktik tayyorgarlik harakatlari, dasturiy dinamik holatlar va h.k.	2600 katta
12.	Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish va MF darajasini oshirish	4000 gacha maksimal
13.	Tiklanish MS	1650 o'rta
14.	Nazorat MS. TTT va MF darajasini nazorat qilish	4000 gacha maksimal
15.	Umumiy koordinatsiya va bazaviy texnikani rivojlantirish	2600 gacha katta
16.	Maxsus koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish	2600 gacha katta

## II. Musobaqa faoliyati davrining maxsus tayyorgarlik bosqichi. 2-oy

1.	Nazorat va tayyorgarlik MS trenirovka mashg'ulotlari va musobaqa bellashuvlari	3800 maksimal
2.	Yaqinlashtiruvchi MS, shiddatli MF, har xil vazifali o'quv bellashuvlari, oldinda turgan bellashuvlarni modellashtirish	3600 maksimal
3.	Tiklanish MS. Aerob xususiyatli ixtisoslashmagan yuklama	1600 o'rta
4.	Yuqori shiddatli yuklamalar sharoitlarida maxsus koordinatsion qobiliyatlarni takominlashtirish	4000 maksimal
5.	Texnik-taktik mahoratni yanada takominlashtirish. Maxsus kuch imkoniyatlarini rivojlantirish	3600 submaksimal
6.	Maxsus tezkorlik imkoniyatlarini va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish. Hamma mashqlar asosan yuqori tezlikda bajariladi	3700 submaksimal
7.	Tiklanish MS. Aerob xususiyatli yuklamalar	1650 o'rta

## III. Musobaqaga bevosita tayyorgarlik bosqichi. 1-oy

1.	Texnik-taktik mahoratni rivojlantirish, oldinda turgan bellashuvlarni modellashtirish	3750 submaksimal
2.	MF darajasini oshirish. Nazorat, o'quv-mashq bellashuvlari. Oldinda turgan raqibning bellashuvlarini modellashtirish.	4000 maksimal
3.	Tiklanish MS. Ixtisoslashgan yuklama	1000 kichik
4.	Texnik-taktik mahorat, murakkab hujum harakatlari, turli yo'nalish rejimida taktikani takomillashtirish	3750 submaksimal
5.	MF ni rivojlantirish, nazorat o'quv bellashuvlari	4000 maksimal
6.	Musobaqaga yaqinlashganda, yuklamalarni maksimaldan (1 va 2-kun) o'rtagacha (3 va 4-kun) hamda kichikgacha (5 va 6-kun) kamaytirish	3000 submaksimal

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kurashchilarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarining bunday taksimlanishi ularning musobaqadagi natijalarining o'sishiga asos bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni takidlash kerakki, kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarning mas'uliyatli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishlari uchun mashg'ulotlar jarayonlarida optimallashtirilgan mashg'ulot yuklamalaridan foydalanish musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, musobaqa faoliyatlari davrida yuqori natijalarga erishishga imkon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Mirziyoyev Sh. M., Buyuk kelajagimiz mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. 58-69 betlar.
2. Abdullaev Sh. A. Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari. T,2012, B. 48-56.
3. Абдиев Н.А. Борьба (организация восстановительного тренировочного процесса в предсоревновательном этапе). Монография. Т., 1997, С.23-25.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2005 B. 32-48.
5. Пулатов Ф.М., Рузиев М.М., Шарипов А. Оперативное и текущее нормирование нагрузок по величине в борьбе самбо //Педагогик таълим. Т, 2003, С.39-41.
6. Taymuratov Sh.A. Kurashchilarni tayyorlash texnologiyalari. T., Ilm-ziyo, 2010 B. 46-52.

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**KARIMOVA Mahbuba Nutfullayevna**

*Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti,  
"Elektronika va texnologiya" kafedrasida dotsenti.  
misis.makhbuba@mail.ru MK19712022*

### **Annotatsiya**

*Maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar elementlari bo'lgan ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish xususida mulohaza yuritilgan. O'quvchilarning kreativligini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo'lgan xulq-atvorlarini ko'rish mumkin, shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchidagi ijodkorlik fazilatini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko'maklashishi lozim. Har bir o'quvchida ijodkorlikning o'ziga xos fazilatlarining shakllanish darajasini nazorat qilish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida o'quvchilarda tashabbuskorlik, halollik va intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi.*

*Ma'lumki, har bir pedagogik davr o'zining texnologiyalar avlodini yaratgan. Ta'lim texnologiyalarining birinchi avlodi an'anaviy metodikalardan, ikkinchi va uchinchi esa modul-blok hamda yaxlit blok o'qitish tizimi, to'rtinchi avlod integral texnologiyalardan iborat bo'lgan.*

*Noan'anaviy dars shakli asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi borasida ma'lumot keltirilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Texnologiya, dars, interfaol pedagogik texnologiyalar, ta'lim mazmuni, ijodiy qobiliyat, taqdimot, bilish, anglash, baholash.*

### **Аннотация**

*В статье рассматривается использование интерактивных методов обучения с элементами педагогических технологий в формировании творческих способностей учащихся на уроках технологии. В процессе формирования творческих способностей учащихся можно увидеть положительное и отрицательное, простое и сложное поведение учащихся, поэтому задача педагога состоит в том, чтобы глубоко понять качества творчества в каждом ученике и добиться от них действия в повседневной жизни. должно помочь. Основная задача педагога – контролировать уровень сформированности уникальных качеств творчества у каждого ученика. В результате этого у студентов*

формируются такие качества, как инициативность, честность и дисциплинированность.

Известно, что каждая педагогическая эпоха создавала свое поколение технологий. Первое поколение образовательных технологий состояло из традиционных методов, второе и третье поколение состояло из модульно-блочных и интегрированно-блочных систем обучения, четвертое поколение состояло из интегрированных технологий.

Дана информация об образовательной технологии, направленной на формирование творческих способностей учащихся на основе нетрадиционной формы уроков.

#### **Ключевые слова**

*Технология, урок, интерактивные педагогические технологии, учебный контент, творческая способность, представление, знание, понимание, оценка.*

#### **Abstract**

*The article discusses the use of interactive teaching methods with elements of pedagogical technologies in the formation of students' creative abilities in technology lessons. In the process of forming the creative abilities of students, one can see the positive and negative, simple and complex behavior of students, so the task of the teacher is to deeply understand the qualities of creativity in each student and get them to act in everyday life. should help. The main task of the teacher is to control the level of formation of the unique qualities of creativity in each student. As a result, students develop such qualities as initiative, honesty and discipline.*

*It is known that each pedagogical era created its own generation of technologies. The first generation of educational technologies consisted of traditional methods, the second and third generation consisted of modular-block and integrated-block learning systems, the fourth generation consisted of integrated technologies.*

*Information is given about the educational technology aimed at the formation of students' creative abilities on the basis of non-traditional forms of lessons.*

#### **Keywords**

*Technology, lesson, interactive pedagogical technologies, educational content, creativity, presentation, knowledge, understanding, assessment.*

Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangiliklarni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chi-maydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishiga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir.

Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Shunday ekan, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda kasb tanlash izchilligini takomillashtirish bilan bir qatorda mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida ijodkorlik fazilatlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda 1-jadvalda «ijod» so'zining lug'aviy ma'nosi keltirilgan.

1-jadval. «Ijod» so'zining lug'aviy ma'nolari

Ijod; ijodkor; ijodkorlik		
O'zbek tili izohli lug'atida	Falsafa izohli lug'atida	Pedagogik atamalar izohli lug'atida
Ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish: 1. Badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. 2. Yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi	Ijod – insonning yangilik yaratishga qaratilgan konstruktiv faoliyati. Ijod bir necha ko'rinishga ega bo'ladi: ilmiy, badiiy, texnik va boshqalar. Ijod fan, texnika va madaniyatni boyitadi, bilimni rivojlantiradi	Ijod – o'quvchi va talabaning yaratuvchanligi, kashfiyoti; mustaqil yaratuvchanlik
Ijodkor – ijod etuvchi, yuzaga keltiruvchi; yaratilgan narsa egasi		Ijodkor – ijod xususiyatiga ega bo'lgan o'quvchi
Ijodkorlik – ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat, yaratuvchilik		Ijodkorlik – yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalangan faoliyat turi

O'quvchilarning ijodiy faoliyatlari, malakalari badiiy adabiyotlarni idrok etish, san'at asarlari, musiqa, tasviriy san'at, arxitektura, teatr, kino, qo'g'irchoq san'ati, voqelikka estetik munosabatlari, estetik didlarida ko'proq ko'zga tashlanadi va shular orqali o'quvchilarda mehnatda ijodkorlik malakalari hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bularsiz o'quvchilar kreativligini tasavvur qilish qiyin.

O'quvchilarning kreativligini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo'lgan xulq-atvorlarini ko'rish mumkin,

shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchidagi ijodkorlik fazilatini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko'maklashishi lozim.

Har bir o'quvchida ijodkorlikning o'ziga xos fazilatlarining shakllanish darajasini nazorat qilish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida o'quvchilarda tashabbuskorlik, halollik va intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi.

Ma'lumki, har bir pedagogik davr o'zining texnologiyalar avlodini yaratgan. Ta'lim texnologiyalarining birinchi avlodi an'anaviy metodikalardan, ikkinchi va uchinchi esa modul-blok hamda yaxlit blok o'qitish tizimi, to'rtinchi avlod integral texnologiyalardan iborat bo'lgan.

No'anaviy pedagogik texnologiyalarning tatbiq etilishi bugungi kunga kelib ta'lim taraqqiyoti jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu rivojlanayotgan, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, tabaqalashtirish, insoniylashtirishning ko'plab muammolarini hal qilish, o'quvchilarning o'ziga xos ta'lim istiqbolini shakllantirish imkonini beradi.

Barcha texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining anglanganligi, samaradorlik, harakatchanlik, mantiqiylik, yaxlitlik, ochiqlik, loyihalashtirilganlik; o'quvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil faoliyati ta'lim vaqtining 60-90%ini tashkil qilishi; shaxslashtirish kabi umumiy belgilarga xosdir. Ayniqsa, texnologiya darslari orqali o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish va bolaning mehnatga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lashgan.

Hozirgi kundagi olimlarimizdan R.Mavlonova, X.Egamov, I.Choriyev, N.Shodiyev, M.Magdiyev, Sh.Sharipov, N.Muslimov va X.Sanaqulovlar ham o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va uslubiy qo'llanmalarida bu boradagi o'z fikrlarini bayon etganlar.

Texnologiya ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlari, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlar va tafakkur tarzini rivojlantirishga qaratilgan.

Texnologiya ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

- umumiy va badiiy mehnat;
- umumiy texnologiya asoslari.

Boshlang'ich ta'limning 1-4-sinf o'quvchilari qog'oz va kartonni chiziqlar bo'yicha qirqish va bukish hamda shu kabi operatsiyalarni bajarishni o'rganadilar. Ayni paytda ular detallarni turli usullarda biriktirish va mustahkamlashni mashq qiladilar. Gazlama bilan ishlash bolalarning natural ipak va jun tolali materiallar, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini bilishi, namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andoza bichib olish bilan ilk bor tanishtirishni o'z ichiga oladi. Texnik modellash mashg'ulotlarida namuna, rasm va chizmalar, berilgan o'lcham, konstruktor naborining detallari yoki turli materiallarni qo'llab og'zaki tasvirlash bo'yicha texnik o'yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jalik mehnati bo'yicha mashg'ulotlarda 2-sinf o'quvchilari kuzda o'quv tajriba maydonchasida o'stirilgan o'simliklarning urug'larini to'playdilar, o'tgan yil davomida maydonchada qilgan ishlariga yakun yasaydilar, maktab ko'rgazmasi uchun eksponatlarni ajratadilar. Shundan so'ng o'quvchilar o'quv tajriba maydonchasidagi o'zlariga tegishli bo'lgan erni qishga tayyorlaydilar, ya'ni uni o'simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, tabiiy va mineral o'g'itlar soladilar, erni chopadilar. Bu ishlar jarayonida ular shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiladilar.

Kuz oylarida 1-4-sinf o'quvchilari xona o'simliklarini nur va issiqlikka moslab joylashtirish bilan tanishadilar, ularga suvni to'g'ri quyish, tuproqni yumshatish, o'g'itlash, gultuvaklar hamda deraza tokchalarini yuvishni o'rganadilar. Bahorda o'quvchilar o'simliklarning qalamchalarini tayyorlash va ekish, ularni parvarish qilishni o'rganadilar. Shundan so'ng o'quvchilar ildiz olgan qalamchalarni gultuvaklarga ekadilar.

Bahorda 1-4-sinf o'quvchilari bilan ajratilgan erda katta va mas'uliyatli ish olib boriladi. O'quvchilar o'zlariga ajratilgan erni ekinga tayyorlar ekanlar, erni qayta chopadilar, xaskash bilan tekislaydilar. Egat olib, qator oralarini belgilaydilar. Ishning keyingi bosqichi ildizmevalar va bir yillik dekorativ o'simliklarning nomlari bilan tanishish va ularni ekishga tayyorlashdan iborat. O'quvchilar bu o'simliklarning urug'ini sepish va ularni parvarish qilishni o'rganadilar. Bu ish jarayonida o'quvchilar madaniy ekinlar nihollarini begona o'tlardan farqlash, o'simliklarni to'g'ri sug'orish, tagini yumshatish va shu kabilarni o'rganib olishlari kerak bo'ladi.

Tabiiy material bilan ishlash alohida qiziqish uyg'otadi. o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallardan qushlar, jonivorlar, ertak qahramonlarining shakllarini yasaydilar.

4-sinfda texnologiya darslarida o'quvchilar avvalgi sinflarda egallagan malaka va ko'nikmalaridan foydalanib, xilma-xil shakllarni yasaydilar, kengroq doiradagi yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu malaka va ko'nikmalar ularga ishlarida yordam beradi, konstruktorlik, texnik ko'nikma va qobiliyatlar asosini rivojlantiradi, ularning politexnik bilim darajalarini kengaytiradi, o'simliklar hayoti tabiatini muhofaza qilish kabi tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Bu sohaning o'ziga xos muhim xususiyati o'quvchilarning kreativ faolligini rivojlantirishga qaratilganligidir. Bosh maqsad esa o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, keng bilimlarga ega, madaniyatli, ijodkor, tashabbuskor hamda tadbirkor shaxsni rivojlantirish hamda tarbiyalashdan iborat bo'ladi.

O'qituvchi oldiga qo'yilgan maqsadlar, ularni mukamallashtirish o'quv-tarbiya jarayonining alohida bo'g'inlarini qayta yo'naltirish hamda takomillashtirishni talab qiladi. Ya'ni, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy elementlari bo'lgan ta'limning interfaol metodlari (noan'anaviy o'qitish) orqali o'qitish o'quvchilarda ijodiy qobliyatlarini shakllantirishga qulay imkoniyat yaratadi. «Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat?» degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Noan'anaviy o'qitish eng sodda, qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Bilimni oshiradi.
6. Vaqtdan yutiladi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarining diqqat-e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'lishni ta'minlaydi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'quvchiga etkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib etilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi.

Ijodkorlik fazilatini shakllantirishda o'quvchilarning bajarishi lozim bo'lgan vazifalarida quyidagi talablarni inobatga olish lozim:

Bilim olish – asosiy dalillarni qidirish va topish, xotirada saqlay olish, tavsiflash, tanish, qayta jonlantirish, nomini aytish, izlanish, tuzilishini bilish va ko'rsatish kabilar orqali amalga oshadi.

Tushunish – qayta so'zlash, mohiyatini tushunish, tushuntirish, tasvirlash va boshqa usulda hamda boshqa so'zlar bilan ta'riflay olish natijasida erishiladi.

Ishlatish (qo'llash) – olingan bilimni boshqa sharoitlarda qo'llash (ishlatish, echish, tajriba o'tkazish, qo'llash, kuzatish, oldindan bashorat qilish, biror-bir muammoni hal qilish)ni o'z ichiga qamrab oladi.

Tahlil (analiz) – tushunchalar orasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash va ularning mohiyatini tushunish – soha materialini (bilim, hodisa, mashina, ma'lumot) tashkil etuvchilarga (tarkibiy qismlarga) bo'lib chiqish va ularning har birining vazifasini tushunib olish. Oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga yo'nalishida tahlil qila olish (qismlar orasidagi munosabatlarni aniqlash, bir-biriga ulash, birlashtirish, bo'lib chiqish, turkumlarga ajratish, guruhlarga ajratish, umumiy qonuniyatlarni topish, toifalarga bo'lib chiqish).

Sintez – yangi narsani (bilim, predmet, mashinani) uning bir qancha qismlaridan (bo'laklaridan) ularning xossalaridan foydalangan holda tashkil qilish (tuzish, konstruksiya yig'ish, kombinatsiyalash, yangi fikr yaratish, yangi farazlarni taklif qilish), ularni sinashni amalga oshirish va natija asosida yangilarini mavjudlariga raqobatchi sifatida ishlab chiqish.

Baholash – erishilgan natijani aniqlash, qaror qabul qilish yoki echim topish (baholash jarayonini amalga oshirish, hal qilish, sabab va oqibat zanjiridagi aloqalarni aniqlash, toifalarga bo'lish va ularni aniqlash).

Xulosa qilib aytganda, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi fazilatlarini shakllantirish, o'quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o'z-o'zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida topish, o'z-o'ziga talabchan bo'lish, maqsadga intilish kabi xislatlarning namoyon bo'lishi ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarning noan'anaviy darslarda mustaqil fikrlashiga ustuvor e'tibor qaratish o'quvchining o'zini-o'zi tarbiyalashiga, o'z shaxsida ezgu

ma'naviy sifatlarni shakllantirishiga omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi o'qituvchilar, kattalar va darsliklar ko'magida o'zini-o'zi tarbiyalaydi.

Noan'anaviy darslarda mustaqil fikrlashga o'rgatish, umuman, pedagogika, xususan, adabiy ta'limning bosh maqsadi bo'lmish ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo'ladi. O'z fikri, o'z qarashiga ega bo'lish komil shaxslikning muhim belgisi hisoblanadi.

Darslarda o'quvchi shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, ma'naviyatni shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, bilim olish va tarbiyaga ega bo'lish uchun bolaning o'zini harakatga undash, unga kashf etish lazzatini uqdirish, darslarda pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish kabi tamoyillar ustuvorligiga erishish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Расулова З.Д. Каримова М.Н. (2020) Использование учебных инструментов в развитии творческого мышления учащихся Проблемы педагогики Научно-методический журнал 50 №5, стр.20.

2. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н., Давлаткулова М. Х. (2014) Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый №8, стр.804-807.

3. Каримова М.Н. (2016) Метод самоуправления образованием. Молодой ученый №13, стр. 808-810.

4. Каримова М.Н. (2012) О современных методах оценки знаний и умений учащихся колледжей в личностно-ориентированной технологии обучения. Молодой ученый №7, стр.277-281.

5. Каримова М. Н. (2019) Проблемы и перспективы преподавания предмета "Технология" в общеобразовательных школах. Вестник науки и образования №2-2, (56), стр.17-19.

6. Кулиева Ш.Х, Каримова М.Н (2015) Использование современных дидактических средств в обучении специальных предметов. Педагогические науки №1, стр.84-88.

7. Каримова М.Н. (2016) Методы образования, ориентированные на деятельность и самостоятельное действие при обучении специальным предметам. Молодой ученый №13, стр. 810-812.

8. Karimova M.N (2017) Manufacture of Modern Sewing and Knitting Products, Used by Mass Demand. Eastern European Scientific Journal №3 стр.71-73.

**HOFIZ TANISH BUXORIYNING “ABDULLANOMA” ASARINI  
KENG ILMIY JAMOATCHILIKKA YETKAZISHDA AKADEMIK  
BO‘RIBOY AHMEDOVNING TUTGAN O‘RNI**

**RAJABOV San‘atjon Sunnatovich**

*Buxoro davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash,  
ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i,  
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi  
lawyear@mail.ru  
+998 90 299 45-15*

**Аннотация**

*Ushbu maqolada Buxoroning XVI asr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti tarixini yorituvchi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asarini keng ilmiy jamoatchilikka etkazishda tarixshunos olim Bo‘riboy Ahmedov ilmiy xizmatlari haqida so‘z yuritilgan.*

**Калит so‘zlar:**

*Buxoro tarixi, Bo‘riboy Ahmedov, tarjima, ijtimoiy-siyosiy ahvol, Abdullanoma, Sharafnomayi-shohiy, Hofiz Tanish Buxoriy.*

**Аннотация**

*В данной статье говорится о научных заслугах историка Борибоя Ахмедова в доведении труда «Абдуллонома» («Шарафномаи Шахи») Хафиза Таниша Бухари, освещающего историю общественно-политической и культурной жизни Бухары XVI века, до общего научного сообщества.*

**Ключевые слова**

*История Бухары, Борибой Ахмедов, перевод, общественно-политическое положение, Абдуллонома, Шарафномаи-шахи, Хафиз Таниш Бухари.*

**Abstract**

*This article talks about the scientific merits of the historian Boriboy Akhmedov in bringing the work “Abdullanoma” (“Sharafnomayi Shahi”) by Hafiz Tanish Bukhari, covering the history of the socio-political and cultural life of Bukhara in the 16th century, to the general scientific community.*

**Key words**

*History of Bukhara, Boriboy Akhmedov, translation, social and political situation, Abdullanom, Sharafnomayi-shahi, Hafiz Tanish Bukhari.*

**Kirish (Introduction).** Buxoro tarixinining muhim manbalaridan biri Hofiz Tanish Buxoriy qalamiga mansub “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asaridir. Mazkur asar nafaqat Buxoro balki, O‘rta Osiyo xalqlarining shayboniylar hukmronligi davri ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini

o'rganishda alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Asarning aniq faktlarga boyligi va unda tarixiy voqealarning keng yoritilganligi bilan o'sha davr birlamchi manbalaridan ajralib turadi.

**Asosiy qism.** Ingliz sharqshunosi K.Styuart "Abdullanoma"ning Tipu Sulton kutubxonasi (Maysur, Hindiston)da saqlanayotgan nusxasi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni keltirib o'tgan[3:10].

I.I.Umnyakovning fikriga ko'ra "Abdullanoma" XX asr boshlarida L.A.Zimin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va qisman 1918 yili Toshkentda nashr etilgan. I.I. Umnyakov L.A. Ziminning tarjimasini "Abdullanoma"ning uchta nusxasi va o'sha davrga oid boshqa qo'lyozmalar xususan, Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror fi-manoqib ul-ahyor" nomli asariga qiyosiy solishtirish asosida bajarilganligini aytib o'tgan [2:317].

Sharqshunos olim V.V. Bartold ham 1924 yilda Bokuda bo'lgan ilmiy anjumanda L.A. Zimin tarjimasini va "Abdullanoma" haqidagi materiallarni to'plab nashr qilish zurligini ta'kidlagan[2:319-320].

Sankt-Peterburglik sharqshunos M.A. Salohiddinova asarning rus tilidagi nashri ustida katta ish olib borib, birinchi va ikkinchi jildlarini (Moskva. 1983,1989) chop ettirgan. Ko'pgina olimlarning asar tarjimasini bo'yicha jiddiy mehnat qilganliklariga qaramasdan asarning faqatgina to'rttdan bir qismi o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan va asar nashri nihoyasiga etmay qolgan.

"Abdullanoma"ning batafsil tarjimasini Sodiq Mirzaev tomonidan 1944 yildan boshlab O'zbekiston FA sharqshunoslik institutining kutubxonasidagi 2207 raqam bilan saqlanayotgan nusxa asosida amalga oshirilgan. B. Ahmedov asrning tarjimasini yakuniga etkazish ishiga kirishganida S.Mirzaev tarjimasida ayrim kamchiliklar mavjudligini aytib o'tgan. Jumladan, B. Ahmedov asarning S.Mirzaev tarjima nusxasida 1584-1588 yillar voqealari mavjud emasligini tanqidga olgan.

B.Ahmedov Yunusjon Hakimjonovning ko'magida "Abdullanoma"ning Sankt-Peterburg va Bokuda saqlanayotgan nusxalari (D-88 va 446) asosida tarjima qilib, kamchiliklarni to'ldirilishiga erishganligini ta'kidlab o'tgan[4:140].

Abdullanomaning mukammal tarjima qilinishida Bo'riboy Ahmedovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning Sodiq Mirzaev, Yunusjon Hakimjonov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan nusxasini nashrga tayyorlash, so'zboshi, shuningdek, tarixiy, jug'rofiy atamalar va ayrim hodisalarga sharh yozishda Bo'riboy Ahmedov ilmiy metodologiyasi bugungi kunda ham o'z kuchini saqlab kelmoqda.

"Abdullanoma"ning ikkala tarjimoniga ham asarning mustaqillik yillarida Bo'riboy Ahmedov tomonidan amalga oshirilgan to'liq nashrini ko'rish nasib etmagan bo'lsa-da, ushbu nashr orqali ularning xizmatlari

xalqimizning ilmiy-ma'rifiy mulkiga aylandi va tarjimonlarning nomlari tarix sahifalariga qayta muhrlandi. Asarining o'zbek tiliga tarjima qilingan birinchi jildi fors tilidan Sodiq Mirzaev tarjimasida Bo'riboy Ahmedovning ilmiy muharrirligi va so'zboshi, shuningdek, tarixiy, jug'rofiy atamalar va ayrim hodisalarga 2000 dan ortiq sharhlar bilan 1999 yilda, ikkinchi jildi fors tilidan Sodiq Mirzaev va Yunusjon Hakimjonov tarjimalari asosida 2000 yilda ushbu tarixiy asarni shartli ravishda ikki jildda to'rt qismda "Sharq" nashriyotida chop etilib, keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. "Abdullanoma"ning mazkur ikki jildlik nashri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Xalqaro Amir Temur xayriya jamg'armasi hamkorligida qayta nashrga tayyorlangan. B. Ahmedov "Abdullanoma" asariga yozilgan so'zboshi qismida asar to'g'risida batafsil ma'mumotlarni keltirib o'tgan[5:3]. Umumun olganda asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada Abdullaxonning naslu nasabi, uning o'sha zamonning yirik ruxoniylaridan xoja Muhammad Islomga muridligi, Chingizxon, Jo'jixon, Muhammad Shayboniyxon haqida, shuningdek Movarounnahrning XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida qisqa ma'lumot keltirilgan. Asarning birinchi qismi Movarounnahr, Janubiy Turkiston (hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismi) va Xurosonda 1557- 1583 yillar orasida bo'lib o'tgan voqealar, ya'ni Abdullaxon II ning taxtga o'tirishi va pul zarb ettirishigacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga olgan. Ikkinchi qism 1583- 1588 yillar, ya'ni Abdullaxon II ning taxtga o'tirishidan to Hirotning uzoq muddat davom etgan qamaldan so'ng shayboniylar qo'shini tarafidan fath etilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

B.Ahmedovning Buxoro tarixi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda, asarda tarixiy voqealar bilan bir qatorda Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniy hayoti, Shayboniylar davlati va qo'shinining tuzilishi, Buxoro xonligining Eron, Turkiya, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Rossiya davlatlari bilan olib borgan siyosiy va savdo aloqalari bayon etilganligini kengroq anglash mumkin. Asarda mamlakat poytaxti Buxoro bilan bog'liq faktik ma'lumotlarni uchratamiz. Jumladan, XVI asrda fan va madaniyat ravnaq topgani, Buxoro shahri atrofida (6 – 7 km masofada bo'lgan) Sumiton (Jo'ybor) qishlog'i shaharga qo'shib olinib, uning janubiy-g'arbiy tomondan devor bilan o'rab olingani, Jo'ybor xojalarning bobokaloni Abu bakr Sa'd maqbarasi atrofida masjid, madrasa va xonaqoh bino qilinib, Buxoroning obod bo'lishi qariyb o'n yil davom etgani xususida qimmatli ma'lumotlar eltirilgan[1:389].

Sumitonda qurilgan madrasa va boshqa binolar xususida, Hofiz Tanish Buxoriy mana bularni yozadi: "To'g'risi, (u) shunday (bir) oliy bino bo'ldiki,

andisha muhandisi hech qanday mubolag'asiz va lofsiz u baland binoning suratini chizishdan, tabiat naqqoshi bu keng mavzularni tafsiflashdan o'zlik qiladi. Bundan tashqari, Abdullaxon II davrida faqat Buxoroning o'zida Abdullaxon, Gavkashon, Fatxulla qushbegi, Xoja Muhammad Porso madrasalari, yangi Chorsu (1570 yili), Karmana yaqinidagi Zarafshon ustiga ko'priki (1582 yili), qurildi. "Abdullaxon timi" nomi bilan dong'i ketgan usti yopiq bozor esa nafaqat Movarounnahrda, balki butun jahonda mashhur bo'ldi. Karvon yo'llari ustida ko'priklar, sardobalar qurildi hamda daryo o'zanlaridan yangitdan kanallar qazilib qishloq va shaharlarning suv ta'minoti yaxshilandi"[1:389]. Bu kabi ma'lumotlarning tarjima natijasida batafsil kelirilishi asarning ilmiy manbaviy qiymatini oshiradi.

Asarda xonlik shaharlari (asosan poytaxt Buxoroda) ilm-fan, adabiyot va kitob san'ati ham rivojlanganligi to'g'risida, Buxoroda yashab ijod etgan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish Oxund, Qozi Poyanda Zominiy, mulla Amir Muhammad Amin Zohid, mavlono Abdulhakim kabi ko'plab ilohiyot olimlari, tabiblar va shoirlar haqida o'ziga xos naqqoshlik va xattotlik maktabi shakllangani bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro xonligining XVI asrda Eron, Hindiston, Turkiya, Koshg'ar va Rossiya mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy, elchilik va madaniy aloqalari bo'yicha bir qator ilm-fan uchun o'ta muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar orasida Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi 1572 – 1573, 1577, 1578, 1586 yillari elchilik almashinuvi, 1583 yili Buxoro elchisining Moskvadan qaytib kelishi, 1584 yili Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston, Xorazm va Eron elchilarining Buxoroga kelishi, turkiyalik mergan o'qchilarning shayboniylar qo'shinida xizmat qilishi, Buxorodagi hind savdo uyushmasi to'g'risidagi ma'lumotlar Buxoro xonligi tashqi siyosatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Abdullanoma"da Shayboniylar xususan, Abdullaxon II ning mamlakatni boshqarishda diniy ulamolar (Jo'ybor shayxlari) ko'magi va qo'llab-quvvatlashiga suyanganligi yaqqol ko'rsatilgan. Buxoro xonligi hududida istiqomat qilgan turli millat va qavmlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda muhim o'rin tutsa, saroydagi hadya va tortiq qilish tartibi, aholi orasida amalda bo'lgan urf-odatlar to'g'risidagi qiziq ma'lumotlar har bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Biz asarning mazmuniga batafsil to'xtab o'tirmaymiz, voqealarning ayrim va eng muhimlarinigina bayon etamiz. XVI asrning birinchi yarmidan boshlab Movarounnahrda feodal tarqoqlik va ichki ziddiyat nihoyat avj oldi. Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540–1550), Samarqandda esa Ko'chkinchixonning uchinchi o'g'li Abdullatif hokimiyatni qo'lga oldi. Shu

yillari Shayboniy sultonlar va feodallarning toju taxt uchun talashishlari shu qadar kuchaydiki, na Abdulaziz va na Abdullatif kun sayin O'sib borayotgan feodal tarqoqlikning oldini olishga va feodallarning boshboshdoqlik harakatiga barham berishga qodir bo'lolmay qoldilar. Abdullazizxon 1550 yili vafot etdi. Lekin uning o'ringa xon qilib ko'tarilgan Muhammadyor sulton hokimiyatni qo'lda tutib qololmadi. O'sha yiliyoq Buxoro taxtini Pirmuhammadxon egalladi. Lekin uning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Oradan bir yil chamasi o'tgach, 1551 yili Toshkent hokimi Baroqxon va Samarqand hokimi Abdullatifxon ittifoqlashib, Buxoro taxtini egallash uchun qo'shin tortdilar. Shu kunlari Miyonkol viloyatida turgan Rustamxon o'z o'g'li O'zbekxon bilan Buxoroga, Iskandar sulton bo'lsa Karmanani tashlab ketdi. Pirmuhammadxon bo'lsa Buxoroni Muhammadyor sultonga topshirib, Balxga qaytdi. Pirmuhammadxon bilan Abdullaxon o'rtasidagi ziddiyat kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu nizo Buxoro olingandan keyin (1557) kimni xon qilib ko'tarish masalasida yana chukurlashdi. Ma'lumki, shu vaqtga qadar Shayboniylar o'rtasidagi qoidaga binoan shu xonadondan bo'lgan sultonlar ichida yoshi ulug'i xon ko'tarilardi. Abdullaxon Pirmuhammadxonning taklifiga binoan, unga Movarounnahrni topshirishga, o'zi esa Balxga hokim bo'lishga rozi bo'lgan va 6u haqda har ikki o'rtada ahdnoma ham imzolangan edi. Lekin Pirmuhammadxon o'z ahdida turmadi. Shundan keyin Abdullaxon o'z otasini Miyonkoldan Buxoroga olib keldi va uni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e'lon qildi. Hofiz Tanish o'z asarida XVI asrning ikkinchi yarmida Boburiylar imperiyasi (Hindiston) bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, shuningdek, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni ham keltirgan. O'sha vaqtlarda Movarounnahr (Abdullaxon) bilan Boburiylarning podshohi Akbar (1556—1605) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar zaminida, asosan, Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun kurash yotadi. Abdullaxon o'sha yillari Balx va Badaxshonni o'z qo'liga kiritib, Kobulga ham taxdid qila boshladi. Akbar esa 1583 yilda Sindni va 1586 yilda Kashmirni bosib olib o'zbeklar davlatining janubiy chegaralariga yaqinlashdi. Keyinchalik, Abdullaxon Akbarshoh bilan bitim tuzib ichki feodal urush-janjallar va Turkiya bilan to'xtovsiz olib borilgan urush tufayli kuchsizlanib qolgan Eronni o'zaro taqsimlab olishga intildi. Akbar esa Balx va Badaxshonni, qo'l kelsa, Xuroson va Movarounnahrni ham o'ziga qaratish niyatida edi. XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari haqida "Sharafnomayi shohiy" da faqat Abdullaxon tomonidan Moskvaga yuborilgan elchilarning 1583-yili qaytib kelganliklari va ularning Moskvadan tuyalarga juda ko'p o'qdori, ov qushlari va boshqa matolar ortib keltirganliklari hikoya

qilinadi. Mashhur rus tarixchisi S.V. Jukovskiy Buxoro elchilarining 1589-1595 yillarda ham Moskvaga borganliklarini qayd qilgan. Akademik V.V. Bartold bu elchilarning asosan ov ashyolari — miltiq, qo'rg'oshin, o'q-dori va ov kushlari (shunqorlar) keltirish uchun yuborilganligini ta'kidlaydi.

Asarda Shayboniylar qo'shinining tuzilishi haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: XVI asrda o'zbeklarning qo'shini Chingizxon va Temur davridagi jangovar tartibni saqlab qolgan, ya'ni Hofiz Tanishning so'zlari bilan aytganda, ota-bobolarning borasi, to'rasi va yasoqlariga amal qilgan holda tuzilgan. O'zbeklarning qo'shini ham asosan maymana (o'ng qanot), maysara (so'l qanot), qalb yoki g'ul (markaz)dan tashkil topgan. Qo'shinning oldida yarovul (avanpost yoki kichik razvedka otryadi), qorovul (qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus bo'linma) turgan. O'z navbatida flanglarning ham ma'lum qanotlari (chanoh) va avangardlari bo'lgan. Markaz (qalb, g'ul) deb atalgan, lekin, asosan, ehtiyot (rezerv) vazifasini o'tagan qism butun qo'shinning uchdan bir qismini tashkil etgan va unga xon yoki sultonlardan, amirlardan biri boshchilik qilgan. Markaz ham bir necha saf (markaz)dan iborat bo'lib, oldingi safda turuvchilar bayroqdor jangchilar (tug'chi) deb atalgan. Bayroq yonida turuvchi qismga ham sultonlardan biri bosh qilib tayinlanar edi. Masalan, 1554-1555 yili Farab yonida bo'lgan jangda Abdullaxonning bayroqdor qismlariga Do'stim sulton boshchilik qilgan. Hofiz Tanish bayroqdor qismning umumiy sonini ham keltiradi. Masalan, 1556-1557-yili Ilono'tti mavzeida Abdullaxon bilan Toshkent hokimi Darvishxon o'rtasida bo'lgan jang tafsili hikoya qilingan joyda Darvishxon qo'shinining bayroqdor qismi 30 ming kishidan iborat bo'lganligi aytiladi. Urush maydonini belgilashga ham alohida e'tibor berilgan. Buning uchun, albatta, suv va boshqa tabiiy qulayliklar bo'lishi shart bo'lgan. Jang maydonini tanlash va u erda qo'shinni o'rni-o'rniga joylashtirish tovochi deb atalgan amirlar zimmasiga yuklatilgan. O'zbeklarning qo'shini ham Chingizxon va Temur qo'shini singari ko'p sonli dushman qismlariga alohida-alohida hujum qilish taktikasini qo'llagan. Hofiz Tanish o'z asarida XVI asrning ikkinchi yarmida Boburiylar imperiyasi (Hindiston) bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, shuningdek, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni ham keltirgan. Hofiz Tanish o'z asarida yuqorida bayon qilingan tarixiy voqealarni, ya'ni Movarounnahrning XVI asrdagi siyosiy ahvolini batafsil yoritib berdi.

**Xulosa.** Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" asarining akademik B. Ahmedov tomonidan o'zbek tilida yaxlit holda nashr etilishi, asarni xalqimizning ilmiy-ma'rifiy mulkiga aylantirdi va tarjimonlarning nomlarini tarix sahifalariga qayta muhrladi. B. Ahmedovning tarjima va sharh

berish borasidagi metodologiyasi bugungi kunda ham tarixiy asarlarni tahlil etishda xususan, Buxoro tarixiga doir manbalarni keng va chuqurroq o'rganishda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. "O'qituvchi". T. 1994.
2. Stewart Ch. A. Descriptive Catalogue of the Oriental Library of the Late Tippoo Sultan of Mysore. Cambridge, 1809. N XXVII, p. 10.
3. Умняков.И. "Абдулла-наме" Хафиз-и Таны-ша и ее исследователи, стр. 317
4. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Fan. T. 1997. 9-10-11-son. 140-b
5. Hofiz tanish al-Buxoriy "Abdullanoma". "Sharq". T. 1999. 3-b.
6. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.

## ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT “ME-CONCEPT” AND ITS CRITERIA.

**BAKHROMOVA Anzura Akram qizi**

*Tashkent Institute of Chemistry and Technology*

*Teacher of Shahrissabz branch, Uzbekistan.*

*bahromovaanzura@gmail.com*

### **Abstract**

*In this article, the use of various pedagogical technologies in the teaching of physics can be used to repeat the previous topic and provide more information about the new topic. Also, various pedagogical technologies help students to think, think logically, find solutions to problems faster, imagine the topics to be covered, and develop their creative abilities.*

### **Enter**

*It is very effective to use different methods in teaching physics. Physics deals with laws, regularities, formulas, physical quantities and constant numerical values. Graphs are also used in problem solving. Since this subject is comprehensive, if the Frame method is used correctly, students will master the topics quickly and easily. It is important to determine the physical quantities in the process of working on the problem, to put them correctly in the formula. Also, we can quickly and easily see whether the physical quantities are related correctly or inversely using the frame method, by extracting the unit of the physical quantity. In addition, the use of "Domino", "Brainstorming", "Kahoot" and "Mystery Box" games will increase students' interest in science and help them learn it easily. The use of various pedagogical technologies is one of the most extensive ways of organizing the educational process.*

### **Results and discussion**

*As a result of the use of pedagogical technologies in the lessons, the lesson will be understandable and interesting, and the students' opportunities to understand the previous topics or new topics will increase. Students' logical thinking, group work, agility and speed skills develop.*

### **Summary**

*Physics is also a very difficult subject for many students. In order to master this subject well, they must first master mathematics well. Many students think that they do not understand this subject and cannot solve problems. If the physics teacher has enough knowledge, and connects it to phenomena in nature, our life, and uses different frame methods, methods like "Domino", "Brainstorming" and "Kahoot" games, the lesson will be improved. can achieve desired results.*

### *Keywords*

*Physics, frame method, scheme, structure, concepts, laws, physical quantities, size, unit of measurement, algorithm, section, problem, creative ability, logical thinking, correct proportion, inversely proportional, environment, brainstorming, kahoot, domino, pedagogical technology, mystery box interactive games, theory.*

**Enter.** Currently, it is very effective to organize lessons using various pedagogical technologies. If classes are organized using modern pedagogical technologies and new interactive methods, they will acquire a high level of knowledge, skills and abilities. Many students of physics set a limit to themselves, saying that it is very difficult, they do not understand, they cannot work on the problem. In fact, this science is always in our daily life, we encounter physical laws and devices that work with the help of physical laws. Physics, like other natural sciences, studies the objective properties of the material existence that surrounds us. Lessons can be organized in traditional and non-traditional ways. In a traditional lesson, more teachers participate. In non-traditional, the students are in the main role, and the teacher only gives directions. There are many advantages of non-traditional classes.

If we take physics, it is taught in three parts in higher education. Lecture, practical training and laboratory training. Only the teacher plays the main role in the lecture. In the laboratory, students conduct a laboratory on the subject individually or in small groups. In the practical training, they work on problems according to the topic. If we look at one topic, the lecture, practical and laboratory exercises complement each other, that is, if the lecture deals with the subject of the "Laws of Oscillatory Motion" related to the mechanical department of physics, the practical exercise In this section, issues related to the "Laws of Vibrational Motion" are discussed. In the laboratory, they perform a laboratory on "Determining the acceleration of free fall using a mathematical pendulum." So the students listen, work on the problems, and strengthen each subject by seeing with their own eyes. [1] It is possible to provide more information on the subject and ensure that students participate in the lesson more actively if practical training is organized with various games. It is also possible to divide the group into small groups or two groups and teach students to work as a team. If various pedagogical technologies are used, students' interest in science will increase, they will learn to think independently and make quick and correct decisions at the right time. When using pedagogical technologies, we should also take into account that they are suitable for the topic, that is, we should choose the technology correctly. We should divide the

subject into parts and pay attention to which part of the method will be effective.[2]

Since physics occupies a special place among natural sciences, we can say that it forms the foundation of all natural sciences. Because physics has made and continues to contribute to the achievements of all natural sciences. As an example, we can show physical chemistry, chemical physics, biophysics, astrophysics, geophysics and other sciences. It's no secret that today the role of physics in medicine is incomparable, because its contribution began with X-rays, and today it continues with the use of ultrasound and lasers, as well as computer tomography. It is also contributing to save humanity from the energy crisis through the use of physics, atomic and nuclear energy. [3]

In our country, many scientists have conducted research on the improvement of physics and its teaching methods and non-traditional teaching methods. Dzhorayev M, Mamadazimov M, Begimkulov U.Sh, Mirzakhmedov B.M, Baydadayev A, Ganiyev A.G, Abdurakhmanov Q.P, Khamidov V.S, Akhmedov N.A, Ismailov M, Khabibulayev P, Khaliulin M, Rakhmatullayev M and many others. scientists are making a great contribution. [4]

The process of globalization, covering the entire world, has a direct impact on human consciousness and thinking. Today, all the technologies that are created to improve and facilitate our lives make people spend less energy, both mentally and physically, and as a result, they have a negative effect on young children and students. A clear example of this is the fact that students prefer virtual games to physical and mental games. It is necessary to use modern pedagogical methods that increase students' consciousness, sharpen their minds, develop creativity, improve their thinking, and teach them to think independently. should educate and show students' abilities.

In the process of reading, the student often solves many logical problems through his imagination, as a result of which the students' thinking ability begins to grow. In mastering any concept, they rely on their figurative thinking. Therefore, it is important to enrich their imagination, the world of imagination, and to form the ability to create creativity. During the lesson, both the teacher and the student often rely on figurative thinking. It is important to note that the student has previously seen the studied object (it can be a car, a body participating in some movement, or a person, metal, a detail, a formula, celestial bodies). must For this reason, it is important to use creative methods in the organization of the educational process in order to create a visual imagination in students.[5]

Frame method. Frame – (English framework - karkas) a standard situation or structure for representing square stereotypical situations.

This frame method is a frame, frame and matrix structure based on the main idea of the educational material, which is included in many topics and sections in a schematic or graphic form and therefore has universal and stereotypical characteristics. Frame schemes feature next-generation high-level generalization support. The frame scheme has great power, because its construction principle is a stereotypical algorithm. Their number gives priority to other types of support to be considered in other units.


The essence of the approach to the organization of information is the semantic compression of the educational material. The peculiarity of semantic compression is that it includes two processes at the same time: direct cutting of information and representation of the extracted information in the form of symbols. The need to learn information reduction is not agreed by anyone today, and it is not disputed, because its teaching potential in the teaching methodology is very high and has not yet reached the limit. Its complexity lies in the fact that the process of destroying information in the format of one frame is, first of all, a high level of understanding of the main content of the text, secondly, taking the abstract form of the presentation, and thirdly, symbols and schemes of compressed information.

The Frame method algorithm includes data collected in the form of symbols or shapes, the student can express physical formulas and theorems as Frame algorithm symbols or shapes and solve physical problems at an interesting level. Using such a method, teachers make students only the most primitive level of thinking - reproductive creation - without understanding the original content (paragraph of the textbook) as clearly as possible. Experiments show that an effective way to work with a book is to organize knowledge using a square-based approach.

Thus, theory is singled out as the main biggest "piece" of care. Then the elements of the theory are followed. The first element of the theory is the scientific concepts that are the basis of the theory. The second element of the theory is the basic laws that make up the main part of the theory. The third part of the theory is the practical application of laws. With the detailed structure of educational materials, events and processes can be identified as structural elements, hypotheses, material structural elements, postulates, rules, tools, machines and equipment, tasks and practical application of laws. All the knowledge in the textbook is mixed, so the learning material is perceived as "ribs" and is not stored in memory. Therefore, as semantic elements of the studied information structure, he selects specific semantic units of the text that correspond to the subjects and their descriptions. The author should adapt to the formation of educational materials with students. Usually, a topic, chapter,


section or the entire textbook is compiled from the materials. Students are invited to write the phenomenon in separate columns in the notebook.

**1. The main function of the frame**




**1-drawing**

**2. Schematic structure of the frame.**




The simplest frame model or a scheme that fully reflects its part is presented in 1-drawing. In the form of a scheme, the algorithmic character is stereotyped.



2-drawing

Frame structure of educational material.



3-drawing

□ Here △ , ◇ , ○ , - Determination of physical quantities.[6]

**Brainstorming** is a method that encourages students to think broadly and comprehensively about the topic, to use their imaginations and ideas in a positive way. In training organized with the help of brainstorming, there is an opportunity to find several original (unique) solutions to arbitrary problems.

This method can be used with students individually or by dividing the group into two or more groups. Students will be asked several questions. The answer to the given question can be one or several. A sample for one question. This question can be answered as follows. All three answers are correct. Because the pressure measuring device is asking.

4-drawing

What is a pressure measuring device?	Barometer – Measures atmospheric pressure.
	Manometer - measures the difference from atmospheric pressure, i.e. greater or less than atmospheric pressure.
	Aneroid barometer - measures the pressure in spaceships.

**Domino technology** is highly effective if it is used in all disciplines, not just physics. Because there is both a question and an answer in this case, only in the situation where the place is changed. Students will find the correct answer to the questions. This can be done individually or in two or more small groups. You are given a certain amount of time to complete the questions depending on the number, difficulty or ease level. The teacher evaluates according to the number of correct answers given to the questions.

The main purpose of using this technology is to reinforce a new subject or a previously learned subject. Find answers to questions about the department of optics.


1. What is a transparent body bounded by a spherical surface on one or two sides called?	Optics
2. Microscope, Telescope Camera, Binocular Camera, spectroscope.	From diffraction gratings
3. The branch of physics that studies the laws of radiation, absorption and scattering of light.	Lens
4. As a result of the joining of two or more coherent light waves, the redistribution of the light flux in space leads to minimum intensities in some places and maximum intensities in other places.	Coherent waves
5. What is used to observe diffraction phenomena.	Optical instruments
6. Waves with the same frequency and constant spatial difference.	Interference

### 5-drawing

**Kahoot!** is a new pedagogical technology that is spreading today and can be used in all areas and for all subjects. The game condition is as follows. For this, you need a video projector, a TV or a board with a modern internet connection and a notebook. The questions appear on the board one by one. Every student must have a phone. Everyone enters with their own name or any name they like. In this game, it is important to be quick and find the right answer as soon as possible. Points are collected for correct answers to each question. The first and correct student gets a higher score. In the next ones, the score will decrease. At the end of the game, the score and place of the three students with

the highest scores will be shown. It is very interesting and very useful in strengthening all subjects.

First of all, you need a phone or a notebook to create Kahoot questions. We can download the Kahoot! application from the Play Market.



Create and play learning games at school, at home or at work!

### 6-drawing

After downloading, click open. If you are a teacher, you choose the teacher, and if you are a student, you choose the student in this order.




What type of account would you like to create?



### 7-drawing

If you enter the teacher, the following will appear. You can choose the one that suits you.



**8-drawing**

Questions can be made in different ways. In this case, the background behind the questions will also match depending on which season it is until you create the question.

Test knowledge - in this section, you can create questions through the following.

Quiz-it can be a question that is easy to make and takes less time to find the answer or spends more time thinking, if a question is made on this item 5 s, 10 s, 20 s, 30 s, 60 s to find the answer, You can choose between 90 s, 120 s, 240 s. You can find the answer to a question by placing a picture of a physicist or by placing a picture related to science. Questions can also be made using videos and audios. The answer will be three, where the correct answer will be the same as the four shapes and colors seen above, the answer to the question will be correct in one, two or all answers depending on the question. it is also possible. The answer is correct whether the student marks one or both. The answer can be determined ahead of time. Answers will not be accepted after the deadline.

Puzzle is a question that makes the student think. You can put a physics question as a question and specify the answers. Time from 20 s to 240 s is allocated for this. Marking the answers and all other conditions will be the same as in the Quiz. The difference is the time it takes to find the answer. The minimum time is set to 20 s.

True or False - In this case, by writing a rule, formula or the movement of an object to the question, it is found whether the information in the question is true or false. There will be two answers instead of four. In questions made using this clause, it is important to focus on the question. Although the question seems correct, there may be an elementary error. The question is set to True if the rule, formula or movement of an object is correct, and False if it is incorrect. There is only one answer. If this method is used correctly, it will be effective.

In the Slider, Type answer, Quiz+Audio sections, the same questions as above are created. In some cases, it is necessary to write the answer. It is also important to write without spelling mistakes.

Collect opinions - this item includes Word cloud, Poll, Open-ended, Drop pin, Brainstorm.

In Present info, questions are created using slides. In this case, no matter which clause is used to form the question, it is done in the same sequence as above. It only differs slightly in terms of more or less time to choose the answers, such as choosing one, two or more answers correctly.

If the questions are ready, a pin code will be set for this game. Pupils playing this game in class will become participants of the game if they enter their name or a name on the phone and enter this pin code. The game starts when all participants enter. Questions begin to emerge. Participants mark the answers. They need to define it correctly and quickly. Finally, we can observe the following situation.



The result shows that the student who named himself DS answered 19 out of 25 questions and got the highest score of 16551. The 2nd and 3rd place students got the correct out of 16 points, but they scored faster.

Mystery box method. This method is one of the new methods, it is a very interesting and innovative method. This method is used to repeat and strengthen a previous topic, a new topic or several topics. To use this method,

it is necessary to divide the group into two or small groups. Based on the number of boxes, you can divide into groups. For example, if it is divided into two groups, two boxes are needed. Pupils of two groups draw a question, formula, rule or a drawing related to science on the topics listed on the list. We put any one of the above and these lists in a box and mix the questions in the box. The first group will give the box with the questions to the second group, and the second group will give the box to the first group. Pupils in each group choose one question from the box and answer the questions. The importance of the mystery box method is that when this method is used, all students participate. Even if he can't find answers to questions, at least he makes questions. If this method is used, everyone in the group will be equally active.

In conclusion, we can say that there are methods of using various pedagogical technologies in the qualitative teaching of physics lessons and increasing students' interest in science. Modern pedagogical technologies that can be used in the course of classes and examples of their application are also presented. It is also shown that through pedagogical technologies, it is possible to develop students' logical thinking, quick and accurate decision-making, and creative abilities.

### References

1. Rahmatov S.E, Nurolliyev N.Sh, Eshboboyev S.N "Methodological manual for performing laboratory work in physics" :2021
2. S.I. Mirhayitova "Pedagogical technology". Guide to the module Tashkent-2020. b. 42-43
3. M. D. Jorayev "Physics Teaching Methodology: 2015". 3-6
4. A.G Ganiyev, A.K Avliyokulov, G.A Almardanova "Physics" part 1. Textbook for academic lyceums and vocational colleges.: 2011.
5. Science and innovation. Materials of scientific and practical conference.: 2018. 142-145
6. O.Q. Kuvondikov "Methodology of using innovative technologies in teaching physics" : 2022. p. 170-174
7. <https://studfile>.

<b>PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA</b>	Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.
<b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b>	Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.	Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.
<b>1-son (2024-yil, mart)</b>		Bosishga ruxsat etildi 01.02.2023
<b>Jurnal 2023-yildan chiqa boshlagan</b>		Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
		Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 9,5
		Adadi – 100 nusxa
		Buyurtma № 1 Bahosi kelishilgan narxda.
	<b>Orginal maket uchun mas‘ul: Mirshod SATTOROV</b>	<b>“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ</b>
	<b>Dizayner: Shoxrux AHMADOV</b>	bosmaxonasida chop etildi.
	<b>Maqolalarni qabul qiluvchi: Anvar NUSRATOV</b>	Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy.







<https://scientificjournal.uz/>

